[illegible] valida tezroq bandalikni bajo keltirsa-yu, tul qiz-xotin [illegible] qoqlik qilsa... Don olishib yurgan bir piyonista sayoqni [illegible] kelsa... Mushtipar ona-ku, oyog'ini uzatib yuborib-[illegible] tul xotin esa qamoqqa tushibdi. Uy ordona qolibdi. O'sha [illegible] ham odam tuqqanini bilasan-ku... Ona zoti ko'krak [illegible] vujudidagi pok xislatlar o'tsin deya oq sut bergan, [illegible] oq taragan. Shu bandai nodon Ona qotili o'z vuju[illegible] ajratib chiqqanini, uni o'zi parvarishlab, odam safiga [illegible]ganini bilganmi? Xo'sh, onaizorning o'limida kim ayb[illegible]dor emi? Yo badbaxt tul qizimi? Ehtimol, yon-veridagilar, [illegible]ardir? Balki, olomondir? Sen qanday o'ylasang, o'ylay[illegible]. Men boshqacha fikrdaman: hammasiga harom tomir [illegible]. Tul xotinning bunyod bo'lishida qandaydir bir sakta[illegible] [illegible]gani aniq. Yo otadan, yo onadan...

[illegible]larni o'z ko'zing bilan ko'rsang, qulog'ing bilan eshit[illegible] [illegible] hech nima qilolmasang... Qo'lingda bo'lsa-yu, o'ttiz [illegible] tishini qoqib olsang. Tovoniga qolsang ham mayli, [illegible] bunday illatlar barham topsa.

– [illegible] charchabsan-a, – dedi bulut. – Lekin ruhlar char[illegible] [illegible] bilishmaydi-ku?

– [illegible]malar deyapsan? Qanaqa ruh? – deya jahlim chiqib [illegible]. Men jon qaqshab gapiryapman-u, indamasam, bu [illegible] kulyapti.

– [illegible] arvohsan, – dedi bulut qat'iy ohangda. – Tanang [illegible]ardadir yotibdi, ehtimol, uyingda, balki suv ostida... [illegible] tandan chiqib, sang'ib yuribsan. Sezib turibman, [illegible] ko'tarilish ishqida yonyapsan... Odamning jismi [illegible], ruhi esa osmonniki-da. U hech qachon zaminga [illegible] [illegible].

– [illegible]ng-chi, – dedim battar jahlim chiqib. – Bu safsa[illegible] [illegible] boshimni qotirma. Qanaqa ruh, qanday tana axir? [illegible] sog'lom odamman. O'lganim yo'q.

– Adashasan... Lekin ruh bo'lsang-da, bu yerlarda bekor [illegible] yuribsan. Ortingga qayt. Taningga qaytib kir. Unutma: [illegible] yo chiqqan odam o'lik kabidir. Hayot ham haz[illegible] [illegible] bilan go'zal. Shuning uchun achchiq qilmasdan, or-

tingga qayt. Ko'ryapsan-ku, sen intilgan, ehtimol, orzu qil
falakda ham ko'p Buyuk Qutqu bor. Ixtilofu Ig'vo bor... Tag

Bulutning gapi og'zida qoldi: yana chaqmoq chaqil
monu falak gumburlab ketdi. Bu safar meni ham yashin

Chap yelkam va ko'ksim olovli zarbdan titrab ketib,
deb yubordimu yerga yuztuban yiqildim...

* * *

... Kimdir turtdi. Ko'zimni ochsam, ayolim jilm
boshimda turibdi.

– Turing, choshgoh bo'p ketdi. Ishga kech qolmang tag

Jon holatda o'rnimdan turib ketdim. Manglayimdan
oqardi. Yuz-qo'limni yuvmasdan derazaga yugurdim.
qarida havoning avzoyi buzuq. Bulutlardan bir uyur
asi osmonda suzib yurgan pag'a-pag'a barqutlarga
qo'shilayotgan edi. U xuddi menga qarab mayin jilmay
day bo'ldi. Bu jilmayish moyanasida chap yelkam
beixtiyor yelkamni silagan edim, og'riq turdi. Og'riqki,
beradi, taning tik ekani, uni qandaydir bir Ichki Kuch
rayotganiga inonganing sayin, lazzat tuyasan...

Biroq bu lazzat uzoq tatimadi. Dasturxonga o'tirishim
lan ayolim:

– Aytgancha, eshitdingizmi? – deb qoldi choy quyar
tashvish tortib. – Oldimizdagi «dom»da yashaydigan
zamon degan yanga bor-ku, haligi erdan chiqib kelib o'
tul xotin, o'shaning yolg'iz onasi anchadan beri o'sal yotg
bugun qazo qilibdi... Har holda, qo'shnichilik, ishga bori
avval fotihaga kirib o'tsangiz, yaxshi bo'lardi...

Ishtaham taqa-taq bo'g'ildi. Tomog'imdan choy
o'tmadi...

Beixtiyor pichirlaganimni sezmay qoldim: «Ko'rg
o'ngmi yo eshitganim tushmi?..»



## MUNG

*Yozuvchi Abdunabi Abdiyevga bag'ishlayman.*

### I

[illegible] issig'i etni kuydirdi. Kun tikkaga keldi.

[illegible] uch otliq adir adog'idagi qishloqqa horib kirib [illegible] edi. Havo dim, xuddi jaziramada oynalari ochilmay-[illegible] avtobusda ketayotganday his qiladi odam o'zini. Burun [illegible] kengayib-torayib nafas olayotgan otlar uzun-qis-[illegible] qo'yadi. Qishloqning allaqayeridan javob keladi: [illegible] kishnash ovozi eshitiladi.

[illegible] otliq – qirq besh-ellik yosh atrofidagi qoramag'iz, [illegible] aralash chakkalarigacha ajin tusha boshlagan [illegible] bir hovli darvozasi oldida jilovni tortadi. Ortdagi ikkisi [illegible] to'xtaydi. Qizil baytal mingan kishi shoshilmay, polvon-[illegible] tashlab viqor bilan uzangidan oyog'ini uzadi. Uchinchi [illegible] tag'in, eti-ustuxoni aniq ko'rinib turgan jikkakkina [illegible] odam yurib, qora otliqqa bir nimalar deydi. Qora otliq [illegible] qoqq solmaydi. Bir nimalar deb to'ng'illaydi. Tortishadi. [illegible] otliq norozi kayfiyatda tulporining yuganini tortadi, ot [illegible] yonadi. Jikkak kishi esa yelkasini qisib, qaytadi va hovli [illegible] taqillatadi.

[illegible] zumda darvoza ohista ochilib, shoyi ro'mol uragan [illegible] qorasi ko'rinadi. Otliqlar u bilan salomlashadi. [illegible] ochiq chehra va xushhollik bilan ichkariga manzirat [illegible]

[illegible] mehmon, sizni domla juda intiq kutib yotibdilar...

[illegible], men sherigim bilan keldim, – deydi polvonkelbat [illegible]

[illegible] bemalol kiraveringlar, mehmon, qani u kishi? – [illegible] shunday deb boshini darvozadan chiqarib, yon-atrofga [illegible] alanglaydi.

[illegible] anal – deydi mehmon ikki ko'zi ortida, nari ketayot-[illegible] otliqni ko'rsatib.

Ayolning avzoyi o'zgarib ketadi. Yuz-ko'zi nafratga to'ladi.

– Yo'q, u qadamini bosmasin bu yerga! – deydi. – U dunyo - bu dunyo uyimga kirmaydi...

Polvonkelbat odam seskanib ketadi. Tang qoladi. Qovog' osiladi.

– Unda xayr! Men ham ketaman... – deydi va ortga qayt boshlaydi. Jikkak odam ikkilanib, u ham ergashadi...

## II

Ayozning qattol qamchisi sitilib, dastasidan hovur ko'tar la boshlagan, osmonu falak tiniqlashib, parqut bulut suzayot gan mahalda Abdul Nosirning ilhomi keldi. Bahor – uning uchun elkezar pallasi. Har yili vohaning qishloqlarini aylan polvonu chavondoz, cho'ponlar bilan gurungni ko'ngli to ab qoladi. Ta'tilda, sog'liqni bir tiklab kelaylik, deya bahor to'qiydi-da, qo'shni tumanlarga qarab ketadi. Odamlar ur moqlab olgan to'rvaxaltasini ko'rib, sanatoriy-panatoriya ketyapti, deb o'ylaydi. Qayda, Abdul Nosir xastamidiki, sa atoriy borsa... Shunchaki, dashtni, kengliklarni, polvonlar gu rungini xumor qiladi.

Gurung ham oddiygina bo'lmaydi. Abdul Nosir polvonla tursa turadi, yotsa yotadi. To'yga desa, ergashadi. Qadrda bo'lib qolgan cho'ponlar ham uning gurungini yaxshi ko'r di. Bor-budini oldiga to'kib, mehmon qiladi. Cho'ponlar bir haftalab adirdan beri kelmaydi. Cho'pon ovqat yeydi. Kundo lari og'ziga tolqonni solib, so'rib yuraveradi. Chavandoz bilan hatto ko'pkariga borib qolsa, hech qursa, qoqmada chopadi.

Abdul Nosir uyga qaytgach, hafta-o'n kun muk tushib ko'rgan-kechirganlarini qog'ozga to'kadi. Shu ko'yi navba dagi asarlar dunyoga keladi: biri hikoya, biri qissa bo'ladi. uni yutoqib o'qiydi. Ko'ziga surtib o'qiydi. Abdul Nosirning gurungida bo'lishni orzulab yuradi.

Mana, kuni kecha tog'li tumanlardan biriga endigina yet borib, ko'p yillik qadrdonining uyiga qo'noq bo'lgandi. Ha



lar bilan ko'rishib ulgurmasidan uzoq yillar avval bir- tanishgan, o'zidan yoshi kichikroq bir olim – Jovli Lapasov kelib qoldi.

– Abdul Nosir aka! – dedi u muddaoga ko'chib. – Tog'amiz kasal ishqibozi. Ancha yildan beri betob, ana ketaman, ana ketaman deb yotibdi. Uch-to'rt marta menga iltimos qildi. Kecha tumanimizga kelganingizni qishloqdoshlar- dan eshitib, yana tayinlab so'rattiribdi. Shu kishini bir ziyorat qilsangiz, ko'ngli ko'tarilardi...

Abdul Nosir yo'q deyolmadi. Hamma rejasini o'zgartir- ishga ruxsat berib yubordi. Tashqariga chiqishsa, Jovli La- pasov ta emas, yonida bir sherigi, jikkakkina odam ham bor ekan. Uydan chiqishayotganda Jovli Lapasov o'zining ... yuganini mehmonga tutqazmoqchi bo'lgandi, mez- bon ... qoldi:

– Ko'ring, aka, har kelganda mening qizil baytalimni mi- nib ketdi. O'zinikiday bo'lib qolgan, – dedi.

... ko'tarishib o'tirmadi. Uchovi uch otda yo'lga tush- ... otlar bir maromda tuyoq tashlaydi. Xuddi ... allalayotganday odamni mudroq bosadi.

– ... tog'angiz nega betob? Qayeri og'riydi? – dedi ... Nosir egarning qoshiga qamchining qulog'i bilan silgib, ... ekan.

... olislarga tikilgancha, xomush tortdi. Chuqur ... oldi.

– Ikki marta infarktni o'tkazdi, – dedi so'ng. – Yuragi char- ... aka yuragi.

... juda chuqur qayg'u ohangida aytdi.

– ... ishda ishlaganmi? – so'radi Abdul Nosir.

– ... uncha-muncha ... og'irmas edi... – dedi Lapasov. – Hayoti ... hayoti.

– ... ming yillik gap, – istar-istamas hikoyasini bosh- ... Lapasov, qamchisini otning jabdug'iga beparvo ... qo'yar ekan. – Tog'amiz adabiyot o'qituvchisi edi. ... avval edi, u payt men endigina ilmiy ish boshlagan,

bo'ydoq edim. Nimadir bo'ldi-yu, shahar ketaman, [illegible] tetda dars beraman, deb qoldi. Xursand bo'ldim, endi [illegible] si oqarib, biz jiyanlarga ham epkini tegib, yelkamiz [illegible] ko'rar, deb quvondim.

Shaharda ijarada yashay boshladi. Oilasi qishloqda [illegible] di. Tez-tez qishloqqa qatnab turdi. Oradan yil o'tib, [illegible] hafta, so'ng uch, keyin oyda bir keladigan bo'ldi. Ya[illegible] xavotir bildirsa, ish ko'p, xotin, yumush ortib, bosh qash[illegible] vaqt qolmayapti, derdi. Ayoli sodda edi, chippa-chin [illegible] davlat ishi tugaydimi, otajonisi, ko'p ishlab, o'zingizni [illegible] qo'ymang, deb avaylardi.

Yangamiz ko'p mehribon edi. Tog'amiz bundan [illegible] o'ng'aysiz sezardi. Lekin nachora, erkak degani hamma [illegible] ham ayoliga aytavermaydi-da... Lekin tog'amizning [illegible] qishgacha bo'ldi.

Hamsoya ayollardan bittasi shaharda tog'amizning [illegible] bichim bir ayol bilan yurganini ko'rib qolib, yangamizga [illegible] qan. Yangamiz shaharga qarab o'qday uchgan. To'g'ri [illegible] versitetga borib, qiyomat qoyim ko'targan, tog'amisi [illegible] o'tib turgan joyidan yetaklagancha, qishloqqa olib [illegible] Tog'amiz fosh bo'lgach, ham sevimli ishidan, ham [illegible] ayrilgan. Qarigan chog'ida muhabbat qo'yib, yashi[illegible] yashab yurgan shaharlik ayol ham undan yuz o'girgan [illegible] tog'amiz... Juda orkash odam-da. Elning gap-so'zini o[illegible] Ko'cha-ko'yga kam chiqadigan, oshna-og'ayniga ham [illegible] maydigan bo'ldi. Kun uzog'i to'rt devor orasida timir[illegible] shundog'am obod hovlini yana obod qilib yurdi. Kechasi [illegible] mijja qoqmay kitob varaqlaydi... Ko'p ko'rganman: [illegible] sizning hikoyalaringizni ko'z uzmay o'qiydi. Bir papka [illegible] yig'ib qo'yganini bilaman. Lekin...

Jovli Lapasov boshini quyi egib, bir nafas tin oldi. [illegible] Nosir va jikkak jo'rasi jim tinglab kelayotganini fahm[illegible] davom etdi:

– Baribir dunyoning ishlari qiziq ekan-da, aka, [illegible] Hech kim indamasa ham, aybini yuziga solmasa ham [illegible] o'zini o'zi yeb bitirar ekan. Odamning ixtiyoridan tash[illegible]



[illegible] ham, u sizning aytganingizga bo'ysunmaydi ham, [illegible] bajarmaydi ham. Bu – Vijdon ekan, aka. Ana [illegible] tog'amizni ado qildi. Bora-bora yuragiga jabr qildi...

[illegible] savobini tezroq olaylik, Jovliboy! – dedi Abdul No[illegible] bilan.

[illegible] Lapasov bosh irg'ab ma'qulladi va otning biqiniga [illegible]

## III

[illegible] tanish hovli. Uch otliq. Abdul Nosir qizil baytaldan [illegible] Jovli Lapasov entikdi. So'ng ohista shunday dedi:

[illegible] aka, mana shu uy tog'amizniki. Safar oshnam bi[illegible] qilib chiqaverasizlar, men sizlarni uyimda kutib [illegible] Safar, – dedi u so'ng jikkak odamga yuzlanib, – meh[illegible] ning boshlaysan...

[illegible] bu holga lol qoldi:

[illegible] uka, bu yog'i necha puldan tushdi? O'zingiz [illegible] kirmaysizmi? Mezbon o'zingiz-ku? – dedi taajjubla[illegible]

[illegible] aka, safa bo'lmang, men kirolmayman... – dedi La[illegible] bilan.

[illegible]

[illegible] sukut saqladi. Bu paytda uning ichini it tirnayot[illegible] jikkak odam – Safar otdan tushib, oldiga bordi, unday [illegible] shart kirib borsang, mehmon atoyi xudo, seni [illegible] kirkragingdan itarmas, dedi. Lapasov ko'nmadi. [illegible] kelib, Abdul Nosirning o'ngiridan ushlab, sekin [illegible] tortdi.

[illegible] ko'p qichamang. Baribir kirmaydi. Yigirma besh [illegible] tog'asining ostonasini hatlab o'tmagan.

[illegible] nimani asir, uka?

[illegible] qo'ymaydi...

[illegible] qo'ymaydi?

[illegible] aka! Ayol zotining qahri kelsa, shuy[illegible] dunyoni chappa qilvorarkan-da. Asal zaharga,

kun zulmatga aylanar ekan. Jovli tog'aning eng yaxshi ko'rgan
oqibatli jiyani edi. U o'sha qiyomatdan keyin tog'aning sha
harda qolgan ikkinchi oilasi bilan yolg'iz o'g'ilchasidan xaba
olib turar edi. Yanga buni ham bilib qolib, xonadonidan unin
oyog'ini butunlay uzgan.

– Shuncha yildan beri qarindosh-urug'ning ko'zi qayerda
Bularni yarashtirib qo'ysa bo'lmaydimi?

– Qaniydi, aka. Qarindosh-urug', xeshlar qancha urindi
Yangaga yalinishgan. Hech fikridan qaytmagan. Eh-he, qish
loq kayvonilari, butun elimiz gapiga so'zsiz quloq osadiga
eshonlar, hatto pirlarimiz nomi ham o'rtaga tushgan. Foyd
bermagan. Yanga qasamiga juda qattiq turgan.

Abdul Nosir bu gapni eshitgach, qattiq larzaga kelad
Vaziyat u o'ylaganidan ham murakkab edi.

– Xudo urgan xotin ekan-ku, unda, – dedi o'ziga-o'zi pichir
lab. – Bu yerda izzatimiz yo'qqa o'xshaydi unda...

Ikkilanib turdi-turdi. Bu mahal Safar darvozani taqillatd
Fursat o'tib, darvoza shoshilinch ochilib, tanish ayol ko'rindi.

## IV

– Unda xayr! Men ham ketaman... – dedi Abdul Nosir v
shahd bilan ortga qayta boshlaydi...

Shunda... shunda yanga sarosimaga tushib, ikki o't orasid
qoldi: kirsin desa, yigirma besh yillik adovat hali tarqamagan
kirmasin desa, eri o'lim to'shagida. Axir u necha vaqtdan be
polvonlar haqida yozib yurgan adib Abdul Nosir bilan ko'rishis
istagida uni kutib, ilhaq bo'lib yotibdi. Hozir shuncha joyda
qadami yetgan, kimsan el tanigan adibni, tag'in mehmonn
ostonadan qaytarsa, aybi chorak asrlik isnod – odamlarnin
g'iybatiyu ulug'larning qahriga qo'shilib, yelkasidan zil-zamb
bo'lib bosishini o'yladi. Bu yukni bir muddat his qilib ko'rd
Shu jiyanni deb elga yana gap bo'lish, yomonotliq bo'lis
naqadar og'ir. Eng yomoni eri boyagina: «Mehmon yolg'iz ke
maydi... Yaxshi kutib olinglar» degandi. Gap yakunida ihrani
past ovozda: «So'nggi iltimosim» deganday ham bo'luvdi-y



negadir e'tibor bermagan ekan: xasta odamning odatdagi in-
jiqligi deb tushungan ekan... Ha, erining ko'ngli sezgan, seza
turib shunday degan. Ehtimol, u erining eng so'nggi istagini
bajarayotgandir? Yigirma besh yildan beri so'zida qat'iy turib,
ichdan g'oliblik tuygan bo'lsa-da, erining bundan qanchalik
ezilib, azob tortib yashayotganini o'z ko'zi bilan ko'rib kel-
yapti-ku?! Ertaga elda mehmonga shart qo'yibdi, degan gap
tarqalsa, nima degan odam bo'ladi? Shunchasi yetmaydimi?

Ayolning sarosimasi ortdi. Ko'zini chirt yumdi, bir tomchi
yosh qalqib chiqdi. So'ng:

– Qayting, mehmon!.. – dedi. – Mayli, uyam kira qolsin...

Bu gap xuddi adirlar bag'ridan, huv olisdagi tog'lar to'shi-
dan otilib chiqqanday bo'ldi!

Bu paytda ko'cha boshiga – muyulishga yetay deb qolgan
qora ot taqa-taq to'xtadi. Jovli suvliqni qo'yib yuborib, ilhaq
ortga qaytdi.

## V

Ikki tabaqali derazaning bir ko'zi qiya ochilgan, darparda-
si ikki yonga ilinib, bahoriy havo kirib turgan xonaning to'rida
pastak yog'och krovatda tog'a yotibdi. Endigina oltmishdan
oshganu yetmishga yetmagan tog'aning holiga havas qilib
bo'lmaydi: ko'zining suvi qochgan, nursiz. Majolsiz tanasini
arang qimirlatadi.

Xonaga birinchi bo'lib Abdul Nosir kirdi. Tog'a o'mganini
sal ko'tarib, chiroyi ochilib qo'l uzatib ko'rishdi.

So'ng... jiyani kirdi-yu, tog'aning diydasi yumshab ketdi,
labi titrab, kemshaydi. Jiyan kela solib, tog'ani bag'riga bos-
di. Ular o'zini yo'qotib qo'ydi. Tog'a-jiyan krovatda o'tirgan
kuyi quchoqlashib, yig'lashib, bir-birini uzoq vaqt bag'ridan
bo'shatmay omonlashdi...

Ko'zidan ikki tomchi yosh sizib chiqqan Abdul Nosir ne-
ne davralarni ko'rmagan, ne-ne voqealarga guvoh bo'lmagan
edi. Lekin bunday quvonchni, diydorni ilk bor ko'rib, ichida
bir nima chirt uzilganday bo'ldi.

Safar ham ko'zini dastro'moli bilan artdi. Narigi xonad
ayol kishining hiqillab yig'layotgani eshitildi.

... Nomozshom mahali yanga jikkak odamni chaqirdi:

– Safarboy, uka, bir sovliq bor, shuni so'yib bering, qo
zonga bosaylik. Akangiz aytgandi, esimdan chiqay debdi shu

Safar tog'aning ishorasi bilan tokchada – qinini chan
bosgan qassob pichoqni olgancha chiqib ketdi.

U ketgach, tog'a ichikib gapirdi:

– Abduljon uka, kelib yaxshi qipsiz. Anchadan beri bi
ko'rishishni orzu qilardim. Qarang, dardim yengillashganda
bo'ldi, uka. Shuncha kayvoni, hatto hojiyu eshonlarimiz qilol
magan ishni sizday polvon yozuvchi uddasidan chiqishin
gizni bilgandim... Yangangiz bir umr meni kechirmasa kera
deb o'ylagandim. Bu xotin temirdan o'tgan ekan. Temirniyan
eritsa bo'ladi... Otangizga rahmat, uka, kelganingizga boshi
ko'kka yetdi. Jiyanim... Qadamini yetkazganiga shukr. Umri
uzayganday bo'ldi.

... Dasturxon quyuq tuzalib, tovoqlarda qovurdoq oli
kirildi. Suhbat yarim tungacha davom etdi.

Abdul Nosir ketar chog'ida tog'a bir eskiroq kitobni uza
tdi:

– Shunga bir dastxat yozib bering, uka. Esdalikka...

Abdul Nosir kitobni qo'lga olib qaradi: o'ziniki. Polvonla
haqida iztirob bilan bitgan qissasi. Kitobning u yer-bu yerig
qalam bilan chizilgan, ehtimol, eng muhim deb bilgan joy
lari belgilangan edi. Abdul Nosir dastxat qo'yib bo'lib, tagig
chizilgan bir gapni o'qidi. Unda: «El manaman degan mans
abdor yoki kayvonini tan olmasligi, mensimasligi, yo'rig'ig
yurmasligi mumkin. Lekin polvonining gapini oladi. Hec
qachon polvonning gapini yerda qoldirmaydi», – degan biti
bitilgan edi.

Abdul Nosir jilmaydi: «Eh, domla, domla... Ichingiz to'l
dard ekan-ku!..»

Abdul Nosir tog'a bilan xayrlashayotib, ko'ziga qaradi:



elib, hali tiriklik nimaligini his qilmasdan bo'g'ziga bo'rin-
ng so'ylog'i botgan ohu bolasining ko'zidagi mungga o'xshar-
di. Abdul Nosir buni keyinchalik, o'sha tog'a haqida yozgan
dardga to'la qissasini endigina boshlagan chog'da Jovli La-
pasov qo'ng'iroq qilib aytgan shumxabardan so'ng bildi: bir
ylik umri qolgan odamning ko'zida o'zi ana shunday ma'no
bo'lar ekan, shekilli...

*Toshkent, 2016 yil*

## TIRIK TOVON

To'qsonbosdi mahali edi. Tilovning baytal chopib bo'lsa-
la, poyga olaman, deb karillab yurgan paytlari.

Bo'sag'adagi ola po'stakning ustida «hur-hur» uxlab yot-
an mushuk yoniga tushgan choponning shovuriga uyg'ondi;
o'zini erinibgina ochdi, cho'zilib kerishdi, old oyog'i bilan
yuzini yuvdi.

– Pisht-ey! – dedi xo'jayin asabiy. – Tur yo'qol, ko'zimga
o'rinma...

Mushuk mushuk bo'lib, xo'jayindan dag'al gap eshitdi.
urkib turdi-turdi, olazarak xo'jayiniga qaradi-yu, dumini
isib, chiqib ketdi.

Mushukning hatto miyovlamagani ham Tilovga g'alati
uyuldi. «Bekor qildim-ov shuni, – dedi. – Nima aybi bor edi
ning?»

Do'xtirning so'nggi gaplari qulog'idan ketmayapti. Endi
ima qiladi? Xotini ham bu yoqda tizillab yig'lagani-yig'lagan.
ardini eshitar quloq yo'q. Tilov u yog'idan o'tadi, avraydi
bu yog'idan o'tadi, ovutadi, foydasi yo'q, illo, o'zining ham
ngli g'ash. Bu g'ashlik tobora kuchayib borar, xotinning
hishib ketgan ko'zlariga qarab, yuragi achishadi; nima qilsin,
ygandan kuyib ketyapti. Xotini yukli bo'lib, ko'ylagining
urmasi kengaya boshlagan mahali suvchechak toshdi. Og'ir
shdi. Undan so'ng boshi xastalikdan chiqmadi. Buyam ye-
naganday, bemorlikdan zada xotini asabiy bo'lib qoldi-yu,
z-tez janjal chiqa boshladi.

Dilsiyohlik ortgandan-ortib bormoqda edi. Tilovni
ichiga chiroq yoqsa, yorishmaydi. U xonaga o'tadi – o'tirga
joy topolmaydi, dahlizga chiqadi – turolmaydi. Uyqusidaya
halovat yo'q. Do'xtirning gaplariga ishonmay, xotinini sinam
boshqasiga ko'rsatgani olib bordi ham. Uyam o'sha gap
aytdi: yukli xotinga chechak chiqsa, qornidagi bolasi tug'm
ko'r bo'lib tug'ilishi mumkin ekan... Apparatga ham tushird
mujmal qilishdi, alomatlari borday, deyishdi... Bilgich el-xa
ham aytdi, eshitgani boshini sarak-sarak qildi.

Uch kunki, ikkisi ham ich-etini yeb yotibdi. Og'ir-og'
Tilovga og'ir bo'ldi-da. Tug'ilajak zurriyotini, uning taqdiri
o'ylab bir ezilsa, xotinining holiga boqib, ikki kuyadi. Mana
beozor mushukcha ham ko'ziga ofat, ajina bo'lib ko'rinyap

Tilov dahlizga chiqib, eski bir taypoq xontaxta yoni
uzaldi. O'ng qo'lini boshiga tirab yotdi-yotdi, bo'lmadi. Xayo
ming ko'chaga kirib chiqdi.

Nega bunday bo'ldi, Tilov? Axir o'g'illaring so
pa-sog' tug'ilgan edi-ku?! Durkun bo'lib katta bo'lyapti-ku
Urug'-aymog'ingda ko'r yo'q edi-ku? Yo xotiningning na
lida bormikin? Yo'g'-a... Uylanayotganingda ota-onang ye
pushtini surishtirgan edi. Yaxshi eslaysan buni. Ayolingni
bittagina kamchiligi chiqqan, Jo'lli soqov degan uzoqroq b
amakisi bor ekan. Surishtirsa, uyam tug'ma soqov emas eka
bo'zbola payti Oqsuv qishlog'idan tunda yolg'iz o'zi baytali
kelayotganda oldidan tuyqus bir sharpa chiqib, otni hurk
gan, baytal o'zini qirga urib, uni tashlab qochgan, zumda g'
yib bo'lgan sirli sharpadan qattiq qo'rqqanidan bir mudd
butkul tildan qolgan, keyinchalik sal-pal duduqlanib, gapi
boshlagan, endi tuzalay deganda, odamlarning masxarala
ustidan kulavergani tufayli uyatdan yana gapirolmay, batt
tildan qolgan ekan. Soqovlik-ku nasl surmaydi. Lekin...

Unda nega bunday bo'ldi, Tilov? Bolang nogiron tug'
sa, bir umr o'zingni aybdor his qilmaysanmi? Xotining-ch
Bolangning o'zi-chi? Aybdor emasligingni qanday tushun
rasan? Axir u...

Esla, nimadir xatoying bor sening. Xotirangdan o'chga
dir. Yo taqdirga tan berib yashaysanmi? Yo'q, unday qilolma



an. Nogiron bolaga qarashga yuraging dov bermaydi. Axir
o'zing ko'zi ojizlikning nima azob-uqubat ekanini yaxshi bi-
lasan-ku...

Ana, xotining yostiqni jiqqa ho'l qilib, narigi xonada yotib-
di, bolalaring tashqarida qiyqirib o'ynab yuribdi. Sen bo'lsang
bu yerda... o'pkang to'lib o'tiribsan. Mayli, hech bo'lmasa, ho-
ir, yolg'iz paytingda bir bo'shashib ol. O'kirib-o'kirib yig'la-
ang ham mayli, hech kim eshitmaydi baribir. Shum xabar
hammani karaxt qilib qo'ygan, seni tushunishar.

Alam qildi. Ko'zi yiltilladi. Nimadir ichidan quyilib keldi.
o'g'zi achishdi. Kipriklari ohista ulandi.

E, voh! Ko'zi yumilishi bilan necha kundan beri o'ylab
o'yiga yetolmayotgan odamning xayolida yaqin o'tmishidan
talabalik yillaridagi bir manzara chaqinday chaqnab o'tdi.

... yetaklashib kelayotgan ikki yigitni hamma qiyomatlik
do'st, derdi. Qurbonjon oqibati bo'yidan baland Tilovdek osh-
asi borligidan terisiga sig'may yuradi. Nima qilsin, Qurbon-
on – nogiron. Ko'zi ojiz. Dunyoni ninaning teshigidan mo'ra-
aganchalik ham ko'rolmaydi. Uning ko'zi – Tilov.

Tilov deganlari u paytlarda juda bama'ni yigit edi. Nov-
ha, bug'doyrang, ko'zlari qisiqqina sertavoze bu yigitni mi-
oli Hotamtoy deysiz. Har yerda har kimning hojatini chiqa-
ib ketaveradi. Birovning dilini og'ritmaydi. Sochini kalta ku-
ab, doim moviy bo'yinbog' taqib yuradi. Yelkasiga kattagina
umkani osvolgancha tinim bilmaydi. O'qish, ish deb, oyog'i
lti. Butun kurs uni yaxshi ko'radi. Odamshinavanda-da Ti-
ovboy. Yelkasi yo'q ayrimlar: «Zarilga – zaril, Tilovga nima
aril bularni taqimiga bosib yurishning?» – deya g'ayirlik
ilgisi kelar, Tilov esa bunday gaplarga parvo ham qilmasdi.
ta-onasining arzandasi bo'lib yurganlar do'stlik nimaligini
ayerdan bilsin, axir.

Mana, hozir ham u Qurbonjonni yetaklagancha darsga
irib kelishi bilan kursning yuzi yorishib ketganday bo'ldi.
aqat burun-qulog'igacha tuk bosgan falsafa o'qituvchisi
axsumov domlagagina bu kechikish xush kelmadi. Qovog'ini
sib, ming'irlagancha o'tirishga izn berdi.

Tilov Qurbonjonni o'rta qatordagi partasiga o'tirg'izib, o'zi yoniga cho'kdi. Qurbonjon paypaslab sumkasidan brayl yozuvidagi kitobini chiqarib, parta ustiga qo'ygan edi hamki, yelkasiga kimdir «gurs» etkazib urdi. Qurbonjonning yuragi qinidan chiqayozdi.

– Bugungi bayraming – Xalqaro nogironlar kuni bilan tabriklayman, oshna! – dedi qo'l tashlagan shivirlab. – Bundan ham battar ko'r bo'lib yurgin!

Bu yana bir yaqin do'sti Behzod edi. Uyam nogiron, qismatdosh. Biroq ikkisi ham ilmtalab, behad quvnoq yigitlar. Shunday hazil-latifalari borki, eshitsangiz, etingiz jimirlab, hayron qolasiz. Hozirgina eshitganingiz tabrikning ohangi o'zgarmaydi hech...

Qurbonjon ham bo'sh kelmadi:

– Seniyam tabriklayman, «shahlo»! – dedi shivirlab.

Ular ilk bor tanishuvi chog'ida bir-biriga qarab: «Ko'zlaringiz muncha shahlo ekan...» deganini keyinchalik eshitib, kursdoshlar rosa kulgan.

Hozirgi hiring-hiring ham bejiz emas edi. Ba'zan bu ikkovlon bir-birining oyog'ini atay bosib olib, jo'rttaga qattiq chinqirib qolishardi. Tag'in ko'ngliga hazil ham sig'ardi bularning.

– Ko'zing ko'rmi? Nega oyog'imni bosasan? – deya baqiqardi Qurbonjon yolg'ondan.

– O'zingning-chi? G'ilaymisan, men bosmadim-ku? – derdi «shahlo» ham po'pisa qilib.

Ikkovi ko'zining paxtasi chiqib, tergab, turtib-surtishi tinguncha hamma qornini uqalab kulardi. Ularning fe'li-xo'yi hammaga ma'lum, hech kim ajablanmaydi, qaytanga zavq-shavq bilan qo'shilib kulardi. Bunday chog'larda ayniqsa Tilov yayrab ketardi. Qurbonjonning yelkasiga qoqib, yasha jo'ra, yasha, derdi ko'zlarini ishqalab. So'ng tirsagidan tutib shoshilinch allaqayerlarga ketib qolishardi. Ertasiga dars mahali Qurbonjon og'zi to'lib maqtardi.

– Jon do'stim bu – Tilov. Har kuni institutga olib kelib, olib ketadi. Kecha hatto bozorga tushib chiqishim kerak, degandim, oborib, uyimga tashlab ketdi. Shunday oqibatli do'stlarimizdan ayirmasin-da, ishqilib, – deya shukrona keltirib qo'yardi.



Qurbonjonning maqtanganicha bor. Tilov qayerga borsa, uni yetaklab ketadi. Kino, teatr, bozor, hatto kezi kelganda, xesh-qarindoshlarining to'yigayam, ma'rakalarigayam hamroh qiladi. Bunga Tilovning tanish-bilishlariyam ko'nikib ketgan, yetaklasa, bir bechora nogironni yetaklabdi-da, savob ham kerak, deya undan mamnun bo'lishardi. Goh Qurbonjon, gohida «shahlo» bilan yetaklashib, chaqchaqlashib yurgan Tilov ko'cha-ko'yda ham odamlarning rahmati, olqishini olar, bundan ko'nglida o'zgacha zavq ham tuyardi.

Ana shunday kunlarning birida Tilovga qo'ng'iroq bo'ldi. Qishloqdosh-sinfdoshi tug'ilgan kun qilayotgan ekan. Tilov o'yladi-o'yladi, oxiri Qurbonjonnikiga yo'l oldi. Uning istiholasini eshitib ham o'tirmadi, birga bora qol, o'zimning qishloqdosh jo'ram bo'ladi, seniyam tanishtirib qo'yaman, bir yayrab kelasan, deya qo'yarda-qo'ymay yetaklamoqchi bo'ldi. Qurbonjon oyoq tirab oldi, notanish bo'lsa, men nima qilaman u yerda, oshna, ortiqcha gap-so'zga qolasan o'zing, mening turishim bu bo'lsa, dedi. Tilov Qurbonjonning istiholasini tushunib turgan esa-da, yolg'iz borishga unamadi. Ranjigannamo tutdi o'zini. Yo'l-yo'lakay, «Shahlo»ni ham hamroh qilishni aytgach, Qurbonjon rozi bo'lishdan o'zga chora topolmadi.

Tug'ilgan kun sohibi ko'rimsizgina, aftidan talaba zotiga yashashi mumkin bo'lgan xarobgina hujra eshigini ochar ekan, bir Tilovga, bir uning yonidagi nogiron yigitlarga qaradi, so'ng shoshilinch ichkariga manzirat qildi.

Tilov hamrohlarini, keyin dasturxon atrofida yastanib o'tirgan mezbonning o'n chog'li do'stini bir-bir tanishtirib chiqdi. Dasturxon odmigina tuzalgan bo'lsa-da, fayzli edi. Noz-ne'matlar yetarlicha, bir-ikki «bo'yni uzun»dan ham ko'rinish berib turibdi.

Gurung avjiga chiqqanda, Qurbonjonga, azbaroyi davraga yaqinlik hissini uyg'otish uchunmi, harqalay, jon kirdi. Tilov

haqida juda ohorli ta'riflar berdi. Maqtovga «shahlo» har ora-sira qo'shilib turdi. Hojatbaror, shinavanda do'stini kish bilmas maqtashdi. Eshitganlar hali-hamon oqibat, do'stli degan narsalar borligini aytib, shivir-shivir qila boshlashd Buning sharafiga qancha-qancha piyolalar jaranglab ketdi.

Bir mahal Tilovning qo'l telefoni jiringlab qoldi. Kayfi ta roq Tilovboy, tog'lik emasmi, xuddi otasining «Bog'i erami»d yurganday, butun mahallani boshiga ko'tarib, gaplashdi:

– Alo? Nurmat? Senmisan? Ha, nima gap? Nega ko'chad qolasan? Qayerda? Ha, yo'lkiraga puling qolmadimi? Iye, uz jo'ra, mendayam shu ahvol, hemirim ham yo'q edi-ya...

Keyin Tilov davraga bir ko'z yugurtirdi-da, muhim bi maxfiy gapni aytmoqchiday, turib, narigi xonaga chayqa la-chayqala chiqdi. Qo'li bilan og'zini mahkam pana qili go'shak uchini bekitdi, juda past ovozda shivirladi:

– Nurmat, jo'ra, manzilni aytaman, shu yerga kelgin, bi ilojini qilamiz. Pul chiqmasa, ana, yonimda ikkita nogiro kursdoshim bor. Taniysan ularni. Shulardan bittasini yetak lab ketasan. Avtobusga ham, metroga ham pul to'lamaysan yetaklovchisiman deysan, bo'ldi. Ularni yetaklovchilargayar «Igota» bor-da... Voy-bu, nega tirik tovon bo'larkansan Ichingni og'ritadimi tekin ulov? O'zi bittasining dahmazasi o'ylab, qanday qilib uyiga oborib qo'ysam ekan, deb turuv dim. Kelaqol endi, oshna?..

Tilov ko'zlari suzilib, telefonning qizil tugmasini bosd Xayolan doim pulga doriqib, qarz so'rab yuradigan bechora hol Nurmatni ko'z oldiga keltirdi.

«Xayriyat, – deya o'yladi. – Yaxshiyam, shu invalid kurs doshlarim bor. Uch yildan beri o'qishgayam, ishgayam, bo zorgayam tekin borib yuribman... Ham savob, ham tekin ulo deganday...»

Tilov bizga tanish bazm dasturxoniga qaytib kirganid Qurbonjon haliyam u haqida, odamgarchiligi to'g'risida mam nun bo'lib so'zlab o'tirgan edi...

Mana, Tilov o'sha oqshomdagi gaplarni kuni kech bo'lganday aniq-tiniq esladi. Ikki nogiron oshnasining maq



tovlari moyday yoqib tushgani, mezbon jo'ralariga ko'zini qisib, qara, qanday savob ishlar qilib yuribman, degani, mastlik ekan, kamiga nogiron yigitlarning har bir gapini qo'l isho-ralari bilan ko'rsatib, kalaka qilgani, ko'chada pulsiz qolib, ija-ra uyiga yetolmay qolgan Nurmatga «jonli tekin yo'l chiptasi» – «shahlo»ni qo'shib yuborgani – barcha-barchasini xotirladi.

«Eh, nodon! – dedi xo'rligi kelib. – Aslida men, o'zim ko'r bo'lgan ekanman... Savobim bir tanga, gunohim ming tanga bo'lgan ekan-ku. Jazoimni berdimi endi?

Qurbonjon! Behzod! Bilaman, o'sha paytlar mening noba-korligimni bilgansizlar, sezgansizlar... Nega men ablahning be-timga tupurmadinglar? Bilmagan bo'lsanglar-ku, yaxshi, lekin nega men bunday edim? Endi, mana, o'zimning ham tug'ilajak bolamning ko'zi... yo'q, aytishga tilim bormayapti. E, voh, nega axir? Sizlarni yaxshi ko'rishim haqiqat edi. Lekin ko'nglimning bir chetida baribir ustingizdan ozgina kulgim kelgani, sizlar-ni yetaklab, odamlar ko'ziga yaxshi ko'ringim, doim sizlardan foydalangim kelganini hech kimga aytmaganman, aytolmagan-man-ku?! Ie, nimasini aytay, jo'ralar! O'tgan umr ham otilgan o'qday gap ekan, hech narsani ortga qaytarib bo'lmas ekan...

Yeldim-yugurdim. Biznesmen bo'lib tanildim. Qaranglar, shuncha o'zgaribman, biznes qilibman. O'ylasam, sizlarni ham biznes qilibman-a. Ay, men o'zimni odam sanab yuribman-a.

Tilovning yelkasi silkinib-silkinib, yuzini bolishga qo'ydi.

... Oyi-kuni bitib, ingrab, xotini belgi berdi. Tilovning o'pkasi to'lib, onasini qo'shib, tog'-tosh oralatib, Morsaroyga olib bordi.

Ko'k xalat kiyib, xonaga kirib kelgan o'sha – bolaning taqdirini aytgan do'xtirdan ham, novcha doyadan ham ko'zini olib qochdi...

Ayolini do'xtirlarning qo'liga topshirib, ikki ko'zi yerda, indamaygina chiqib ketdi. Tug'uruqxona atrofida quyuq da-raxtzor tagidagi o'tirg'ichga cho'kdi. To tunga qadar jilmadi. Ko'nglidan o'tganini yolg'iz o'zi bildi.

Bir mahal tungi chiroq yorug'ida shovqin solib bir sharpa paydo bo'ldi.

haqida juda ohorli ta'riflar berdi. Maqtovga «shahlo» ham ora-sira qo'shilib turdi. Hojatbaror, shinavanda do'stini kish bilmas maqtashdi. Eshitganlar hali-hamon oqibat, do'stli degan narsalar borligini aytib, shivir-shivir qila boshlashdi Buning sharafiga qancha-qancha piyolalar jaranglab ketdi.

Bir mahal Tilovning qo'l telefoni jiringlab qoldi. Kayfi ta roq Tilovboy, tog'lik emasmi, xuddi otasining «Bog'i erami»d yurganday, butun mahallani boshiga ko'tarib, gaplashdi:

– Alo? Nurmat? Senmisan? Ha, nima gap? Nega ko'chad qolasan? Qayerda? Ha, yo'lkiraga puling qolmadimi? Iye, uz jo'ra, mendayam shu ahvol, hemirim ham yo'q edi-ya...

Keyin Tilov davraga bir ko'z yugurtirdi-da, muhim b maxfiy gapni aytmoqchiday, turib, narigi xonaga chayq la-chayqala chiqdi. Qo'li bilan og'zini mahkam pana qil go'shak uchini bekitdi, juda past ovozda shivirladi:

– Nurmat, jo'ra, manzilni aytaman, shu yerga kelgin, b ilojini qilamiz. Pul chiqmasa, ana, yonimda ikkita nogiro kursdoshim bor. Taniysan ularni. Shulardan bittasini yeta lab ketasan. Avtobusga ham, metroga ham pul to'lamaysan yetaklovchisiman deysan, bo'ldi. Ularni yetaklovchilargaya «Igota» bor-da... Voy-bu, nega tirik tovon bo'larkansa Ichingni og'ritadimi tekin ulov? O'zi bittasining dahmazasi o'ylab, qanday qilib uyiga oborib qo'ysam ekan, deb turu dim. Kelaqol endi, oshna?..

Tilov ko'zlari suzilib, telefonning qizil tugmasini bos Xayolan doim pulga doriqib, qarz so'rab yuradigan bechor hol Nurmatni ko'z oldiga keltirdi.

«Xayriyat, – deya o'yladi. – Yaxshiyam, shu invalid ku doshlarim bor. Uch yildan beri o'qishgayam, ishgayam, b zorgayam tekin borib yuribman... Ham savob, ham tekin ul deganday...»

Tilov bizga tanish bazm dasturxoniga qaytib kirgani Qurbonjon haliyam u haqida, odamgarchiligi to'g'risida ma nun bo'lib so'zlab o'tirgan edi...

Mana, Tilov o'sha oqshomdagi gaplarni kuni ke bo'lganday aniq-tiniq esladi. Ikki nogiron oshnasining ma



tovlari moyday yoqib tushgani, mezbon jo'ralariga ko'zini qisib, qara, qanday savob ishlar qilib yuribman, degani, mastlik ekan, kamiga nogiron yigitlarning har bir gapini qo'l isho-ralari bilan ko'rsatib, kalaka qilgani, ko'chada pulsiz qolib, ija-ra uyiga yetolmay qolgan Nurmatga «jonli tekin yo'l chiptasi» – «shahlo»ni qo'shib yuborgani – barcha-barchasini xotirladi.

«Eh, nodon! – dedi xo'rligi kelib. – Aslida men, o'zim ko'r bo'lgan ekanman... Savobim bir tanga, gunohim ming tanga bo'lgan ekan-ku. Jazoimni berdimi endi?

Qurbonjon! Behzod! Bilaman, o'sha paytlar mening noba-korligimni bilgansizlar, sezgansizlar... Nega men ablahning be-timga tupurmadinglar? Bilmagan bo'lsanglar-ku, yaxshi, lekin nega men bunday edim? Endi, mana, o'zimning ham tug'ilajak bolamning ko'zi... yo'q, aytishga tilim bormayapti. E, voh, nega axir? Sizlarni yaxshi ko'rishim haqiqat edi. Lekin ko'nglimning bir chetida baribir ustingizdan ozgina kulgim kelgani, sizlar-ni yetaklab, odamlar ko'ziga yaxshi ko'ringim, doim sizlardan foydalangim kelganini hech kimga aytmaganman, aytolmagan-man-ku?! Ie, nimasini aytay, jo'ralar! O'tgan umr ham otilgan o'qday gap ekan, hech narsani ortga qaytarib bo'lmas ekan...

Yeldim-yugurdim. Biznesmen bo'lib tanildim. Qaranglar, shuncha o'zgaribman, biznes qilibman. O'ylasam, sizlarni ham biznes qilibman-a. Ay, men o'zimni odam sanab yuribman-a.

Tilovning yelkasi silkinib-silkinib, yuzini bolishga qo'ydi.

... Oyi-kuni bitib, ingrab, xotini belgi berdi. Tilovning o'pkasi to'lib, onasini qo'shib, tog'-tosh oralatib, Morsaroyga olib bordi.

Ko'k xalat kiyib, xonaga kirib kelgan o'sha – bolaning taqdirini aytgan do'xtirdan ham, novcha doyadan ham ko'zini olib qochdi...

Ayolini do'xtirlarning qo'liga topshirib, ikki ko'zi yerda, odamaygina chiqib ketdi. Tug'uruqxona atrofida quyuq da-rxtzor tagidagi o'tirg'ichga cho'kdi. To tunga qadar jilmadi. Bo'nglidan o'tganini yolg'iz o'zi bildi.

Bir mahal tungi chiroq yorug'ida shovqin solib bir sharpa paydo bo'ldi.

– Bo'riyevaning eri siz emasmi, aka? – deya so'radi hamshira qiz.

Tilov jon holatda o'rnidan turib ketdi.

– Menman!.. – dedi qaltirab. – Nima bo'ldi? Tinchmi?

– Tinch bo'lganda-chi! Tabriklaymiz! O'g'il-a! – dedi jilmayib. Uning jilmayishi xiragina tungi chiroq yog'dusiga qo'shilib, butun borliqni yoritib yuborganday bo'ldi. Biroq Tilov hamon jim turar, suyunchitalab hamshira esa tabassum bilan, ortiq gap aytolmay, undan javob kutardi.

Bir tuki o'zgarmagan Tilov xomush, go'yo aza tutayotganday, hamshiraning qo'liga ozroq tutqazgancha, og'ir qadam bosib, tug'uruqxonaga qarab yurib ketdi.

Yo'lakda boyagi ikki shifokorni – peshonasidan reza-reza ter chiqib turgan doya va do'xtirni uchratdi.

– Do'xtir, ayolimiz yaxshi qutulib oldimi? Chaqaloqning... to'rt muchasi sog'mi? – dedi zo'rg'a boshini ko'tarib.

Do'xtir jilmaydi.

– Uka, – dedi. – Hech xavotir olmang! Ona-bola soppa-sog'lom! Ba'zan do'xtir ham adashadi... apparatni ham odam yaratgan...

Tilovning yuragi dukkillab urib ketdi.

«Xayriyat! – dedi. – O'zingga shukr, Xudoyim! Beadad shukr...»

*2015-yil*

## YURAKNING BIR CHETI

*O'zimga men yangi hayot to'qidim...*
*Usmon AZIM*

U nihoyat oradan shuncha yil o'tib qalbiga yana bostirib kirib keldi...

Xonasida muk tushib, boshini qog'ozdan uzmay ishlab o'tirgan Orziqul eshigi ohista taqillab, sekin ochilganini, undan bir tim qora soch qarab turganini ham payqamadi. O'qiyotganidan ko'zini uzmadi. Kelmish qorasoch uzun-uzun



kelinbarmog'i bilan eshikni yana muloyimgina chertdi. Shundagina boshini ko'tarib, bir zum angrayib qoldi... va o'rnidan turib ketdi.

– Ie, Umida?! – dedi ovozi titrab.

Kelmish qorasoch esa eshik ortidan chehrasi yorishib, ming bir jilva bilan qadam bosdi.

Orziqul bir qadam yurib, to'xtadi. Tiliga gap kelmay, na salomlashishni, na jim turishni bilib, iljayib, qoqqan qoziqday turib qoldi. Umida undan ham besh battar qizarib ketdi. O'rtadagi necha yillik ayriliq, sog'inch hissi shu damda ikkisiga ham og'ir daqiqalarni tuhfa qilgan edi. Orziqulning ahvolini ko'rgan qorasoch nozikkina qo'lini cho'zdi va:

– Salom!.. – dedi.

Orziqul uning qo'lini tutar ekan, yuragi ko'pirib, entikib ketdi... Issiq qo'l... Qaynoq taftni tuydi. Ular qo'lni qo'lga berib, ko'zlariga termulishib, bir nafas tek qotib qoldilar. Gaplashmadi, dardmand ko'zlargina tilga kirdi:

«Seni ko'rar kun ham bor ekan-ku, Umida?!»

«Bor... Mana, keldim-ku?! Firmangizga ish bilan kelgandim, shu yerdaligingizni hozir bilib qoldim... O'zingiz-chi, o'zingiz, bir yo'qlamadingiz ham...»

«Axir...»

«Nima qipti? Hech bo'lmasa, yilda bir martagina... ana, dugonam Sarvinoz orqali bo'lsayam, yo'qlasangiz bo'lardi-ku...»

«Bo'lardi-yu...»

«Erga tegdi, bo'ldi endi, deb o'ylagansiz-da? Qo'rqoqvoy-ey...»

«Qo'y, endi, Umida, mening ham ko'nglimni yaralama...»

«Haliyam xafamisiz?»

«...»

Ikkisi ham o'tirishdi. Orziqul tikilib qoldi. Umida hech o'zgarmabdi. O'sha-o'sha mehr to'la ko'zlar, bir paytlar qo'llari silaganda yarqirab ketadigan manglayi, titrab turadigan labi, oppoq kulchadek yuzi...

Orziqul «oh» tortib yuborganini bilmay qoldi. Bir paytlar har ko'rganda qancha entiksa, hozirgisi ming chandon ziyod, ehtimolki, yurakning tasavvur qilish mushkul tubidan chiqqandi. Umida buni sezdi, iymanib, ko'zini olib qochdi. Termulguvchi ko'z esa iyigandan iyib ketdi. Bir vaqtlardagidek qo'lini kaftida tutib, sochlarini silagisi, mehrga belangan ko'zlariga termulib, o'zni unutgisi keldi. Ammo buning imkoni huv allaqachonlar qo'ldan boy berilgan edi... Ikkisi ham ayro o'zan bo'ylab oqib ketgan suv edi.

Orziqulning yuragini ana shu adoqsiz armon kemirardi. O'shanda... Yo'q, u o'ylaganday bo'lmagandi. Dunyoni g'aflat bosganda, inson ko'zini hirsu havo qoplaganda gul bulbulga zor bo'ldi, yorug'likda parvonadan darak ham yo'q edi. Qalbda bemisl tashnalik ildiz otdi.

O'sha mash'um kunda qo'liga bir parcha qog'oz yetib keldi. Gangib qolgan Orziqul bu yog'iga yashash abas ekanini anglaganday bo'ldi. Abgor qiyofasidan o'zini davralarda ortiqcha sezadigan bo'lib qoldi. Dunyoga sig'may ketdi. Majnunning ahvoli hammaga ma'lum edi. O'ylaganidek, o'tayotgan vaqt bunday odam uchun o'limdan og'ir. To'g'ri-da, odam o'zini o'zi begona sezsa, nima bo'ladi? O'ladi! Tiriklay tamom bo'ladi. Qiyofasi, tani-joni bo'ladi-yu, ruhan o'ladi. Shakl bor – ma'ni yo'q.

Shunday paytlarda u xayol qilardi: mahzun bir kuy taralsa, sekin-sekin avjiga ko'tarilsa, nolaning isi kelsa. Otangni eslasang, onangni yod olsang, aka-uka, opa-singillaringni bir-bir ko'z oldingdan o'tkazsang. So'ng... so'ng ko'zlaringdan oqayotgan vido yoshlarini artsang-u ortingda qolayotgan odamlar bilan bir-bir xayr-xo'sh qilsang. Foyibona vidolashsang.

Mahzun kuy davom etsa...

Qaytib ko'rishmaydigan bo'lib vidolashsang. O'y-xayollaring, orzu-umidlaring bilan ma'zurlashsang.

Orziqul boshini bir ko'tardi-yu, jiqqa ho'l bo'lgan bolishni aylantirib, teskari qildi-da, yana zilday boshini qo'ydi. Yotib-yotib ko'rgani ne bo'ldi? ... Tushida o'lgan emish. Jonsiz tanasini... o'zi ushlab ko'rgan emish! Hayron bo'lib, o'zini turtdi. Qimirlamadi. Xuddi birovning o'ligini qo'shqo'llaganday, seskanib ketdi. Murdasi qotib yotaverdi...



«Demak, rostdan ham o'libman...» – deya o'yladi. Keyin nariroq borib, havoda muallaq turgancha, kuzata boshladi.

Ana, tanasi yotgan xonaga bexosdan onasi kirib kela solib, o'zini tashladi. Jasadini quchoqlab, ko'ksini mushtlab, uvvos solib yig'ladi. Onasini ovutaman deb, otasi cho'kkaladi-yu, bo'zlab qo'yaverdi. Rangpar ukasi ko'zidan otilib chiqayotgan yoshlarni arta-arta ostonaga yaqinlashdi. Singlisi ichidan kuydi.

Tushdagi bu yig'i Orziqulni qayta o'ldirdi...

Shu onda ochiq derazadan esib turgan mayingina shabada pardalarni bir zaylda hilpirata boshladi. Bahoriy havo... Qulog'iga chalingan kuy chala uyqudagi Orziqulning dilini o'rtab yubordi. Bu kuyda nedir bir sinoat, nedir bir qizning hazin qo'shig'i, o'sha xotiridan ketmas dildorning nolalari, «oh»lari bordek edi. Bir paytlari shivirlagan qalb sirlari bor edi...

Orziqul uzala tushib yotgancha, bugun – qaysidir qishloqda o'tayotgan qandaydir bir to'y mahali – ana shu sirlarni bir umr qanday qilib yuragida saqlab yurish mumkinligini o'yladi-yu, eti muzlab ketdi, Yaratganning bir kuni buncha uzun bo'lmasa...

Orziqul ko'p do'stlarining to'yini ko'rdi. Shod-shodon juftliklarni uchratdi. Havasi ketib, ne-ne orzular qildi. Umida bilan yonma-yon, birga yashashni tasavvur qilib yurdi, o'g'il-qizlari bo'lishini niyat etdi. Ba'zan shu o'ylaridan o'zi uyalib ketar, kiprigida avaylab yurgan Umidasini hatto o'zining telba xayollaridan ham qizg'onardi. Bu qizg'onishda Orziqulning butun olami, ihotalangan ko'ngil talablari bor edi. U faqat va faqat o'ziniki deb tasavvur etardi.

Qizgina buni sezar, sezgan sari tag'in ham ochilib ketganday bo'lar, xushro'ylashib, Orziqulning ko'nglini butkul asir etardi. Kursdoshlari oshiq-ma'shuqni zimdan kuzatar, ko'pining dili g'ashlanib, ochiqcha hasad qilar, g'ayirligi kelardi. Ayrim dugonalar Umidani yo'ldan urish ilinjida ko'p

bor qutqu solib ko'rdi. Aqlli qiz edi, parvo qilmadi, chap berib yuraverdi.

Voh! Orziqul ayni damda o'sha chog'larni eslarkan, yuragining bir cheti jizilladi. Qarshisida o'tirmish juvonning dam yanoqlariga, dam peshonasiga termulaverdi. Bu yarqirab turgan yuz o't bo'lib kuydirdi.

– Bir-birimizga angrayib o'tiraveramizmi endi, – deya jilmaydi juvon noqulay vaziyatdan chiqish niyatida. – Yangiliklardan gapiring? Nima gaplar bor, olamda?

Orziqulning shiringina xayoli buzildi, talmovsirab, nima deyarini bilmay qosh chimirib qo'ydi.

– Bilmasam, – dedi. – Yaxshi gaplashib o'tiribmiz-ku? – Bu javobda hech bir ma'ni yo'qligini, axir, gaplashish tugul durustroq salomlashmasdan ham, olis xotiralarga berilib o'tirganini anglab, qo'shib qo'ydi: – Hammayoq tinch... Choy quyib beraymi?

– Ixtiyoringiz...

«Uh!..» – dedi ichida Orziqul. «Ixtiyoringiz!» Umida shugina so'z bilan Orziqulning jonini olardi. Sezishicha, bu so'zni faqatgina Orziqulga aytardi. Telba oshiq bundan bora-bora bir maxfiy ma›nini angladi: ma›shuqasidan eshitgani hamon ko'ngli o'n quloch o'sar, yuragi to'lib-toshib ketar, arzirli bir javob izlar, lekin doim sukutdan o'zga chora topolmas, ko'ziga tikilgancha haykalday qotib qolar; tikilganda ham uning ko'zida o'zining suratini ko'rib, ahvolidan xijolat tortar, biroq, hech bir kuch kiprik qoqishiga majbur etolmas edi. Lekin Orziqul hozirgacha bir savolga javob topolmaydi: nega o'sha paytlar qaysi qizni uchratmasin, darrov Umidaga qiyoslab ko'rar, ularning hech biridan Umidada bor nenidir topolmasdi...

Umida ham o'zi kabi ko'ngil quli edi. U ham Orziqulga qanday bog'lanib qolganini hech qachon aniq eslayolmas; vaqt o'tib, qarasaki, usiz turolmaydigan, bir soniya xayolidan o'tkazmasa, yuragida kemtiklik sezadiganday, hatto, keyingi paytlar nimagaki qo'l ursa, go'yo Orziqul unga qaydandir qarab turganday tuyular, tushida ham, hushida ham ko'z qiri



bilan boqib, sog'inchini yashirolmayotgan telba kabi es-xayolida gavdalanar, o'zi esa har narsani uning qarichi bilan baholayotganday bo'laverardi. Bu g'alati tuyg'u oldida o'zini ojiz sezib, boshqarolmaydigan darajaga yetayotganini his qilsa-da, ajabki, bundan ko'nglida suyunar, jindekkina g'ururni ham tuyardi... Axir, kimsan, har ishda o'z aytganini qiladigan telba-qaysar, bir so'zli, qat'iyat bobida marraga birinchi yetadigan Orziquldek yigit uning oldida doim hayajonda turardi... Mana, hozir ham – choy quyib beryapti hamki, barmoqlari qaltirab, shu soxt-sumbati bilan hayajonini bosolmayapti.

– Nima yangiliklar bor, Umida? – dedi Orziqul hech gap topolmay. – Qayerlarda... yashayapsiz?..

– Qayerda bo'lardi... qo'shni tumanga tushganman-ku, – dedi Umida. Keyin Orziqulning ko'ziga sinovchan tikildi: – Nima, bilmasmidingiz?

– Yo'q! – dedi Orziqul. Bilar edi, shu topda aytishga ko'ngli yor bermadi. «Bilgim ham kelgani yo'q», deb yuborishiga bir bahiya qoldi-yu, tilini tiydi.

– Eshitgansiz, deb yuruvdim...

Bir muddat jim qolishdi. Ikkisi ham piyolasidagi choyga tikilib, gapirishga jazm etolmadi. Orziqul zimdan Umidaning barmog'ida nikoh uzugiga ko'zi tushdi-yu, chap ko'ksida jizilloq turdi. Umida ta'qib qilayotgan nigohni sezdi, shekilli, qo'lini qo'liga chalishtirib, uzugini ko'zdan pana qilib oldi va:

– O'zingiz-chi? – dedi. – Uyingizdagi...lar yaxshi yuribdimi?

Orziqul yarq etib qaradi. Savoldagi alohida ta'kid nash'a qilib ketdi. Dangaliga tili bormaganini o'zicha tushundi va istehzoli kuldi:

– Ha, otam ham, onam ham yaxshi yuribdilar!

Umida pichingga qanoat qilmadi.

– Hm, bolalaringizning... onasi-chi?.. – deya o'smoqchiladi.

– Uyam bardam, – cho'rt kesdi Orziqul gap yo'nalishi necha yillardan beri kutilayotgan tomonga o'zgarayotganidan tashvishlanib.

– Chiroylimi?..

– Ha...

– Mendan hammi?..

Orziqul bunday nozik savolga nima deb javob berishni bilmas edi, shu boisdan kalovlanib qoldi. Umidaning fe`li unga ma`um edi-yu, bu kabi anchayin jiddiy, sirli va xiyla nozik savolni kutmagani rost. Shuning uchun chorasizlikdan azalgiday hazil aralashtirdi:

– Chiroyda sizdan o'tadiganini uchratmadim hali...

Umida buni ojizgina iltifot deb bildi va shu zahoti alamotiga qamchi bosdi:

– Doim jur'atsiz bo'lgansiz...

O, hammasi tamom! Orziqulning jon joyidan oldi! Nihoyat o'qlangan to'pponcha otildi! Nazarida, Umida shuncha yildan beri o'ylab-o'ylab, ming bir xulosalar orasidan chiqargan va o'ta tig'li so'ngso'z edi bu, go'yo. Hozir bu tig' Orziqulning shundoq ham shalvirab qolgan yuragini tirnab-tirnab o'tganday bo'ldi. Kuydirguvchi olovga o'zini urib nobud qilgan parvona kabi taslim bo'lishdan o'zga iloji yo'q edi, lekin bo'sh kelish ham yarashmas edi:

– Gap jur'atda edimi, Umida? – dedi yonib. – Otangizning talabi-chi? U talabni eshitgan har qanday yigit yo'lini shartta ters solib ketardi. Haliyam men...

– Nima, siz?

– Haliyam men jimgina, indamay qo'yganman...

– Iya! Bu oddiygina sinov edi-ku... – dedi Umida mehr bilan Orziqulning ko'zlariga tikilib. – Aslida otam unday demagan, men o'zim sizni sinab ko'rish uchun o'ylab topgandim.

– Nima?!

– Shunday...

Orziqul ustidan bir chelak muzday suv quyganday bo'ldi. Umidaga qahr to'la ko'z bilan qaradi: «Nahotki... nahotki, shunday bo'lgan, Umida? Nega bunday qilganding? Nima uchun yo'limiz ayri tushayotganda ham buni aytmading? Nega? Axir men yigitlik sha'nimni himoyalab, o'z muhabbatimdan ayrilayotganimda sen...»



Tizginsiz savollar quyilib kelaverdi. Orziqul asabiy qo'lini musht qilib tugdi.

– Ko'p muhokama qilingan muhabbat barbod bo'lishi rost ekan... – dedi keyin alam bilan. – Demak...

– Nima qilishim kerak edi? Hech qanday muammo yo'q joyda o'zingiz... xayr-xo'sh ham demasdan... Yigit kishiyam arazlaydimi?

– Men arazlamaganman!

– Unda nega sovchi ham yubormagan edingiz?

– Mening o'rnimda bo'lganingizda...

– ...dadilroq bo'lardim!

Orziqul Umidani taniyolmay qoldi. O'zi u nima demoqchi? Nega o'tmishda qolib ketgan, har esga tushganda yuragini azoblaydigan gaplarni qo'zg'ayapti? Maqsadi nima o'zi? Axir...

– Umida, qo'ying endi shu gaplarni, – dedi parishonxotirlik bilan. – Er yigit har kuni o'zgarib, buqalamunday tuslanmaydi... Sizga yetolmagan bo'lsam ham achinmayman, men hech qachon aytgan gapimdan qaytmaganman. Andisha yo'l bermadi, Umida, andisha... Otangiz o'zi va'da qilganiga berib, orzusiga yetgan bo'lsa, bo'ldi-da. Qo'ygan talabiga erman degani rozi bo'lmas edi-yov...

Umida, bunday kutilmagan keskin va keskir pichingga tayinli javobi yo'q edi chog'i, indamadi. Shu gap adog'ida suhbat ham uzildi. Hammasi ravshan edi. Umida qo'zg'aldi. Og'irtin oldi. Eshikka yo'nalayotib, so'nggi bor qaradi...

«Mayli, qo'yaver, Umida, ayb ikkovimizdan ham o'tganda...»

«Men chorasiz edim... Qiz bola bo'la turib, men o'zim yoningizga kelib, hammasini aytib, uzr so'rasammi dedim, lekin qiz bola degan otim bor edi. Men ham andisha qildim-da... Qolaversa, siz bir og'iz ham «Seni sevaman» deya olmagansiz-ku! »

«Men... aytmasdan sevardim, Umida!»

«Sovchi ham...»

«Taqdir ekan-da, Umida, nimayam qilardik... Xo'sh, o'zing omonmi? Hayoting tinchmi?»

«Nolisam bo'lmas, shukr. Tinch yashayapman»

«Baxtingni... topdingmi?»

«Hm... O'zingiz-chi?»

«Men ham...»

«Xo'jayinim juda yaxshi odam. Ba›zan o'zimning erkaligim, tantiqligim, juda xudbinligim bilan u kishiga ko'p jabr yetkazib, xafa qilib qo'ymayapmanmi deb o'ylab qolaman. Lekin u odam meni judayam izzat qiladi. Hamma erkaligimni ko'taradi. Sizniki-chi? Ayolingiz?...»

«Bilasan-ku, men ham juda injiqman. Ammo ayolim fe›limdan nolimaydi. Hurmat qiladi...»

«Bolalaringiz-chi? Kimga o'xshaydi?»

«O'zimga... Kattasi onasiga... Sening bolalaring-chi?»

«Menikining uchovi ham dadasiga tortgan... Quyib quygan o'zi...»

«Shukr... Baxtiyor ekansan...»

«Ha, men ham sizning baxtingizdan xursandman...»

Ming yillik ayriliqdan keyingi bu birinchi, ehtimolki, so'nggi uchrashuvda nigohlar shu zaylda beomon so'zlashdi. Bir-biriga qorishib omonlashdi. Biroq bu nigohlar bir-birini aldayotganini ikkisi ham aniq sezib turar edi. Ikki yurakning ham bir chetida o'z Umidasi, o'z Orziquli qolaverdi...

*2015-yil, mart*

## HAVOCHIN

*Agar Oni unutsa banda oni*
*Tirik ermas agarchi bo'lsa joni.*
*So'fi OLLOYOR*

Yer sayyorasida nimalar bo'lmaydi. Kemirchak degan shaharchamizda yuz bergan bu voqeada aybdor o'zim edim. Ha, o'limdan qo'rqqan umr ko'rmas.

Qancha umrim qoldi? Bilmayman. Bilib ham nima qilaman? Menga farqi bormi? Yana bir ogohlantirish signali kelsa,



tamom, o'laman. Hisobimda qancha pul borligini hozir aniq aytolmayman. Har qalay, bir-ikki kunlik havoga yetsa kerak. Eh, O'rtoq Chirskin!.. O'zimga-ku, rahmim kelmaydi. Seni ko'zim qiymaydi-da, do'stim...

* * *

Boshimning og'rig'i bosilmayapti. Ishlamaydigan narsa og'risa, juda alam qiladi. Agar imkoni topilsa edi, kallamni kimga bo'lsa-da, berib yuborar edim. Albatta, tekinga. Boshimga manavi lash-lushni osishganidan beri shu o'y tinchlik bermaydi. Muttasil og'riq ham shundan bo'lsa kerak. Ko'zimni ocholmayman. Ochsam, xuddi burnimning tagida bir qora qurt osilib turganday, u har nafasda burnimdan kirib, butun a'zoi badanimni it misol shilimshiq manfur jag'lari bilan g'ajiyotganday, shundoq ham qisilayotgan nafasimni battar bo'g'ar, tanamda oqayotgan rangsiz qonga bir tomchi-bir tomchi zahar tuflayotganday, zaharlangan qon jismimni oniy lahzada mahv etayotganday; bundan boshim telbalarcha aylanar, og'riq zo'rayishidan ikki ko'zim va qulog'imdan boshqa joylarim jonsiz tayoq singari qotganday tuyulardi. Ko'zim ko'rgan narsalarni chala anglayman, miyam xuddi ulkan bir qopni ko'targancha, sayyora yag'rini ustida noma'lum manzil tomon ketayotgan qoqsuyak, ojiz bir cholga o'xshab qoldi. O'ldirsang – o'ldir, tezlatma deydi. Unga buyruq berib bo'larkanmi?

Eh, bir daqiqa manavi sabilga havo berishmasa edi, qiynalmasdim. Axir, to'kilgandan tomchilagan yomon ekan. Manavi matohni burnimga osishgan paytlarda kun sanardim. Keyin soat. Hozir esa soniya hisoblayman.

Aft-angorimga qaray desam, ko'nglim bormaydi. Termulgan kuyi nafratim oshadi. Oyna aybdormikin? Oyna, avvalo, g'irt telba-teskari nusxangni ko'rsatadi. O'ng ko'zing chapi bilan, chap ko'zing esa o'ngi bilan jiqqa musht bo'ladi. Suratingni tomosha qilasan, siyratingdan yig'laysan.

O'ziga o'zi o'lim tilagan odamni yomon ko'rardim. Bugun bu holat qolgan hayotimning mazmuniga aylangan. Umrni hisoblay boshlaganimdan beri uning naqadar uzun ekaniga shubham qolmadi.

Uzun yo'lni tez bosib o'tish mumkinmi? Bu haqda hech o'ylab ko'rmagan ekanman. Bir mashhur odamning al-jabr kabi hayotda ham eng to'g'ri yo'l eng qisqa yo'ldir degan gapini o'qigan edim. Agar men o'sha ablahlarga qo'rs, lekin, haq gaplarni aytmaganimda edi, burnimga havochin[1] osishmas, men ham telba-teskari yo'llardan gandiraklab, egri ko'chalardan nasiba izlab daydib yurar, har uchragan nokasni, garchi noloyiq esa-da, hurmat qilar, shirinroq so'z aytishga majburlanar, hamma qatori qotgan muomala qilar, oqibat o'z so'zim, yuzimni o'zim yer bilan yakson etar, qiyofam dengizini isqirt chirindilarga to'lgan ko'lmakday bulg'agan bo'lardim. Yuzsizlik – o'zsizlik, o'zsizlik esa qoraqo'ng'iznikidan ham battar hayot demakdir: odamlar ko'rganda ko'ngli aynib, burnini jiyiradi, eslaganda basharasi bujmayib, qusgisi keladi.

Xo'sh, burningga havochin taqishsa yaxshimi? Bilaman, to'kilgan qayta to'lmaydi. Biroq, yer qa'riga batamom singib ham ketmas ekan. Mana, singolmayapman. O'lish ham osonmas ekan. O'lim shohu gadoga barobar, deydiganlar juda adashadi. O'lim – haq. Biroq sen o'zing istaganingda o'lolmaslik juda katta nohaqlikdir. Bugun ana shu nohaqlik meni qiynayotir. O'ylash azobidan qutulishning bir yo'li nafas olmaslikdir...

Bu xayol eng so'nggi qarordek tuyuladi menga. Nafas olmaslik – o'lim ekanini yaxshi bilaman. Bunga urinib ko'rarkanman, bir necha soniyada ko'zlarim namlanadi. Qo'llarim bo'ynimga yuguradi. Tomirlarim bo'rta boshlaydi. Vujudimda lazzatli bir titroq sezaman. Miyamda bir tozarish ro'y beradi, ko'krak qafasimdanmi, tovonimdanmi chiqqan bir yengil epkin bo'g'zimga kelib qotadi. So'ng unga oyoq-qo'l tirnoqlarimdan yashin tezligida shunday bir nimarsa kelib qo'shiladiki,

[1]Darhaqiqat, zukko o'quvchi havochin qanday apparat o'zi, deb qiziqishi mumkin. Rostini aytganda, muallif ham, hikoya qahramoni quyiroqda aytgani kabi, illo bu apparat haqida birinchi bor eshitib, o'qib turishi.



nahot, ruhim parchalari bo'g'zimda, jig'ildonimda birlashdi? U nega muallaq qoldi, otilib chiqib ketmayapti?

Qornim, tomog'imda vulqondek bir shamol bo'ron soladi.

Bu dovul nafratim alangasini birpasda o'chirdi-qo'ydi. Men yengildim...

Esimni olgan bir hikmat mag'zi ko'nglimni pora-pora qila boshlaydi. Zardusht xalqqami yo xalq Zardushtgamidi-ey, shunday degan ekan: «Bukridan uning bukrisini olib qo'yishganda, uning ruhini olib qo'ygan bo'lishadi. Ko'rga uning ko'z nurini qaytarib berishganda, u yer yuzida shunchalar ko'p bemazagarchiliklarni ko'radiki, oqibatda u ko'zini tuzatgan tabibni qarg'aydi. Cho'loqni chopishga yaraydigan qilib davolagan unga eng og'ir ziyon yetkazadi, zero, u illatlar quvib o'tib ketolmaydigan darajada tez yugurishga muyassar bo'larmikin?»

Men bu chog'da bukirimni qaytarishlarini, ko'r ko'zimni berishlarini, cho'loq oyog'imni boshqatdan hadya qilishlarini so'ramas edim.

Men abadiy yo'l tusayapman! Abadiy manzil! Tushunyapsizmi?

Ayni damda men yo'lga chiqish jilvasidan mast holga tushganimda manziliga yetishdan ko'ra, qaytib kelish haqida ko'p o'ylaydigan odamlar toifasidan emasligimni sezib qoldim. To'g'ri-da, hoziring – joning, hoziring – hayoting, hoziring – taqdiring. Boshqasi cho'pchakdek ko'rinadi menga. Bilaman, siz abadiy makonga eltadigan yagona kuch tomonidan siylangan barcha narsaning ikki tomoni bor dersiz: tug'ilish va o'lish, yaxshilik va yomonlik, katta va kichik, kecha va kunduz, pokizalik va jirkanchlik...

Agar burningizga havochin osishsa, boshqacha fikrlay boshlaysiz: hayot, ya'ni, tug'ilish – o'limga tayyorgarlik vaqti; insoniyat o'ylab topgan axloqiy mezonlar – jazosiz qolmaydigan yaxshilik esa yomonlikning aynan o'zginasi; tug'ilgan mitti go'dak ulg'ayadi, katta bo'lib, voyaga yetgach, tag'in kichrayib boradi, demak, kattalik asli kichiklikdir; kecha kunduz degan mavhumotning chegarasini bilish uchun kipriklar

ochdim. Deraza ortidagi temir panjara oralab kelayotgan ko'kragimga tekkan yengil epkindan, taassufki, nafas ololmadim. Jig'ibiyronim chiqib, tashqariga, hayot gurkirayotgan ko'chaga nafrat bilan qarab turar edim. Kutilmaganda yerdan chiqdimi, oydan tushdimi – bilmayman, bir narsa qattiq kelib qobog'imga urildi. Ko'zimdan o't chaqnab ketdi. Jon achchig'ida qaltirab qolgan qo'lim bilan ushlab uni otib yubordim. Qarasam, polga yuztuban tushgan narsa, mana shu, chigirtka ekan. Oyoqlarim bilan ezg'ilamoq bo'lib qadam tashlashimni bilaman, sabil, joningdan urgilay, o'lmagan ekan, zabt uchib yana ko'zimni nishonga oldi. Bu safar yetib kelmasdanoq, urib tushirdim. Keyin u ancha vaqt, borib xaskashga o'xshab ketadigan oyoqchasidan ushlab ko'rgunimcha, qimir etmay yotdi. Bir oyog'idan tutib, ko'tarar ekanman, ikkinchisi bilan rosa qo'limni tirnab qarshilik ko'rsatdi. Bunday jasoratini ko'rgach, har qanday jallod ham uning jinoyatini kechirib yuborsa kerak, deb o'yladim xuddi o'zimni misol qilganday. Yuragingga balli, jonivor. Mobodo, yuraging ikkita emasmi?

Qobog'imdagi og'riq jonimdan o'tavergach, chigirtkani baribir o'ldirgim keldi. Keyin, o'ylanib qoldim. Kuni bilan soniya sanayman, nafas yetishmaydi. Gaplashadigan odam ham yo'q, ermak ham. Boz ustiga, bundoq o'ylasam, «chigirtka hamlasi» damlarida havo, nafas olish haqida o'ylamayotgan ekanman. Ana endi kallam ishlab ketdi. Ermak topilganidan behad suyundim... «Endi menga hamroh ham o'zing, hamxona ham o'zing, birodar ham o'zing»

Hamrohimga nom topish uchun uch kunimni sarfladim. (Do'sting uchun uch kun umr nima degan gap? Hozir borlig'imni shunga bag'ishlashim ham mumkin-ku, axir?) Ehhe, qancha buyuk insonlarning, hatto, qarindosh-urug'larimning, eng yaqin do'stlarimning nomini unga qo'ymoqchi bo'ldim. Ismlarni bir-bir eslar ekanman, e-e, nimasini aytay, arzimadi... Hamroh bo'lgandan keyin ulug'vor, zabardast ism topishim kerak. U shunga munosib. Chirskin degan nomda to'xtadim. Lug'aviy ma'nosi lug'atda yo'q bo'lishi mumkin.



Mayli-da. Chigirtkalar ichra noyob chigirtkaning ismi ham original bo'lishi kerak emasmi, axir? Unga ehtirom belgisi sifatida «O'rtoq» nisbasini o'ylab topganimdan so'nggina o'nglim joyiga tushdi. Do'stimning ismini ovoz chiqarib, takrorlayman: O'rtoq Chirskin! O'rtoq Chirskin! ...Chirskin! Chirskin! O'rtoq...! O'rtoq...!

Shu-shu men O'rtoq Chirskinga, O'rtoq Chirskin esa menga o'rganib qoldi. O'ta zerikkanimda nomini aytishim bilan yugurt qutisi ichida turib tipirchilab qoladi. Avaylabgina ochaman-da, har kuni uch martadan uni ozodlikka «chiqaraman». U xonani gir aylanib chiqadi. So'ng deraza rafiga qo'nib, men tashlagan non ushoqlarini, ovqat qoldiqlarini yeyishga tushadi. Tomosha qilib, huzurlanaman. Unga nisbatan shuncha vaqt mana shu xonada turib sezmagan bir his – Mehrim tovlanib ketadi...

* * *

«Ifloslar, yaramaslar! Bolamni o'ldirishdi... Yolg'izgina bolaginamni o'ldirishdi... yer yutgurlar...»

* * *

«O'rtoq Chirskin! Men o'ladiganga o'xshayman».

«Dunyo – orzu-havas uyi, birodar, o'lmaysan. Uzoq yashaysan».

«Nimalar deyapsan? Men shuncha yil yashasam-da, MUVOZANATlarni tushunolmadim, aqlim yetmadi» .

«Burning yopilgach, ko'zing ochilmadimi?».

«Nimalar deyapsan, O'rtoq Chirskin? Onamning qarg'ishlarini qachongacha derazadan eshitib o'tiraman?».

«So'nggi nafasinggacha, birodar...».

* * *

Har kuni ertalab uyim ostonasidan chiqar ekanman, pagonimga qo'ndirilgan kichik yulduzchalarni silab qo'yaman. Atrofdagilarga mag'rurona-mag'rurona qarayman. «Hmm,

sen kim-u men – kim? Hammangning taqdiring qisman bo'lsa ham mening qo'limda-ya. Yashayverlaring jimgina»

Bugun ishxonamdagi hamkasblarning yuzida qandaydir bezovtalik va tashvish alomatlarini sezdim. So'rasam, ahvol chatoq. Boshlig'imiz men bilan gaplashmoqchi, taqdirimni hal qilmoqchi ekanini aytishdi. To'g'ri uning kabinetiga yo'l oldim.

Kotiba «kiravering» degan ishora qildi.

Eshikni taqillatib, so'ng bosh suqdim.

Boshliq telefonda so'zlashar, kayfiyati ham anchayin yaxshi edi. Menga ko'zi tushdi-yu avzoyi o'zgardi. Keyin o'zim qo'ng'iroq qilaman, deya go'shakni qo'yib qo'ydi. Har doim «Falonchinev» deb ham sal hurmat ma'nosida, ham birozgina hazillashib gapiradigan boshliq bu safar bir og'izgina qilib «kir» dedi.

Stulga cho'kdim.

– Xo'sh, nega topshiriqni bajarmading? – dedi u sensirashga oshkora o'tib.

Jahlim chiqsa ham, uning avzoyidan qo'rqdim. Aslida qildek aybcham bor edi. Shu bois, boshqa takrorlanmaydi, deb qo'ya qoldim.

– Nima, senga bu yer katta xolangning uyimi, cho'loqning bolasi?

– Nima? «Cho'loqning bolasi»?

Tepa sochim tikka bo'lib ketdi. Men yolg'iz onamni hech kimga, hech qachon xafa qildirmagan edim. Onam men – go'dakni boqaman deb, Kemirchak atalmish bu rutubatli sharharchada ming uqubat ko'rib, itday ishlab, bir oyog'ining yarmidan ham ajragan, mendan o'zga najoti yo'q bir mushtipar edi. Nafsilamrini aytganda, endilar mening eng ojiz tarafim ham shu onaginam edi.

Bu xudo bexabar esa... Qaltiray boshladim. G'azabdan ko'zimning o'ti chiqay dedi. Titrab ketdim. O'rnimdan sapchib turib, to'g'ri boshliqning oldiga borib, yoqasidan oldim. Endi men o'zimda emas edim. Qaynab ketgan qonim so'zga aylandi:



– Enag'ar, o'g'ri! Ish – ish, uy – uy. Ishimga onamni qo'shma, itdan tarqagan!!!

Nima qilayotganim, nega bunday deyotganimni aniq bilmasdim. Qattiq jahl ustida boshliqqa musht tushirdim. Keyin yana, yana... U jon holatda stoli tagidagi uchinchi tugmachani bosishga ulguribdi. «Trevoga» signali ovozi eshitila boshlaganda, boshlig'imiz kreslosiga boshini suyaganicha, jimib qoldi. Mening ko'zim qonga to'lgandi...

Boshliq xonaga yugurib kirganlarga qarab, hirillagancha:

– Havochin! – dedi. – Havochin keltirib, taqinglar bu ko'rnamakka!

Ajabo, havochin deganlari nima ekan? O'lay agar, bunday so'zni birinchi eshitishim... Qo'rqib ketdim. O'sha kuniyoq meni mana shu zax xonaga tashlashdi. Topshiriqqa binoan, bir shart bilan burnimga ana shu matohni taqishdi. Qo'rqqanimcha bor ekan, havochin deganlari dahshatning o'zi ekan. «Bu apparat ilk bor sinovdan o'tayapti. U har kuni bir zaylda pul sarflaydi. So'nggi chaqa qolishidan besh daqiqa avval signal keladi. Pul to'lanmasa, havo uziladi va sen o'lasan. Pul to'lanishi uchun esa boshliqning oyog'ini yalab, undan kechirim so'raysan! Yo'qsa, burningdan havochin olinmaydi», - deyishdi.

Nozirdan eshitishimcha, zor qaqshab yig'lagan onamga o'g'lingiz dom-daraksiz yo'qolib qoldi. Qidirayapmiz, topilib qolar, deyishibdi...

Onam ishonmasligini bilardim.

Havochin bilan o'tayotgan ilk kunlarimda o'lsam-o'laman, lekin u ablahga bo'yin egmayman, kechirim so'rashni xayoliga ham keltirmasin, dedim.

Biroq vaqt yaqinlashmoqda edi... Onamga juda achindim, rahmim keldi. Yolg'iz o'zi qanday yashayapdi ekan, deb rosa siqildim. Onam haqida o'ylashdan ham ko'ra muhimroq, kuchliroq muammo – nafas olish masalasiga kelganda, ba'zan undan xafa bo'lardim. Meni shunday fe`l, xarakter bilan tuqqani, yagona kuch esa shunday taqdir ato etganidan har ikkisidan ham ranjir, goh nafratlana boshlardim. Nafratim shu darajaga yetdiki, ular haqida boshqa o'ylamaslikka qaror qildim...

* * *

«Ifloslar, yaramaslar! Bolamni o'ldirishdi... Yolg'izgina bolaginamni o'ldirishdi... yer yutgurlar...»

Bu tanish ovozdan cho'chib o'zimga keldim. Qulog'im g'uvillardi. Ko'zimga hech nima ko'rinmadi. Men ustida yotgan stolni ushlab ko'rdim. Hech nima sezmadim. Nafasim siqilardi. Isitmam chiqayotganga o'xshaydi. O'pkam «shig'-shig'» etayotganini eshitdim. Ochiq, lekin hechvaqoni ko'rmayotgan ko'zlarimni tag'in yumdim.

Quloqlarimga juda-juda olislardan tanish saslar kelardi. Bilmayman, bu – dahshatli ovozmi yo ovozning shunchaki dahshatimi... Do'stimni chaqiraman, tanish sas esa uning ovozini eshittirmaydi:

«O'rtoq Chirskin!»

«Ifloslar, yaramaslar!..»

«O'rtoq..!»

«Bolamni o'ldirishdi...»

«... Chirskin!»

«Yolg'izgina bolaginamni o'ldirishdi...»

«Qayoqdasan...»

* * *

Chiroqning yorug'i tagiga tushmasa-da, atrofini yoritadi.

Tun yarimdan oshganda, nafasim yana qisilib, boshim gir aylanar, ko'nglim aynib, qusgim kelar, shu topda, havodan boshqa butun olamni unutgan edim.

Alahsiy boshladim, beixtiyor O'rtoq Chirskin tungi oromni olayotgan gugurt qutisini paypaslab topdim. Qo'limga olib shivirladim:

– Mobodo o'lib qolsam, sen nima qilasan? Holing nima kechadi?

Qulog'im ostida o'zimnikiga o'xshash tovush keladi: «O'lma, otim: yoz kelur, yo'ng'ichka bitur... O'zingni o'ylamasang ham, onang... yolg'iz onang...»



Havochinimni yuzimga mahkam bosaman...

«Faqat... faqat onam uchungina... tongdayoq...», – deyman...

*2007-yil*

## YONG'OQ QURTI

– Mahmudov, yonimga!

Shovqin solib, hovliqqancha kirib kelgan professorning guldurak ovozidan auditoriya bir qalqib tushdi. Professor, garchi bizga darsi bo'lmasa ham, tuyqus yo'qlab qolgani, kursdoshlardan ham ko'ra kamina qulingizni cho'chitib yubordi.

Auditoriyada havo siyrak, dim. Misoli attorxona deysiz. Do'ndiqcha kursdosh qizlarning o'tkir atirlari ifori boshni gangitadi.

Hamma yarq etib kaminaga qaraydi.

Professor bir dasta qog'ozni havoda o'ynatdi-da, stolga tars etkazib tashladi:

– Sen, mahmadona Mahmudov, – dedi manglayini tirishtirib, – miyamga tushgan qurt bo'lding!

Oyog'imga qaltiroq kirdi. Doim vazmin yurguvchi professor Daminov dag'dag'a bilan chorlashidan o'ta qaltis bir gap borga o'xshaydi.

Dor tagiga – professor stoli yoniga qanday borib qolganimni bilmayman.

– Bu nima? – deydi u qog'ozlar orasidan bir siqimini otmoqdan beri qilib oldimga tashlar ekan.

– Nima ekan? – deyman qog'ozni o'nglab o'qishga tushib.

Professor tutaqib ketadi.

– Ipak qurti haqida referat yoz deyilganmidi?

– Ha?..

– Hoy bola, kimni kalaka qilding?! Qayerda o'qiyotganingni esingdan chiqarganmisan? Ipak qurtiyam mayli, Alisher Navoiy g'azaliga bir quloch ta'rifu tavsif yozishga balo bormi?

Qishloq xo'jaligi institutida g'azal tahlili emas, zararkunanda hasharotu meva qurtlari haqida izlanish olib borish kerak! She'rlarni filologiyaga o'qishga kirsang yozasan, xo'pmi?

Eh! Endi tushundim! Professor referatimni o'qibdi... Demak, ilgari yozganlarimni o'qimasdan baho qo'ygan ekanda... Esa, o'tgan safar, poliz ekinlari bargiga tushadigan zang kasalligi mavzusidagi ishda Umar Xayyom ruboiylarini tahlil qilganimni sezgan bo'lishi kerak edi-ku...

Ana endi qo'lga tushdim. Aybni tan olmoqdan o'zga iloj yo'q. Lekin bir tomondan, tan olish ham xavfli. Biroq, otdan tushsak ham egardan tushgimiz yo'q.

– Balki, adashib, boshqa narsani topshirvorgandirman, domla, – deyman mushukdek muloyimlik bilan. Professorga ko'z qirim bilan qarab qo'yaman: u nima deyishni bilmas, aftidan, kulib yuborishdan o'zini zo'rg'a tiyar, hammaning oldida mendek yaxshi o'qiydigan talabani izza qilishni ham ma'qul ko'rmayotganday edi. Ammo...

– Endi foydasi yo'q, – deydi professor pisanda qilib. – Bemalol «uchib» yuraverasiz bu yog'iga! Lekin bilib qo'ying, baho qo'ymayman! Tamom!

O, qiztaloq dunyo! O, qalbiga bir misqol mutoyiba ham sig'maydigan ochun! O, shumlik dushmaniyu ilmiylashib ketayotgan bashariyat!

To'xta, professor tag'in bir tarixiy referatimga shama qildimi. Qog'oz hoshiyasiga qizil ruchkada o'zim yozgan «Uchmoqqa qanot yo'q va lek uchgayman» degan bitigimni eslab qolgan ekan. O'shanda ham mavzu qolib, o'n misrali she'r bitib qo'ygandim-a...

* * *

Professor Daminov ochgan urushdan so'ng yurakka g'ulu tushib, ko'ngilga qil ham sig'may qoldi. Ijara uyga qanoti yarador qushday shalvirab keldim.

Bisotimda bor yegulik – qishloqdan olib kelganim to'rxaltani ochdim, tagi ko'rinib qolibdi: to'rt donagina yong'oq qaqqayib turibdi.



Enam aytganki, bolam, och yurma, hech bo'lmasa, kuniga bittagina yong'oq yegin, maynang butun bo'ladi. Kuni bilan tuz totmagandim, qornim sibizg'a chalar, oyoq-qo'lim madorsizlanib, ko'zlarim tinib ketayotgandi. Yong'oqdan bir-ikkisini chaqib, apil-tapil bo'lka non bilan paqqos tushirdim.

Vodarig'! Ishtaha karnay bo'lib, yegulik ta'midan huzur tuya boshlagan chog'im so'nggi chaqqan yong'og'im puch chiqdiyu alamdan hushtak chalib yuboribman. Yong'oq kosalari ichi kuyib ketgan ekan, ko'mirtob qorakuya orasida bir mayda qurt tarashaday qotib yotardi. Shu onda professorning: «Qurt odam rizqini qiyadi. Ularni o'rganib, qarshi chora topmasak, hosil olib bo'lmaydi. Elimiz rizqini qurt-qumursqaga qo'shqo'llab topshirib qo'yishga sizu biz – bo'lg'usi olimlarning haqqi yo'q!» – degan gapi yodimga tushdi. Enag'ar qurtshunos gapniyam oladi-da. Ehtimol, uning ham so'nggi nasibasidan qurt chiqqandir. «Miyamga tushgan qurt bo'lding» dedi-ku. Kulgiga olib chakki qildim-da.

Qorni ochning miyasi yashinday ishlarkan. Qo'lni dastro'molga chala artgancha, ensiklopediya titkilashga tushdim. Men uchun hozir ipak qurtidan ko'ra, yong'oq qurti muhimroq edi. Zararkunanda bu qurtning ilmiy tildagi nomiga hech tilim kelishmadi: «Sarrothypus rausculana»! Jonivorning sovuq turqi aks etgan rasmi ham bor ekan-u, mening yong'og'imdan chiqqanidan biroz farq qilardi: suratkash rasmga olayotganini sezganmi, g'o'ddayib turibdi. Lo'ppigina! Yong'og'imdan chiqqani tarashaday qotishdan avval ham kasalmand bo'lgan, shekilli – xiyla oriq edi.

Yong'oq qurti daraxt po'stlog'i ostida va yoriqlarida pilla o'rab qishlar, pillasi erta ko'klamda g'umbakka aylanib, kapalaklari aprelda ucha boshlarkan. Kulrang qanotli kapalagi xom yong'oqqa bir-ikkitadan tuxum qo'yarkan. Unib chiqqan qurt yong'oqqa u pishmasidan qiron keltirarkan...

Talaba qavmiga xos tanballik bilan o'ylasam, qo'llanmalarda bir enlik shu ma'lumotdan o'zga gap yo'q. Endi zolim professor bergan topshiriqni qanday bajaraman?

O'ylay-o'ylay, o'zim mustaqil shug'ullanishga ahd qildim. Ijaradosh do'stimdan so'rab, bizdan uch chaqirimcha naridagi chog'roq bog'da yong'oq borligini bilib, shartta o'sha tomon yo'l soldim. Chor-atrofi simto'r bilan o'ralgan, o't-xashaklar tizza bo'yi bo'lib yotgan bog', aftidan, qarovsizligidan xarobazorga aylangan.

Simto'rdan oshib o'tayotsam, bog' o'rtarog'ida o'tovga o'xshagan ko'hna kulba yonida allakim qora berdi. Unga tomon yuraverdim. O'n odimcha bosgandim, bir yong'oq daraxti tagidan chiqdim. Xas-xashaklar orasida yarmi qorayib ketgan yong'oq g'o'ralari yotibdi. Yerga uzalgim kelmay, daraxt shoxidan ikkitasini uzib oldim.

Boyagi odam jim kuzatib turgan ekan, salom berishim bilan bosh irg'ab alik oldi-da, qo'limdagi yong'oq g'o'ralariga ishora qilib:

– Uzib nima qilarding? – dedi. – Baribir baraka topmaysan. Turgan-bitgani yod hozir. Qo'ling qoraygani qoladi.

Qo'liga ichak kalava o'rab, o'tirg'ich oyoqlarini mahkam bog'lashga taraddudlanib turgan, saksondan oshgan bu odam chamasi o'n yillardan beri shu xarobazor chaylada yashar ekan. Bog'bonlikdan o'zga ermagi yo'qqa o'xshaydi. Aftidan, uni birov bog'bon qilib tayinlamagan ham. Axir bog' xo'jasi hosilni so'ramasa, nima qilyapsan deb tergamasa, ishidan kamchilik topib, bo'shatmasa, bormisan-yo'qmisan, demasa. Hoynahoy, bog'bon maosh ham olmasa kerak. Xullas, chorbog' qanday tashlandiq bo'lsa, bog'bon ham unutilishga mahkum etilganday...

Chol aft-angorimga sinchiklab razm solar ekan, nimadir yumush bilan kelganimni sezib, kulbaga manzirat qildi. Tashqarida, chayla oldidagi yog'och o'tirg'ichga o'tira qolaylik, dedim. U yoq-bu yoqdan gapirishgan bo'ldik. Cholga g'o'ralarni yorib, ichidan qurt topishim kerakligini aytdim.

– Topib nima qilasan? – deya so'radi chol.

– Referat yozaman.

– Studentmisan?

– Ha...



Chol sukutga cho'mdi. Xuddi ayg'oqchini qo'lga tushirgan soqchiday ko'zlari ayyorona qisildi.

– To'g'risini ayt, seni kim yubordi bu yerga?

– Hech kim, – dedim. – Hamxonam shu bog'da yong'oq bor deb, aytgandi.

– Shunaqami... – dedi chol biroz xomush tortib. – Bu yerga studentlar kelib turishadi. Hozir, kutib tur! – deya chaylaga kirib ketdi. U birpasda qadoq bosgan qo'lida to'rt-besh dona yong'oq o'ynatib chiqdi. Ularni menga berar ekan, lippasidan nosqovoq chiqarib, bir otim otdi. Chol bir qarashda ko'nak bo'lib shishib ketgan odamga o'xshardi. Ust-boshi kirchir, yuzi bir asrlik daraxt po'stlog'iday g'adir-budur, sochi siyrak, bir tola qorasi qolmagan; yurganda qaddini tik tutolmaydigan, oyoqlarini omonatgina bosadigan bu kishi o'yga cho'mib, jimib qoldi. Nigohida qandaydir bezovtalik belgilari zuhur bo'ldi. Nimadir deyishni istab, har gapini ming chig'iriqdan o'tkazib so'zlaydigan odam kabi, fikrlarini xayolida tahrir qilardi, go'yo.. Nosvoy kayfini olib bo'lgach, yana tilga kirdi.

– Darding qurt bo'lsa, bemalol o'rganaver, bolam, – dedi u og'zini chayib kelgach. – Lekin senga o'zim bilgan bir omonat gapni aytaman. Menam vaqtida agronom bo'lganman. Pensiyaga chiqib, zerikdim... Anchadan beri shu boqqa qarayman. Bekorchilikdan bir xil mevalarni g'o'raligidan pishgunicha kuzatgan paytlarim bo'lgan. Bog'bonning ishi ko'p, lekin yolg'iz odamning bo'sh vaqtiyam oz emas-da. Ko'klamdan kech kuzakkacha daraxtlar tagida yoti-i-ib xayol qilasan. Menam senday bir paytlar duppa-durust yong'oqlarning qop-qora ko'mirga aylanib qolishiga hayron bo'lganman. Yoppiray, deganman. Bir yili qasd qildim: qani, yong'oq qanday qilib bunday bo'lib qolarkan, dedim. Huv, bog' adog'ida katta qari yong'oqning uch-to'rt g'o'rasini har kuni kuzatdim. Yong'oqning kushandasi qurt. Uyam odamga o'xshaydi. Qorin g'ami bor-da. O'zi sig'adigan teshik ochib, g'o'ra yong'oqning ichiga bir amallab kirib olsa, baxti. Bo'liq bo'lib kelayotgan mag'zini yeb boshlagani sayin semiradi. Vaqt o'tib, mag'iz

ado bo'ladi. Yong'oq ichida hech vaqo qolmagandan keyin qurt tashqariga chiqishga intiladi. Bu paytda esa, huv kirgan mahalidagi nina teshigidek joy unga tor kelib qoladi. Semirib ketadi-da! Shu uchun qancha urinmasin, tashqariga chiqolmaydi.

Undan ham yomoni, yong'oqning ichi qurib, po'sti qattiqlashgan, endi teshikdan chiqish tugul, uni avvalgidan sal kengaytirishning ham iloji qolmaydi. Ichkarida yeyishga mag'iz qolmagach, qurt oldida ikki yo'l turadi: yo ochlikdan o'lish yoki oxirigacha kurashish. Buning birgina chorasi bor: ozish kerak!

Ana shunda yong'oq ichida qurt ochlikdan sillasi qurib, oza boshlaydi. Eski, o'sha zaif holiga qaytib, tashqariga chiqishga urinadi. Bu kamdan-kamiga nasib etadi. Chiqqani ham bundoq qarasa, uning uchun mavsum tugab, ortda qurigan yong'oqdan boshqa hech nima qolmagan bo'ladi. Qarshisida vaqtning beshafqat hukmi o'qiladi. U baribir o'limga mahkum...

Ey, bolam... Odamzodning ham yo'rig'i shu. Ba'zilarning hayoti xuddi yong'oq qurtinikiga o'xshaydi. Mol-dunyo ilinjida boshini ming teshikka tiqadi. Qorin dardida umrini ko'kka sovuradi. Hayotini behuda narsalar bilan andarmon bo'lib o'tkazib yuboradi. Endi odamga o'xshab, qanoat qilib umr kechiraman deganida hayotining so'nggi damlarini yashayotgan, ostonasida o'lim lashkari asov otday kutib turgan bo'ladi...

Chol ko'p gapirdi. Dam daraxtlarga, dam osmonga, taram-taram bulutlarga ko'z tashlab, xuddi donishmandlarday so'zlar ekan, mijjasidan g'ilt etib tomchi yosh chiqqanini ilg'adim.

Shunda bir manzara ko'z oldimdan o'tdi. Mushtday boshim bilan men o'zim ham tushkunlik daryosiga uloqtirilganim, maslakdoshim yo'qligini o'yladim. Atrofimdagilar, hoynahoy, buni fe'li-xo'yimdan ko'rar, ammo qachonlardir oyog'iga tosh bog'lab suvga uloqtirilgan oshiq-moshiqlar ham umrining so'nggi damlarida hayotni telbalarcha sevgani,



bir nafas bo'lsa-da, o'pkasini to'ldirib nafas olishga intilganini ko'z oldimga keltirar ekanman, qachondir menda ham shunday bir holat – o'lim sharbatidan tatib ko'rish fursati kelishi, o'shanda men ham yutoqib sharbatdan ichgan ko'yi yana bir nafas, bor-yo'g'i bir nafasgina ko'zim ochiq turishini, havodan to'yib sipqorib, shu yorug' olam jamolini so'nggi bor ko'rib qolishga harakat qilishimga ishonaman, holbuki, bu ishonch avvallari ham bo'lgan, biroq tanamdan jonning chiqishini his qilgandagi titrog'ini tuymaganim rost, yetmish ikki tomirimda oqayotgan issiq qonim sovishi, vujudim tuproqqa aylanib, qumursqalarga yem bo'lishini, ehtimol, aynan yong'oq qurti emasu, oddiy qurtlarga talov bo'lishini his etmaganman. Cholning gaplarini eshitar ekanman, qurt ham, professorning topshirig'i ham butkul xayolimdan ko'tarildi, cholning o'zi, ustida o'lim sharpasi kezib yurgan odamning narigi dunyoga tayyor yo tayyor emasligi meni qiziqtirib qo'ygani boismi, sanoqli kunlardan so'ng yer yuzida yana bir odam, mana shu, qarshimdagi chol bo'lmasligini o'ylaganimdan ta'sirlandim, safsataga to'lib-toshgan dunyosini yomon ko'rib ketdim.

Bobolarimizni o'yladim. Tunlari osmonga boqib, yulduzlarni sanab yotganimda dadam doim, yulduz sanama, derdi. «Nega?». «Quti uchadi». Hayron qolardim: sanog'i yo'q yulduzning nega quti ucharkan?

Baribir xayolda boboyu momolarimizni sanab yotardim. «Otamning bobosi – bir, momosi – ikki, otasi – uch, onasi – to'rt, ona tomondan bobom – besh, momom – olti...»

Bugun o'sha jajji barmoqlarim katta-katta bo'lgan, ammo... sanagan boboyu momolar yo'q!.. Yillar o'tib, bari tuproqqa qo'yildi. Birma-bir, oldinma-ketin.

G'o'raligidanoq bu yorug' dunyoi dunning bor dard-sitamini totgan bobolaru momolarni nahotki qurt-qumursqalar yeb-bitirgan? U qurtlarning nomi nima? Odamqurtmi?

To'xtang-to'xtang! Chalg'ib ketdim. Professor to'g'ri aytgan ekan, miyaga qurt tushsa, yomon bo'larkan. Ko'nglim bo'shab ketdi. Yo aljirab qoldimmi...

Axir men referat yozishim kerak-ku. Erta-indin yana pro-

fessorning darsi. Aniq ilmiy asosli gaplar o'rniga yana biror allomai zamon yo shoirning shig'irini sharhlab qo'ya qolamanmi? Professor o'qib qolsa, bu safar naq o'qishdan haydab yuboradi-ya. Yo manavi cholning falsafasi haqida yozsammikan? O'nta ilmiy dalildan zo'rku-ya... Iye, kapasi kuyiblar ketsin! O'qishdan haydalish – oxirzamon emas-ku!

* * *

Ijaraxonaga keldim-u, muk tushib referat yozishga tushdim. Ilk satrim shunday chiqdi: «Buyuk nemis agronom olimi N.Bagbanning yozishicha, yong'oq qurti o'ta zararkunanda jonivor bo'lib, u o'z nafsining qurboniga aylanadi...»

Bilaman, professor buni atay, qasdma-qasdiga o'qiydi. Ammo u, garchi professor bo'lsa-da, nemis olimi N.Bagbanning kimligini aniqlay olmaydi. Qidirgani bilan topolmaydi. Birovdan so'rashga uyaladi: «Be-e, domla, bu sohada eng bilimdon o'zingiz bo'la turib, shu olimni tanimaysizmi? He-he-he...» Adabiyotu manbalarda esa, unday odam nomi yo'q. Chunki Bagban deganlarini men, kamina qulingiz hozirgina o'ylab topdim-da. «N»ni qo'yavering, «g'»ning belidagi chiziqchani atay tortmay, «g»ga aylantirib, «bog'bon»dan ajnabiy olim yasaganimni, hayotda professor degan ulug' nomdan ko'ra, bir parcha nonini halollab yeydigan bog'bonning farqi kattaligini, umrini qog'ozu ilmiy dalillar to'plash bilan yelga sovurishdan naf yo'qligini, naf bo'lganda ham, bordi-yu mening o'rnimga tushib qolsa, to'rvasidagi so'nggi yemagi bo'lgan yong'og'idan benasib qolib, qurtga yedirib qo'yishning naqadar alamli ekanini u qaydan bilsin.

Referatimni achchiq ichakday cho'zib o'tirmadim. Bog'bondan eshitganlarimga to'n kiydirib chiqdim, xolos. Professor Daminov deganlari nima qilsa-qilsin, nima desa-desin. Muhimi, men kimning boshiga tushgan qurtu, professorning o'zi qanday bosh ekanini daf'atan anglab yetgandayman, buni referatim bilan isbotlashim qoldi, xolos...



* * *

Juma kuni birinchi dars professorniki edi. Yuragim tapuka bo'lib turibdi. Shu payt kursboshi yigit hovliqib auditoriyaga kirib keldi.

– O'rtoqlar, bugun dars bo'lmasmish. Professorning uyida ziya bo'lib qolibdi... Otasi qazo qilibdi.

Bu shumxabardan seskanib ketgan esak-da, ichimizda biz yengil tortganday bo'ldik, harna, dars bo'lmaydi-ku...

Xullas, o'sha kuni o'qituvchilaru ko'pchilik talaba bir lib ta'ziyaga bordik. Professorni hashamatli hovlisi ostosida to'n kiyib, beliga belbog' bog'lab, qo'lida dastro'mol gancha, ko'zlari qizargan ahvolda ko'rdik. G'o'ssaxonada am ko'p. Marhum otaxonni so'nggi manzilga kuzatgani ilm li, professorning qarindosh-urug'i, do'stlari to'planib, izdim yasagan...

Biz turgan keksa tut tagida uch-to'rt o'qituvchimiz pichirchir qilayotganini eshitib qoldim.

– Daminov domla yolg'iz otasini uyiga sig'dirmadi-ya... hmatli metall zavodning tashlandiq bog'ida yashab yurgan an...

Tanamni yashin urganday, karaxt bo'lib qoldim.

*2018-yil, noyabr*

## OVCHINING SO'NGGI OVI

*Yo yetarman maqsadimning cho'qqisiga oxiri...*
*Ibn SINO*

Men hayotda hali ham shunday odamlar borligini birovn eshitganimda, ishonmas edim. O'zim ko'rib, gaplarini log'im bilan eshitgach, bandasi fe'li, a'moli, qat'iyati-yu bir'zligiga umr bo'yi sobit tura olishiga ishonch hosil qildim.

Undagi yovvoyi bir viqor, mag'rurlik nishonalari oddiy am qavmidan emasligini ko'rsatib turar edi...

* * *

– Hozirgina odam jo'natdim, Muqim tog'a kelar ekan, dedi Bahodir do'stimiz jilmayib. – Buva zo'r mergan. Ellik y ovchilik qilgan. Bu tog'u toshlar orasida u bilmaydigan kama u suv ichmagan buloq, uning qadami yetmagan g'or qolma gan.

Biz besh og'ayni shoir do'stimiz Bahodir Bahromning uy ga, Qashqadaryoning Kitob tog'lari bag'ridagi Palangdara mehmonga borib bir suyungan bo'lsak, anchadan beri suhba tini olamiz deb yurganimiz Muqim ovchi bilan gurunglashis niyatimiz ushalayotganidan ikki quvondik.

Palangdara – gir atrofi tog'u tosh, soyu buloqqa mako xushmanzara qishloqlardan biri ekan. Do'ngliklaru tog' etak larida, qiyaliklarda betartib joylashgan hovlilarda ajib bir ta tibot ham borki, uni aytmaslikning iloji yo'q. Uylar tog' sha roitiga xos, tabiat injiqliklariga mos bunyod bo'lgan. Dary quturadimi, sel keladimi, soy toshadimi, qor ko'chadimi – b uylarga zaxa yetkazolmaydi.

Sezganim shu: palangdaraliklar anchayin orkash xal qoni qaynoq el ekan. Mardligi bo'yidan baland keladi. Ax Jinnidaryodan suv ichgan el mard bo'lmay, kim mard bo'lsin!

Hayal o'tmay, darvoza taqilladi. Bahodir tashqarilad Uning ortidan qoruvli bir kishi kirib keldi.

– Muqim tog'a shu kishi bo'ladilar, – dedi Bahodir biz tanishtirib.

Tog'a bilan salom-alik qildik. Qattiq siqib ko'rishar ekan qo'limiz xuddi sher panjasi bilan pashsha tutganday, u kish ning kaftiga singib ketdi. Muqim tog'a deganlari yetmish chiqqan odamga sira o'xshamaydi. Har bilagi, lof bo'lsayan yetti yashar terak tanasiday, ikki yelkasida ikki odam o'tir viga joy chiqadi, bir poy kavushiga ikki oyog'ingizni tiqsang ham pichasi bo'sh qoladi, qisqasi, devning chala tug'ilgan b lasiga kelbat beradigan zot.

Oliftalik qursin, o'sha yerdayam ijodu adabiyotda bahslashib ketdikmi, Muqim tog'a avval-boshida biroz beg



sirab o'tirdi. Biz ham ko'p-da gap qo'sha olmadik. Kimdir 'liklar haqida so'z qotdi-yu, tog'aga til bitdi. U kishi bilan yuq tanishib, bir piyola choy ichdigu tushga yaqin dam sh tadorigini ko'ra boshladik.

Gilam-to'shak, qozon-tovoqni o'rab, tuz-na'makni tugib, shinaga yukladik. Yo'lda bir qassobdan lahm go'sht oldik.

Palangdaradan chiqib, tog' bag'irlariyu do'ngliklar osha yqalib-chayqalib ketyapmiz.

Oldimizdan ayqirib oqayotgan bir daryo chiqdi.

– Jinnidaryomiz shu, – dedi Muqim ovchi.

Bizga tekkan kasallik – nom ma'nosini bilish istagi qo'zib adi.

– Otidan ma'lum-ku, – deya kuldi ovchi. – Siz bu yerlarga horda bir keling, bilib olasiz. G'irt tentakday quturadi bu.

Daryo ustiga qurilgan omonatgina ko'prikdan o'tdik. Biz gan yozning chillasida suv kamaygan, keng-mo'l soy hosil b oqayotgan daryo sokinlikka cho'mgan edi.

Shu zaylda mashinamiz chiranib-chiranib, toqqa o'rma-oqda edi. Oldimizdan bir irmoq chiqdi. Ulovimiz bazo'r di. So'ng o'tloqzor keldi. O't-xashak tizza bo'yiga keladi, shina zo'r berib oldinga intiladi, biroq motorning guvil-ani qoladi: tog' etagidagi tik qiyalik boshlandi. Shunda dovchi tushib turishimizni buyurdi. Hammamiz tushib, shina ortidan itardik. Qiyalikdan o'tib olguncha, o'pkam-g'zimizga tiqilib, hansirab qoldik. Biroz yurgach, endi ol-izdan suv ham ko'ndalangiga chuqurlik keldi.

– Bo'ldi, – dedi Muqim tog'a. – U yog'iga ulov borolmaydi. imiz ketamiz. Qani, mehmonlar, ko'ch-ko'ronimizni olib, ov yuramiz endi.

– Boradigan joyimiz qayoqda, o'zi? – deb yubordik beix-or.

Tog'a:

– Huv anavi qoyalar tagida zo'r bir joy bor. Soy bo'yi.

U ko'rsatga tomonga qarab, hovliqib qoldik. Eh-ye! Yaqin ringani bilan bu toshlaru suv oralab, kamiga shuncha ash-dashqolni ko'tarib borishni ayting. Kimdir ko'rpachalarni

qo'ltiqlagan bo'lsa, boshqamiz qozonu idishlar o'ralgan da
turxonni ko'tardik, yana birimiz ichimliklarni avaylab yelka
ortdik. Muqim tog'a yo'l boshladi. Beshovlon turtinib-sur
nib, ortidan ergashdik.

Top-toza, yengil havodan simirib-simirib ichgisi kela
odamning.

«Heh-ye-ye! Biz keldik!» deya ayqirsangiz yana. Bir
buning uchun avval manzilga yetmoq kerak.

– Jadallashinglar-ey, azamatlar! – deydi Muqim tog'a
yatimizni payqaganday. – Ozgina qoldi. U yog'iga maza qil
sizlar!

Beshovlon chamasi bir kilometrcha yurib, sillamiz qu
di. Qo'limizdagi narsalar tushib ketay-tushib ketay deyap
Muqim tog'a holimizga boqib, kuldi:

– Tog'ning narigi tarafiga borsak bo'lar ekan, o'zi, a, nim
deysizlar?

– Shu yerlar ham bo'laveradi bizga, – deymiz kulishib.

Ko'z ochib yumguncha Muqim tog'a ildamlab ketdi. Bizn
kidan og'irroq yuk bilan oldinda, tin olmay, xuddi o'n sakk
yashar kuchga to'lgan yigitday chaqqon harakat qilish
ko'rib, bekorga yarim asr tog'ma-tog' ov qilib yurmagani
tushundik va unga juda havasimiz keldi.

Birozdan so'ng tog'aga yetib oldik. U tog' bag'ri bo'yla
o'tgan kichikroq bir ariq oldida kutib turgan ekan.

– Ariqning o'ng tomonidan yuramiz, – dedi u.

Qarasak, u aytgan tomon yurishga juda noqulay, tor, t
jarlikni yalab o'tgan ilonizi yolg'izoyoq yo'l. Qaytanga ariqni
chap tarafi kenggina, bemalol yursa bo'lar ekan. Chol tushm
gur suvdan o'tishga erindi-yov deb o'ylab, bir sakrab ariqni
nariga tomoniga o'tib oldim. Ortimdan yana bir sherigimi
hatladi. Qolganlar esa tog'aga ergashdi.

Yuz metrcha yurgach, tog'ani tushundik: biz yurgan yo
bora-bora nihoyatda torayib, yo'qolar ekan... Qiya, qirrali xa
sangtoshlar boshlanib, oyoq bosishga joy qolmadi va toyib
toyib ikkimiz ham ariqqa yiqildik. Ustimiz shalobbo bo'ldi. Ja
zirama esa-da, muzdek suv badanni teshib o'tay deydi. Birpa



suvda tursangiz, tishingiz takillab, badaningiz ko'karib,
uq et bo'lib ketadi.

Ko'nglimdan o'tganini o'zim bilaman. Eh, Muqim tog'a!
hlik qildik-da biz. Axir siz bu yerlarning har qarich yerini,
bir toshini, giyohiyu butasini bilasiz-ku. Nega ortingizdan
ashmadik biz? O'zimizga yangi yo'l solmoqchimidik?
-bobolar yo'lidan yurmaganlar shuytib muqarrar adashar
n-da...

Tog'aning oldida xijolatdan yuzimiz lov-lov yonsa-da, ha-
huzul qilib, gapni boshqa o'zanga burdik.

Nihoyat Muqim tog'a to'xtadi va pastlikka – quyuq darax-
r tomon tusha boshladi. Ortidan xuddi kurk tovuqqa er-
hgan jo'jaday pildirab enib ketdik.

Voh! Mana bu manzarani qarang!

Yelkamizdagi yuk og'irligiyu, ikki ko'zimiz oyog'imiz osti-
bo'lgani uchun e'tibor bermay kelayotgan ekanmiz! Naqd
nat bog'iga tushib qolibmiz-ku! Alanglab, ko'zimiz porlab
di. To'rt tarafimiz tog', quyuq daraxtzor! O'rtadan zilol suvi
vjlanib-tovlanib, toshlardan toshlarga urilib, eni uch qu-
h kelarli soy oqib o'tyapti. Tangaday joygayam quyosh nuri
hmaydi. Tanga rohat beradigan salqinlik. Suvning jildirashi
zur bag'ishlaydi. Bog'i Eram shu yerdan ulgu oganmikan?..

– Shu yerga qo'namiz!– dedi Muqim tog'a. – Sizlar joy
yorlanglar, men o'choqqa qarayman. Bir qovurdoq qilib
ray...

Ko'rpacha-gilam to'shab, dasturxon yozdik. Noz-
matlarni batartib terdik. Soy chetiga toshlarni yig'ib,
g'on» qurdik-da, ichimlik va tarvuz-qovunni bo'ktirib
ydik. Tog'a hash-pash deguncha toshlardan shinamgina
hoq yasab qozon osdi. Jizzasi tayyor bo'lguncha gurun-
shib o'tirdik.

– O'smirligimdan yelkamga miltiq ilganman, – deydi
qim tog'a go'shtni lo'nqa-lo'nqa to'g'rar ekan. – Yetmish-
kirib ham tanim dard bilmadi. Shu tog'larni kezib sochim
rdi, tishim to'kildi, shunday bo'lsa ham qaddim bukilma-
Shu tog'lardan quvvat olib yashadim. Birovga gapimni

oldirmadim, birovga gap bermadim. Hurmat qilganin
boshimda ko'tardim, yomonligi bor odamga yondashmad

Bir yili qishlog'imiz kattalaridan ikkitasining uyiga od
yubordim. «Muqim tog'anikiga borar ekansizlar, kaklikxo'
bo'lar ekan» deb ayttirdim. O'sha kuni qo'njim to'lib kak
ovlab kelgan edim-da.

Ular keldi. Kaklikni qizartirib, giyohlar qo'shib pishi
oldiga qo'ydim. Maza qilib yeb boshlashgan edi, sekin turdi
da, devorda ilig'lik qo'shog'izni oldim. O'qladim. Haligi ikk
vining luqmasi og'zida qoldi. Yutishniyam, chiqarishniy
bilmay qoldi.

Qo'shog'izni shartta ikkoviga qaratdim.

– Og'zingdagini tezroq yut! – dedim jiddiy turib. – Ikk
vingniyam otaman! So'ng o'ligingni gilamga o'rab, Jinnidar
ga oqizaman...

Ikkoviyam fe'limni yaxshi bilardi. Qilaman degan ishim
qilishimni ko'rgan, gajirligimdan xabardor edi.

Nima bo'layotganini umuman tushunmay, angrayib, i
koviyam qo'lini ko'tardi. Rangi surpday oqarib ketdi.

– Nimaga? Nima gunoh qildik? – deydi. Qarasam, ikko
yam ko'zi milt-milt etib, yig'lamoqdan beri bo'lib turibdi.

– Ikkoving ham o'g'risan! – dedim. – Odamlarning haq
yeb, elning elagini teshib yuribsan!

Ikkoviyam boshini oyog'imga urib, yalindi:

– Muqim aka, unday qilmang! Yeganimizni qaytarib joyi
qo'yamiz, faqat otmang... – dedi. So'ng hamma qilg'iliqlari
o'z og'izlaridan eshitib oldim-da, bir oy vaqt berdim. Ishon
sizlarmi, anavi kassir bilan bug'altir sho'rlik yarim oyga q
may, hamma narsani joy-joyiga qo'yibdi.

O'zi, ular bilan shunchaki, jo'rttaga hazillashib, nishon
olib ko'rgan edim. Bahonada kirdikorlarini bilib oldim. Elni
haqi qaytdi.

Muqim tog'a mamnun holda jilmayib qo'ydi. Qozon
kartoshkani solar ekan, yana ko'p xotiralarini esladi.

Asli u ovchi emas, duppa-durust yozuvchi, roviy ek
Boisi voqealarni shunday tasvirlab gapiryaptiki, manzara



z oldimizda xuddi kino tasmasiday tiniq va ravshan bo'lib
lanyapti....

* * *

... Dekabr tonglaridan biri. Tog'ni qalin qor qoplagan.

Ovchi Muqim tog'a kallai saharlab chakmoni o'ngirini
yirib, lippasiga tang'idi. Kurakni olib, loysuvoq og'ilxona
niga chiqdi. Qariyb bir metrcha keladigan qorni ehtiyot-
rlik bilan kuradi. Uyi tomidagi qorni esa yarim qarichcha
ldirdi. Sababi, tomda ozroq qor qoldirilmasa, 30-35 daraja
vuqda shifer chars-chars yorilib ketadi.

Tong yorishmasdan darvozaxona, katak, og'ilxona va
ndirxonaga yo'l ochdi.

So'ng to'rxaltasiga o'q-dori, yemak-ichmagini, tuz, ichak
qo'shimcha qop, qo'lbola qopqon, gugurt va qo'lchirog'ini
lib, taxt qildi. Qornini to'qladi-yu, yelkasiga qo'shog'iz
ltig'ini osib, yo'lga tushdi.

Quyosh nurlari olamni munavvar, charog'on qilsa-da, ojiz-
na tafti etni zirqiratadigan ayoz zahrini kesolmaydi. Qalin
r yoqqan ana shunday kunlari ko'pincha ovi baroridan ke-
di. Bunday chog'larda ochlikdan qiynalgan jonivorlar izg'ib
radi. Qor qancha qalin bo'lsa, ularni tutish shuncha oson-
hadi. Shu bois Muqim tog'aning bugungi ovdan umidi kat-
Tulki, quyon o'z yo'liga. U ovchilarning azaliy orzusi, qan-
a ovlasa, shuncha obro'si oshadigan o'tyurak va mag'rur
nivor – bo'ri ilinjida yo'lga chiqyapti.

To'g'ri, ilgari ham bir-ikki marta bo'ri ovlagan. Lekin ular
lan maqtangulik emas edi: bo'rilardan biri qo'tir bosgan,
salmand, nimjongina, ikkinchisi esa hali g'o'r bo'rivachcha
di.

Ov isi o'tkir bo'ladi, ovchi ko'ngil viqor tusaydi.

Bo'rining zo'rini kim otgan, deyilsa Muqim ovchi nomi til-
olinishi kerak! Odamlar, nainki oddiy odamlar, hatto, un-
a-muncha ovchi ham u bilan o'ylab salom-alik qilsin.

da yovvoyi cho'chqa bolalaydi. Muqim tog'a, garchi yelkasida miltig'i bo'lsa-da, o'zi necha yillik ovchi esa-da, darrov u yerdan uzoqlashdi. To'ng'iz podasiga duch kelsa, miltiq ham ish bermaydi...

Hozir o'sha manzara ko'z oldiga kelib, yegani tomog'idan o'tmadi. Yovvoyi cho'chqa bolalari yetilib, odamni tilka-pora qiladigan kuchga to'lgan bo'lishi mumkin...

Muqim ovchi tezda narsasini yig'ishtirib, alanglay-alanglay, uzoqlashdi.

Kuni bilan yurib, oyog'i terlabdimi, paytavasi oyog'iga jiqqa yopishib, g'ashiga tega boshladi. Boya olovda quritib olsa bo'larkan. Yo'qsa, nam paytava oyoqni xarob qilishi tayin.

Muqim ovchi chek-chegarasi yo'q tog' bag'rida horg'in yuqorilab borar ekan, xo'rsinib qo'ydi. Qishloq olislarda qoldi. Peshin bo'lyapti hamki, biror nima ovlay olmadi. Avval-boshda quyonning izidan tushishga or qildi. Tulki uchramadi. Kunning yorug'ida bo'riga duch kelishi-ku amrimahol. Kakliklar ham uzoqlardan ovoz berdi. Oldidan «pir-r-r» etgan tovush chiqmasa-ya...

Muqim ovchi yana mo'l yurdi. Yuksakka o'rlagani sayin qor qalinlashib boraverdi. Ovchi yaxshi biladi. Palangdarada yo Varganzada bir qarich qor tushsa, bu yerlarda, ayniqsa, huv anavi Qoraxontog' manglaylarida bir metrdan oshadi. Qorning zo'ri yovvoyi hayvonlarning sho'ri degani. To'g'ri, ularning ko'pi kunduzi inidan chiqmaydi. Tunlari oziq izlab izg'iydi. Suv ichish uchun pastga enadi. yemish topolmasa, qishloqlarga yaqinlashadi. Hatto, odamlarning hovlilariga dovur tushib keladi. Muqim ovchi bularni xo'p yaxshi biladi.

Tunov kuni bir gurungda g'alati gap eshitdi. Varganzalik bir tadbirkor odam olma sotib olgani olisroq qo'shni qishloqqa boribdi. Savdoni pishitib, ertasiga kelaman deb qaytibdi. U boradigan kun sotarmon kechga yaqin yig'ib o'tirgan olmalaridan xabar olay deb hovlisiga chiqsa, bir ayiq mevalarni yeb yotgan emish. Haligi kishi jon holatga qo'liga ilashgan belkurakni olib, ayiq tomon po'pisa qilib yuguribdi. Shunda och ayiq ham unga qarab yugurib, dast ko'taribdi-yu, zarb bilan uloqtirib yuboribdi. O'n qadamcha nariga borib tushgan odamning bir qo'li chirt uzilib tushibdi. Shunaqa. Och ayiq ursa, besh yoshli ho'kizning ham beli sinib ketadi.



«Ishqilib, och ayiqqa yo'liqtirmasin» dedi Muqim tog'a ichida. Lekin bu o'yi o'ziga nash›a qilib ketdi. Unga nima bo'lyapti? O'ylasa, boyadan beri hayvonlarning unisidan ham, bunisidan ham qo'rqa boshlayapti. Yovvoyi cho'chqadan bir qo'rqdi, endi ayiqdan yuragi taka-puka bo'lyapti. Yo yoshi o'tgani sayin ovchi degani ham qo'rqoq bo'lib qoladimi? Qarchig'ay qarisa, chumchuqqa mayna bo'larmish. Endi u qaridimi? Yo «Miltiq ko'targan bilan ovchi bo'lmas, dag'dag'a solgan bilan dovchi bo'lmas», degan gap Muqim tog'aga ham aytilganmikan?

Aslo!

U ovchi degan nomga isnod keltirmaydi. Qo'lida quroli bor ekan, har qanday yirtqich oldida mag'rur turadi. Hatto, qurolsiz ham yirtqich ko'ziga tik qaray oladi. To'qol taka suzishsa, yengilarmish. Lekin Muqim ovchi yaroqsiz ham yengilmaydi. Bir ayiqni yelkadan oshirishga yetar quvvati bor hali.

Yo noming qolsin, yo shoning!

Muqim ovchining bir umrlik hayot qoidasi bu!

U qaddini g'oz tutdi. Xuddi frontga kirayotgan mag'rur askarday oldinga qarab intila boshladi. Hozir oldidan och ayiq yo quturgan bo'ri tugul, dev chiqsayam, bir o'q bilan yer tishlatadigan shahd paydo bo'ldi. Biroq qarshisida dev tugul, quyon ham qora bermayapti... Bu yog'i qosh qorayib kelyapti. Hademay buyuq tursa, ishning pachavasi chiqadi. Osmonda hali ham kulrang bulutlar taram-taram bo'lib suzib yuribdi. Ufqda quyoshning xira nuri bulutlar ostidan osmonga qizg'ish tus berib turibdi.

Ovchi charchadi. Harchand oldinga intilmasin, qadam olishi susayib, madori ketayotganini his qildi. Yana ozroq yursa-ku, anavi qoya labidagi yakka yong'oq daraxtga yetib olar, bir muddat nafas rostlar edi.

O'n qadamcha yurgan edi, nimadir uvillagani qulog'iga chalindi. Muqim ovchi taqa-taq to'xtadi. Ovoz kelmish tomon-

ga quloq tutdi. Avval sekin, so'ng cho'zib uvillagan ovoz keldi. Ortidan xuddi kuchukvachchalar vakkillagani kabi tovush eshitildi.

Muqim ovchi yaqin orada bo'ri borligini tusmolladi va darrov miltiqni qo'liga olib, tovush kelayotgan tarafga – qoyani aylanib o'tishga qaror qildi. Ishqilib, to'da hid olib, juftakni rostlab qolmasin, deya po'sib, nihoyatda ehtiyotkorlik bilan bora boshladi. Qoya ortiga o'tishi bilan ellik metrcha narida – butalar yonida uch bo'ri turganini ko'rdi. Ular bir-biriga qarama-qarshi cho'nqayib o'tirar edi. Ikki kulrang bo'rining jussasi katta, juni hurpaygan, biri yoldor, viqor bilan turardi. Uchinchisining tusi oqishga tovun, narigilariga qaraganda, biroz kichikroq, ozg'inroq edi.

Muqim ovchi yoldor bo'riga ilk bor duch kelgan edi. Bo'rilar nega bunday o'tirganini darrov fahmladi. Demak, ustma-ust yoqqan qalin qor jonivorlarning sillasini quritgan. To'da yemish topolmay, ona tabiatning so'nggi, ayovsiz va shafqatsiz qonuni ijrosini bajarmoq uchun yig'ilib turibdi. Muqim tog'a bunday holga bir safar duch kelganida, hay, mayli, tasodifdir, deya o'ylardi. U uch-to'rt bor guvoh bo'lgan. Boshqa nomdor ovchilardan ham bu haqda keti uzilmas hikoyalar eshitgan.

Bo'rilar hech oziq topolmay, ochlikdan joni xatarda qolsa, tuni bilan davra qurib o'tiradi. Ko'z yummaydi, kiprik qoqmaydi. Qay biri ko'zini yumsa, och to'da o'shani yeydi. Ko'zini yumib qo'ygani esa, o'z qavmining g'ajishlariga mardonavor, mag'rur turib beradi.

Biologik tanlov, tabiatning ayovsiz qonuni bu.

Birorta bo'ri bu qonunni buzishga jur'at qilolmaydi.

Muqim tog'a ziyraklik bilan to'daga tikildi. Ana, bu to'da ham kiprik qoqmay tikilib turibdi bir-biriga. Faqat anavi oqish bo'ri hadeb uvillayapti. Qorni ichiga tortib ketyapti. Besaranjom, jonsarak ko'rinadi.

Ovchi qaysi birini nishonga olishni o'yladi. Oqish bo'rini otish kulgili, albatta. Shuncha yo'l bosib, ne-ne orzu-niyat bilan kelib, o'lamsa bir bo'rini otadimi?



Shu chog'da otasidan eshitgan, bir umr qulog'i ostida jaranglab turguvchi, qo'liga miltiq olganidan beri amal qilguvchi gapni pichirlab aytdi: «Ovni otsang bilib ot, dol nishonga ilib ot».

Axir boshqa payt bo'lsa, bo'ri to'dasiga qarata o'q uzsa-yu, o'q xato ketsa, yirtqichlar tum-taraqay qochishi mumkin. Odamga shirin bo'lgan jon hayvongayam totli-da.

Biroq hozir vaziyat unday emas. Ovchining qarshisida turgan mana bu to'da shundoq ham jonidan to'yib ketgan. Ularni ayni damda miltiq tugul, zambarakdan o'qqa tutsangiz ham, dov berib, ustingizga vajohat solib bostirib kelishi, tashlanib, miltiq-piltig'ingiz bilan tilka-pora qilib tashlashi hech gapmas. Shuning uchun birinchi urinishdayoq nishonni bexato olmoq kerak.

Muqim ovchi «dol nishon» qilib o'ng'ay turgan yoldor kulrang bo'rini tanladi.

U esini taniganidan beri birinchi bor bunday katta, kuchga to'lgan, mag'rur va yoldor bo'rini ko'rishi edi. Muqim tog'a bir umr ovlashni orzu qilgan yirtqich balki shudir. Ehtimol, u bundayini qaytib uchrata olmas...

Shirin xayolga berildi. Hozir uni qulatsa, ovchi jo'ralari o'ljani ko'rsa, enlab ko'rib, unga havas qilsa, elda gapirib yursa-yu, ovchi nomiga nom qo'shilsa. Palangdara xonadonlarida oqshomlari bilan onalar bolalariga Muqim ovchining botirligiyu merganligi haqida ertaklar aytib bersa. Palangdaralik o'g'lonlarga Muqim ismini qo'yish urfga kirsa. Ovchilar shogirdlariga mergan degani pana-pastqamda turib olib, ojiz va nimjon, yarador hayvonlarni emas, eng kuchli yirtqich, jonivorning zo'ri bilan maydonda yakkama-yakka olishib, undan ustun kelishi lozimligini aytishsa, aytishsa-yu, Muqim ovchini misol keltirishsa... Ayniqsa, bug'altir va kassirga o'xshagan munofiqlar biror ishga qo'l urishdan avval Muqim ovchini eslasa va oqibatini o'ylab, qing'ir ishidan qaytsa...

Muqim ovchi shularni o'ylar ekan, hammasi hozir nishonni aniq va to'g'ri olishiga, ovchilarga xos ichki xotirjamlik bi-

Muqim ovchi ta'qib qilayotgan, ana, sal narida cho'nqayib o'tirib, ko'z uzmay kuzatayotgan qari yirtqichga ortiq e'tibor bermay, ichak arqonning bir uchini bo'rining orqa oyog'ini juftlab, mahkam ilgakladi va ikkinchi uchini daraxtning baquvvat shoxiga otdi. Arqon shox osha qaytib tushdi. Ovchi uni qattiq tortdi. Biroq bo'ri oyog'i biroz ko'tarildi-yu, tanasi qilt etmay yerda turaverdi. Muqim tog'a arqonni qo'liga qayta-qayta o'radi va bor kuchi bilan yana tortdi. Bu safar bo'rining ikki ort oyog'i yerdan uzildi, biroq yarmi sudralib turaverdi.

O'ziyam juda katta ekan-da jonivor! Bo'yi o'lchansa, Muqim tog'aday qoruvli odamdan ham uzun chiqar ekan. Shu bois kuchi kamlik qilayotganini sezgan ovchi so'nggi usulni qo'lladi: arqon uchini halqa qilib, beliga o'radi va zarb bilan torta boshladi. Arqon beliga qattiq botsa-da, oxiri niyatiga yetdi va o'ljani changakladi. Bo'ri daraxtga to'liq osilganida sezdi: nihoyatda katta ekan. Otday keladi desak, lof bo'lar, xo'tikday desak, haqimiz ketadi... Xullas, Muqim tog'aning ovi ziyodasi bilan baroridan keldi. Ikki bo'ri terisini shilib olguncha osmon jimirlab, Zuhro yulduzi ham xira tortib, tong ota boshladi.

Qari bo'ri uni Palangdara ostonasigacha ta'qib qilib keldi.

... Tushga yaqin Palangdarada bayram bo'lib ketdi!

«Muqim ovchi otday-otday ikkita bo'rini yer tishlatibdi!», «Terisidan bir o'tov tiksa bo'lar ekan» degan gaplar birpasda butun qishloqqa tarqaldi.

* * *

– Keyin nima bo'ldi, Muqim bova? – deb so'raymiz hikoyani maroq bilan tinglab bo'lgach.

Muqim ovchi laganga suzilgan qovurdoq ustiga maydalab piyoz archib, barra ko'katlarni separ ekan, mamnun jilmaydi va:

– Ovchilikni tashladim! – dedi.

– Nega?



– O'sha ovdan keyin ancha vaqt yotib qoldim. Kulrang o'rining qahrga to'lib qarab turgan ko'zi tushlarimga kirib hiqaverdi. Ayniqsa, anavi nimjon qari bo'rining har oqshom yolimda ta'qib qilishlari yuragimni zada qilib yubordi. Oxi- bu ishni qo'ydim. O'ylab-o'ylab, bir oq qo'chqor so'yib, qon hiqardim. Shu bilan qo'limga miltiq olmadim. Qo'shog'izning uzurini sandig'im ko'rib yotibdi.

Muqim ovchi birpas tin oldi va tantanavor ohangda:

– Bayram dasturxoni tayyor! Yoldor bo'rining qovurog'iga marhamat! – dedi.

Kuldik.

Taomlanib bo'lgach, yonginamizda mavj urib, tosh-an-toshga hayqirib oqayotgan muzday soyda miriqib o'mildik. So'ng eng yaqindagi qoyaga chiqish istagi tug'il- Kimdir «u yoqlarda bo'ri-mo'ri yo'qmi ishqilib?» deb 'rab qoldi. Mezbon Bahodir do'stimiz: «Bo'ri degani Muqim g'aning hidini olsa, bu yerlarga dorimaydi», – dedi.

Muqim tog'a o'choq boshida qoldi. Biz qo'limizga zarang yoq olib, toqqa o'rmalab chiqib, emaklab tushdik...

... Lash-lushimizni yig'ishtirib qaytar mahalimiz Muqim chi bir gap aytdi:

– Qolgan-qutgan non bo'laklarini manavi tosh ustiga, yaklarni anavi daraxt tagiga, tuzni esa o'choq oldida qoldi- nglar. Ularda hayvonlarning ham haqi bor.

Biz Bahodirga qaradik. Do'stimiz sekin shivirladi:

– Tog'da odat shunday: jonzotlar uchun albatta tuz tash- b ketiladi. Ovchilar-ku, o'ljasidan boshqa hamma yeguli- ni qoldiradi. Muqim tog'a esa, joniniyam tashlab ketadigan dam...

Men hayotda hali ham shunday odamlar borligini birov- n eshitganimda ishonmas edim. O'zim ko'rib, gaplarini qu- g'im bilan eshitgach, bandasi o'z fe'li, a'moli, qat'iyatiyu bir- o'zligiga umr bo'yi sobit tura olishiga ishonch hosil qildim. htimol, o'sha yoldor kulrang bo'rining viqori, mag'rurligiyu at'iyatini sizu biz ham Muqim tog'a singari yuzma-yuz turib o'rsak, uningdek odam bo'larmidik.

Bilmadim.

Bilganim shuki, yetmishga kirsa-da, hali bardam-baquvvat, so'zidan va izidan qaytmaydigan, lafzi halol Muqim tog'a yovvoyi va hech qachon inson qo'liga o'rganmas, bog'liq turishga rozi bo'lmas, qafasni xush ko'rmas, miltiqdan cho'chimas hayvon, mag'rur jonivor, insonning qadim qondoshi BO'RI bilan yakkama-yakka qolgan. Yuzma-yuz kelgan. Tikkama-tikka borgan.

Tasavvur qilyapsizmi: yakkama-yakka, tikkama-tikka...



# KULISH – IXTIYORIY

## TOVUQ QUVGAN POLVON

Qishlog'imizga to'yga borgandim. To'y bo'layotgan xonanning yetti bolorli mehmonxonasida gurung avjga chiqib rgan edi. Tashqaridan bakovulning:

– Haydayvering! – degan chorlovi eshitildi. – Qani, mehonlar, ichkarilang! Hoy, Shomurod, mehmonlarni tort!

Uzun bo'yli, qorni chiqqan, mo'ylovi bir tekis qirtishlan-n, xo'ppa semiz odam qo'lini ko'ksiga qo'yib, to'y egalariga lluq qilganicha, ortidagi ikki kishini ergashtirib, mehmon-na ostonasida oyoq ildi.

«Ihi-ihi» deya soxta yo'taldi. Bu: «Biz keldik, to'rdan joy rmi?» – degani edi.

Mehmonxonadagilar istar-istamas oyoqqa turdi.

– Yoppa assalomu alaykum! – dedi yangi kelgan mo'ylovli hmon.

– Keling, keling! – dedi oqsoqollardan biri. – Qani, Samad lvon, to'rlang, qani...

– O'tiraveringlar, bizga shu... poygakroq ham bo'laveradi! dedi u.

– Yo'q-da, polvon! – dedi oqsoqol. – To'rlayvering! Keling, ni, qabatimdan. Gurungni qizdirasiz-da siz.

Polvon ortiqcha mulozamat kutib o'tirmadi.

– Bu odamning hunari ko'p, bolam, – dedi boyagi oqsoqol nga qarab. – Hozir o'zi gurung beradi. To'g'rimi, polvon? – di oqsoqol va keyin meni tanishtirdi: – Bu yigit bizga mehon bo'p kepti, bir guldiraysiz endi.

Polvon degichi yaxshilab joylashib olgach, kuldi:

– Biz nimayam deymiz, oqsoqol. Bizning davrimiz o'tdi di...

Oqsoqol rozi bo'lmadi:

– Mana, ikkovimiz teng-to'shmiz, lekin bizni birga ko'rga odam sizni mening ukam deb o'ylaydi. Hali juda bardamsi Mana, biz qaridik, desak, adolatdan bo'lar...

– Ie, shundaymi... – dedi polvon maqtovlardan erib ketib So'ng guppiligi tutdi: – Lekin rost aytasiz, oqsoqol. Mana masalan men, manovi men, saksonga chiqdim, lekin haliyam tovuqni bir quvishda ushlayman...

Hamma qiyqirib yubordi.

– Polvon buva, anavi, mehmondorchilik qilganingizni aytib bering? – deb qoldi mening yonimda o'tirgan bir kishi

Polvon jilmaydi. Dasturxonga tikilib, kuldi.

– Ha, umi? – dedi yuz-ko'zi quvnab. U bu latifasini davrada faqat mengina eshitmaganimni sezib, kaminaga qarab gapira boshladi: – Ko'p bo'p ketdi ungayam, uka. Huv omon-omon zamonlar edi. Mudirlikdan tushgandan keyin qo'limiz ancha kalta bo'lib qoldi. Ishdan unum, cho'ntakdan baraka ketdi Avvalgiday kunda-kunora bazmi jamshid qilolmay qoldik Mehmon ham dasturxoni bornikiga kelarkan-da. Qiynalib qolganimizda ostonamizni odam hatlamay qo'ydi.

Bir kuni deng, kechga tomon uyda yotuvdim. Qachon lardir birga ishlagan hamkasblarim kelib qoldi. Kampirga tezda bir tovoq go'sht qovurib kel desam, uyda et tugaganiga uch kun bo'ldi, deydi. Nochor ahvolda qoldim. Nevarani Ho qassobnikiga jo'natay desam, undan shundog'am qarz edim betim bo'lmadi.

Oxiri shartta mehmonlar oldiga kirib, baland ovozda cho ayttirdim. Nevara choy keltirdi. So'ng izidan kampirni chaqir tirdim. Kampir deraza ortidan turib, «hov», dedi.

– Kampir! – deb baqirdim jiddiy qilib. – Bu deyman, ovq desam, necha kundan beri faqat go'sht qovurib berasan. Eg ursa, dami qaytadigan tishlarim bor edi-ya. Xudoning berg kuni go'sht chaynayverish ham toza jonga tegib ketdi-ku! Ana mehmonlar kepti, bor, bir tuxum qovurib kel! Bular ham maz qilishsin! Piyoz qo'shib, tunov kungiday shirin qilib pishir!..

Qo'l kaltalik qursin. Bir yomon vaziyatdan shuytib chiqib ketganmiz-da, uka...



Davrada o'tirganlar maza qilib kulishdi.

Oqsoqol:

– Bu odam maktabdan qanday qochganini eshitgansiz-a? – deb so'rab qoldi.

– Yo'q, yo'q, – dedi davradagilar jo'rttaga. – Ayting, oqso-ll

– Bir ming to'qqiz yuz... nechanchi yil edi, polvon? – deb radi oqsoqol undan.

– Yetmish oltinchi yil edi, oqsoqol.

– Esa shundan gapiring-da o'zingiz? – deya tilidan ildi soqol.

– Qo'ysanglar-chi, – dedi polvon jilmayib. – Mehmon mning oldida odamni uyaltirmanglar-da endi.

– Ayting-ayting, qani? Bizning mayna kirdi-chiqdi bo'lib gan...

– Ha, mayli. Qo'ymadinglar-da.

U yana menga qarab gapira boshladi:

– O'sha yili soat to'qqizmidi, o'nmidi, xullasi, ertalab edi. n maktabda edim, u paytlar domullachilik ham qilar edik- – deya qo'shib qo'ydi polvon. – Berilib dars o'tayotgandim, dan oyog'im osti zirilladi. Xona devorlari g'ichirlab, eshik raza sharaqlab ketdi. Yer qattiq qimirlay boshladi. Jonim qib ketdi. Eshikka yuguray desam, eshik sinfxonaning na- burchagida, men esa bu burchagida stolda o'tiraman. Yu- sam ham chiqishga ulgurmayman degan o'y yashin tezligi- miyamga keldi. O'ylab o'tirishga vaqt yo'q edi. Shunda bir rab derazaga chiqdimu o'zimni tashqariga otdim. Polvon asmanmi, gursillab tushdim, yer yana qimirlab ketganday ldi. Keyin qarasam, deraza oynasi chil-chil sinib, pesho- n tilinibdi. Qonab, sim-sim og'riyapti. Yer silkinishi to'xta- ham allamahalgacha sinfxonaga kira olmadim. Hovlida anib yurdim. So'ng sinfga qaytib kirsam, bolalarning rangi kday oqarib ketgan. Bir-ikkisi ustimdan kuldi: «Domla, qimirlasa, ustozlar birinchi bo'lib shogirdlarini qutqar- ydimi? Siz bo'lsangiz, bizni qoldirib, o'zingizni derazadan lingiz-a?» – deya o'rtaga oldi. Men ham bo'sh kelmadim:

mashina to'xtatgan, qolganlari panada, oyog'ida zo'rg'a turib di ekan-da...»

Lafz – lafz. Endi, tushinglar mashinadan, deyish uyat.

– Dam olish qanday bo'lyapti, akalar? – deyman toza havo ga zor bo'lgancha yon oynani bor bo'yi tushirar ekanman.

– Zo'r! – dedi orqada o'tirgan bittasi.

– Yil bo'yicha changga botib, ekin ekkandan keyin dam olish ham kerak-da, – dedi boya qo'l ko'tarib to'xtatgani.

– Organizmni bir «remont» qilib ketaylik deb keldik-da, uka! – dedi orqada o'tirgani yana.

Fermerlar ekan. Ular «erta bahordan kech kuzgacha chu moliday mehnat qilar» ekan.

Aytilgan manzilga to'xtadim. Ular bir-birini suyab tu shishdi. Bittasi pul uzatdi. Olmadim. Takror-takror rahmat aytib qolishdi.

Hammasi ertasi ertalab sodir bo'ldi. Shundoq mashinaga o'tirsam, orqa o'rindiq tepasida – orqa oynaning tagida bir telpak turibdi. Olib qarasam, yangigina. Tog'amning telpagiga o'xshab ketdi. Yo kechagi shovvozlarnikimikan? Chatoq to moni, ularni tanimayman. Endi nima qilsam ekan?

O'ylab-o'ylab, tog'amga qo'ng'iroq qildim.

– Mashinamda bir telpak turibdi ekan, mabodo sizniki emasmi, tog'a? – deb so'radim.

Tog'am kuldi:

– Hech zamonda biror narsamni qoldirib ketganim ni ko'rganmisan? Dovdir emasman, akovsi! Meniki uyda! Qo'ygan joyimda turibdi!

– Unda yaxshi, – dedim. – Kecha uch odam mindirgandim mashinamga, o'shalarniki qolib ketgandir-da.

– Ehtimol...

Endi bu telpakni nima qilaman? Birovnikini kiyib bo'lmasa. Tashlab yuboray desa, yap-yangi! Ko'z qiymaydi. Egasiga topshiray desam, tanimayman, qayerdan izlashni bilmayman... Ie, to'xta, ular kecha «Chinobod» sanatoriysiga tushib qolishdi-ku? Balki haliyam o'sha yerda dam olisha yotgandir?



Shunday xayol bilan to'g'ri sanatoriy tomonga yo'l sol- im. Qorovulga uchrashib, kecha kechda to'rt kishi shu yerga shib qolganini, sanatoriyda dam olishayotganini aytdim. orovul pinaginiyam buzmadi.

– Bu yerga bir kunda yuzlab odam kelib-ketadi. Qaysi bir- i eslab qolaman? – dedi.

Hafsalam pir bo'ldi.

– Siz, yaxshisi, tashlab keting, – dedi qorovul. – O'tgan- ytgan dam oluvchilar ko'zi tushadigan joyga qo'yib qo'ya- an. Egasi chiqsa, bervoraman!

Qorovulning gapida jon bor. Kecha sarxush odamlar bu- un kiymoqchi bo'lib telpagini qidiradi. Topolmasa, yuragiga t tushadi. Qimmat, yangi, ohorli telpak. Mol achchig'i – jon chchig'i. Yo'qolgan nina ham yurakni achishtiradi.

Telpakni qorovulga topshirdim.

– Egasi topilsa, tayin berib qo'ying! Omonat bu, – dedim.

Qaytguncha qilgan ishimdan ko'nglim tog'day ko'taril- i. Yengil tortdim. Narsa yo'qotib qo'yib, topganlar, topib lib, egasiga qaytarganlar, insof, odamgarchilik haqida ko'p qiganman. Ozmi-ko'pmi, bu haqda o'zim ham maqolalar ozganman. Mana, men ham birovning omonatini egasiga pshirdim hisob. Birovning moliga xiyonat qilmadim! Egasi pib olsa, rosa alqaydi endi! «Otasiga rahmat», deydi. Insof- diyonatli kishi ekan, deb odamlarga maqtanib yurishiyam niq!

O'zimdan-o'zim mamnun holda, ko'nglim yorishib, uyga eldim.

O'sha kecha tuni bilan yomg'ir maydalab yog'ib chiqdi. avo yana sovib ketdi. Ertalab qalin kiyinib chiqdim. Ishda tirsam, telefonim jiringladi. Go'shakni ko'tarsam, salom o'q, alik yo'q, birov shang'illab baqiryapti:

– Telpagim qani mening?!

Bu – tog'am edi.

Bo'lgan voqeani aytdim. Tog'am tutaqib ketdi:

– Kallang ishlaydimi sening? Nega telpagimni birovga ervorasan?

Ana sizga tomosha! Axir kechagina «telpak yo'qotadigan dovdir emasman» degan o'zlari emasmidi? Kallam ishlamay qoldi deng: «Endi nima qilaman?»

Tog'amga telpakni albatta topaman, topolmasam, o'rniga yangisini olib beraman, deb va'dani quyuq qilib, tinchlantirdim.

– Bugun sovuqda kiyaman desam, yo'q ekan, – dedi tog'am sal hovuridan tushib. – Keyin bildim, o'sha kuni mashinangda qoldirib ketibman. Senga uyda turibdi, deganim, o'g'limniki ekan. Ikkovimizniki bir xil edi...

Ishxonadan qaytishda to'g'ri «Chinobod»ga bordim. Qorovul qora choy ichib, mudrab o'tirgan ekan. Ikki kun avvalgi gapni aytsam, uzoq o'ylandi, so'ng «tanidi».

– Telpaging boshga bitgan balo bo'ldi. Kuni bilan odamlardan so'rab charchadim. Hech kim telpak yo'qotmagan ekan. Oxiri bugun tush mahali bir odam uyiga qaytayotgan ekan, shundan so'rasam, ha, meniki edi, deb olib ketdi, – desa bo'ladimi...

Qo'ltig'imdan tarvuzim tushib yorildi. Endi tog'amdan baloga qolishim aniq. Juda chatoq ish bo'ldi-da. Lekin undan ham chatog'i, bitta telpakning egasi ikkita bo'lib qolgani edi!

## ROSTGO'YLAR

Rahbar deganlari bu darajada rostgo'y bo'lmasligi kerak-da. Esa xodimlarining holiga voy deyavering.

Lekin xodimlari undan ham o'tar haqiqatparast bo'lsa, rahbarga ham oson tutib bo'lmaydi.

...Tunov kuni xizmat safari bilan bir tumanga borib qoldim. Ayni paxta yig'im-terimi avjga mingan mahali. Bir kichikroq lavozimdagi rahbarga duchor bo'ldim.

– Uka, – dedi u hovliqib. – Ish boshimdan oshib-toshib yotgan payt keldingiz-da o'ziyam. Bir hafta bo'ldi, hatto, uyimga borib, ro'zg'orimdan ham xabar ololganim yo'q. Dalada ish yonib ketyapti axir. Saharmardondan ketamiz, shomda qaytamiz.

Men jim turib eshitdim. Shunchalik ishga ko'milib, band bo'lib qolgan odamga tashvish keltirayotganimdan xijolatda edim.



U ust-boshini qoqqan kishi bo'ldi. Mening jim turishimni ko'rib, qizishib ketganini sezdi, shekilli, sal yumshadi:

– Ha, mayli, ish qachon tugagan, o'zi. Xo'sh, nima tashvish bilan yuribsiz, uka? Bizdan nima xizmat?

Muddaoni aytdim.

– Ie, shunaqami? – dedi u aftini bujmaytirib. So'ng yana liydiyosini boshlab yubordi: – Tong sahardan beri dalada edim, kelishingizni bilganimda, idorada bo'lardim, uka. O'sha erda tez hal qilardik-da, ishingizni. Hozir idorada qorovul ham yo'q, hamma paxtada.

U gapira-gapira qo'l soatiga qaradi.

– Obbo! – deya hayqirib yubordi birdan. – Tushlik o'tib ketay debdi-ku! Ishlayverib, ovqatlanish ham ko'zga ko'rinmayli ba'zan. Yuring, huv anavi joyda bir tamaddi qilib olaylik. Qolgani bir gap bo'lar...

Rahbar oshxona tomon boshladi. Rostdan ham tushlik mahali allaqachon o'tib ketgan, qorin sibizg'a chalib turgan edi, yo'q deb o'tirmadim. Bir piyola choy kelishi bilan mezbon yaqindan tanishib olaylik, deb qoldi.

– Ko'rdingiz, ish qizg'in, paxta terilyapti, – dedi u yana tanishganimizdan so'ng. – Bosh qashlashga vaqt yo'g'-ey. Hamma dalada chumoliday ishlayotgan paytda hormang, deb turmasangiz bo'lmaydi. Biz mehnatkashlarga oson emas, uka, ikkidildan ishlab yotibmiz...

– Shunday, aka, shunday, – deyman men uning gapini ma'qullab va nonni sindirib, qaynoq sho'rvaga to'g'ray boshlayman.

– Hozir hamma xodimimiz terimchilarga ko'mak berish uchun paxta teryapti. Terimchilarni ruhlantirib turish kerak-da...

– Ha, nimasini aytasiz, – dedim men yana va sho'rvaga bo'kkan nondan apil-tapil yeya boshladim. – Hay, degan uyaga madad!

Mezbon hali sovib ulgurmagan choydan bir piyolani simirdi.

Shu mahal dastyor yigit bir shishani keltirib, dasturxonga qo'ydi. Yonida gazaklari ham bor. Men rahbarga savol nazari

bilan qaradim. U ko'rsatkich barmog'ini labiga bosib, «tish-sh-sh» dedi. So'ng:

– Bu yerlarda changbosdi qilmasangiz bo'lmaydi, ukam! – dedi u va tiqinini ochib, piyolaga quya boshladi.

Har zamonda unga sherik bo'lib turdim. Mezbonning ko'zlari suzila boshladi.

– Shu yergacha qidirib kepsizmi, xavotir olmang, ishingiz oson bitadi! – dedi kayfiyati chog' bo'lgach. – Hozir bir xodimimni chaqiraman, tezda hal qilib beradi.

U kimgadir ikki-uch qo'ng'iroq qildi, javobsiz qoldi. So'ng xijolat tortib, yelka qisdi:

– Doim javob bergich edi. Hayronman...

Shu payt telefoni jiringlab qoldi.

– Ana, o'zi chiqyapti! – dedi u tizzasiga shapatilab. – Alo? Rahimjon, hormang! Nima qilyapsiz? Ha, yaxshi, yaxshi. Hozir oshxonadamiz. Bir mehmon bor. Yordam berish kerak. Tez keling. Ha, o'sha oshxonaga. Choping!

Rahimjon degani kelgunicha suhbatlashib o'tirdik.

– Tuman odamlari juda mehmondo'st ekan, – dedim men.

– Ha, – dedi u. – Mehmon desa, jonimizni to'shaymiz. Boya tushga yaqin bir to'yga boruvdim. Ana, odam! Qo'shni viloyatlardan ham ikki avtobus mehmon kelibdi. Oyog'i tagiga qo'y so'yishdi. yeb-ichari juda zo'r bo'ldi.

– Qoyil!..

– Ishingizni tezroq bitirsangiz, kechga yaqin yana bir to'y bor, olib boraman. O'z ko'zingiz bilan ko'rasiz. Ko'pkari, olish beriladi.

– Ish ko'p-ku, aka...

– Ie, uka, qo'ysangiz-chi! – dedi u oshkora norozi bo'lib. – Shunchasi o'tdi, qolganiyam bir gap bo'lar. Ish qachon tugagan...

U yana bir piyolani sipqorib, ustidan gazak oldi.

– Shu desangiz, odam hayotga bir marta keladi... Changga belanib o'lib ketish insofdanmi, ayting? Insofdanmi shu?

Gapini ma'qulladim.

Shu mahal bir odam kelib qoldi.



– Ie, Rahimjon, keling! – dedi mezbon. – Buncha hayladingiz?

– Assalomu alaykum! – dedi kelgan odam va to'g'ri menga qarab quchog'ini ochib kela boshladi. Ko'rishdik. Egniga ohori o'kilmagan kostyum-shim, malla ko'ylak kiygan, boshiga qampirnusxa qalpoq bostirib olgan bu kishi xuddi majlisdan chiqib kelayotganga o'xshardi. Ko'rishayotganda undan araq hidi kelib ketdi. – Yaxshimisiz, mehmonjon! Xush ko'rdik!

Rahbar bizni bir-birimizga tanishtirdi. Dasturxon yemakka to'ldi. Piyolaga yana quyildi.

– Dalada ishlar qanday ketyapti? – deb so'radi rahbar xolimidan.

– Zo'r ketyapti, katta! – dedi Rahimjon aka.

– Bu kishi eng ko'p teradiganlardan, – dedi rahbar menga o'zini qisib. So'ng unga yuzlanib, so'radi: – Xo'sh, tushgacha necha kilo bo'ldi?

– Yetmish kilocha bo'p qoldi-yov, katta!

– Yashang!

Suhbat qizigandan-qizidi. Rahimjon aka jo'shib ketdi:

– Bizning elga birinchi kelishingizmi, mehmonjon?

– Ha...

– Qayerlardan so'raymiz?

– Poytaxtdan...

– Balli! Otangizga rahmat! – dedi u yelkamga qoqib. – Mening ham kenja o'g'lim Toshkentda o'qiydi. Universitetda! Poytaxtda o'qishning o'zi bo'ladimi. Boyagina shaharga borib, amolyotdan pul bervordim, studentga. Telefonda gaplashuvlim-da. Puling bo'lmasa ayt, dedim. Kerakmas, ota, deydi ikkag'arning uli. Yonimda ellik mingcha bor edi, oshnam bilan shahar aylangani boruvdim, undan yigirma ming olib, o'shdim, yetmish ming bervordim-ey!

– Rahimjon! – dedi rahbari. – Siz daladamidingiz yo shahar ketuvmidiz?

– Dalada edim, katta, dalada edim...

– Shahar bordim dedingiz-ku, hozir?

– Shahargayam borib keldim-da.

– Paxta nima bo'ldi unda?

– Paxtaniyam teryapmiz, katta. Teryapmiz.

– Shu kiyimdami? – dedi katta uning po'rim kostyumi yo qasini silab qo'yar ekan.

– Ha... Nima qipti? Boja o'g'il uylantirayotgan edi, ertalab osh berdi. To'yga dala kiyimida bormayman-ku. Kuyov bola kelin bilan aylangani shaharga borayotgan ekan, dalaga ketaman deb, kayfchilikda o'shalarning mashinasiga o'tirib olibman, deng. To'g'ri shaharga ketib qolibmiz. Keyin poytaxtdagi o'g'ilga pul jo'natvoribman. O'zi shu zormandani ichmaganimda, pul jo'natarmidim men...

– Keyin-chi?

– O'sha yoqdan qaytayotuvdik, siz chaqirib qoldingiz... Bir boshga bir boshliq deb, chopib kelaverdim-da, katta.

Rahbar ham, men ham angrayib qoldik.

Xullas, o'sha kuni ishim bitmadi.

Oshxonadan chiqib, rahbar meni qo'yarda-qo'ymay ko'pkariga olib bordi. So'ng kurash tomosha qilayotganimizda uning telefoni jiringladi:

– Hov? A? Assalomu alaykum! Ishdaman, katta! Daladaman deyman. Itday ishlayapmiz. Kallai saharlab kelib, yarim tunda qaytyapmiz o'zi. Qanaqa shovqin? Ha, terimchilar bu, g'urung-g'urung qilib, paxta teryapti-da...

U uzoq gaplashdi. Tortishdi. Qizardi-bo'zardi. So'ng:

– Obbo! – dedi telefonda gaplashib bo'lgach. – O'ldim endi. Kattalar meni topa olishmay, Rahimjondan so'rashibdi. Bu galvars meni to'yga ketdi, deb aytib qo'yibdi...

Aytuvdim-ku sizga, rahbar deganlari bu darajada rostgo'y bo'lmasligi kerak. Esa xodimlarining holiga voy deyavering. Eng yomoni, xodimlarning haqiqatparastligi. Bunday holda ishlab ham, birovga maqtanib ham bo'lmaydi, men sizga aytsam...

*2018-yil*



## «OQSOQOL»

To'ra buvaning ta'ziyasiga to'plangan izdihom orasiga sal echikib qo'shilgan odamga hamma ajabsinib qaradi.

«Qarang, Hodi qorinning bolasi keldi», – dedi yonimizda mdir.

«Buginaning ham qorni qappayib, oyog'i alchanglab, labi silib qolibdi-ku, – dedi Temir domla. – Qo'li qorniga yetmay opti. Ancha o'sibdi-da. Lekin melisani boshlab kelgani g'ala- bo'pti. To'y-azaga uncha-munchaga melisa kelmagich edi. inchlikmikan? Yo oshna-og'aynisimikan?

«Yo'g'-ey, otasi tengi melisa-ku, – dedi boyagi kimdir. – ozirgina mashinada o'tib ketayotib ko'rdim, melisa piyo- a kelayotuvdi, Rejaboy uni qo'yarda-qo'ymay mashinasiga indirayotgandi... Bir o'zi kelgisi kelmadi-yov».

«Rejaboy deganlariyam otasiga tortibdi-da, – dedi yana emir domla. – Hodi qorin ham o'zidan bir bosh baland, arim pog'ona yuqori martabali odamni ko'rsa, darrov etagi- a yopishardi. Yaltoqlanib, aylanib-o'rgilardi. O'ziga ag'darib lmaguncha tinchimasdi, shovvoz».

Qishloqda hamma biladi, Hodi qorin nomi chiqqan odam- l «Falonchi mening tutingan akam bo'ladi», «E, u mening jon o'stim-ku...», «Nimalar deyapsiz, aka, o'sha qadrdonim hozir lon joyda ishlaydi, el so'rab turibdi...» – deya maqtanardi. Bir iyola choyini ichib, Hodi qorinning do'stiga aylangan «kat- a»lar son mingta edi. Olmaning tagiga olma tushadi. Kimdir ejaboy yetaklab kelgan manavi melisa ham, ehtimol, o'sha katta»lardan birortasining «ukasi»dir, degan taxmin qildi...

Ma'rakada ko'ngil so'rab keluvchini izdihomga chorlovchi- ır Rejaboyni, unga hamroh melisani ham o'ngiridan ushlab, o'rga – qari-qartanglar o'tirgan, ustiga ko'rpacha to'shalgan zun-uzun temir stullar tomon boshladi. Stul ikki qator teril- an, ularda keksalar, oyog'idan madori ketgan mo'ysafidlar ir-biriga qunishib o'tirgan edi. Rejaboy qovoq solib, davraga alom berdi. O'tirg'ichning o'rtasini mo'ljal olib, yerga tikil- ancha, og'ir-og'ir qadam tashlab bordi. Chollar bir-biriga qa-

rab qolishdi va... o'rtaroqda o'tirgan ikki boboy oshkora zarda bilan turib ketdi. Rejaboy ojizona hurmat ko'rsatib, qo'yavering, o'tiravering, buva, men shunchaki, yonlaringizda tik turmoqchi edim, dedi. Turib ketgan chollar unga gap qo'shmadi. Kimsan-nimasan, demadi.

Hammaning ko'zi unda bo'ldi. Rejaboy noiloj o'tirmish chollar orasiga cho'kdi. Melisa ham sal xijolat tortib o'tirg'ichdan joy oldi.

Tomosha! Bu holni ko'rgan o'rtayasharlar miyig'ida kuldi. O'l, bu kuningdan, Rejaboy, dedi. Sen tengilar ma'rakada xizmatda turibdi, qara, dedi. Qari-qartangning orasida pishirib qo'yibdimi senga. Rais bo'lsang, sidirg'a bo'l-da, dedi.

Boya o'tirg'ichdan turib ketganlardan biri Murodilla tegirmonchi edi. Nariroqqa, yerga to'shalgan gilamga – yoshyalang orasiga tizza qoqdi. Yonidagilar shivirlashib qoldi.

– Hech bo'lmasa, ta'ziyada izzattalablik qilmasa o'larmikan, – dedi birovi.

Tegirmonchi jamoatga eshittirib, g'azabini sochdi:

– Itni siylasang, to'rga o'tar, deganlar. Nimayam qilardik, bori shu bo'lsa, buning...

Janoza o'qilishiga hali vaqt bor edi. Bu yoqda azador xonadon qarindosh-urug'i marhumni yo'qlab, ovoz berib turibdi. U yoqda ko'ngil so'rab kelgan izdihom, o'zi bilan o'zi bo'lib qoldi. Pichir-pichir, shivir-shivir. Rejaboy unday ekan, Rejaboy bunday ekan...

Azaga borgan odamning gap qopi to'lib ketadi. Tura buvaning ta'ziyasida o'tganu tirikning gurungidan ko'ra, Rejaboyning «qilmishi» muhimroq mavzuga aylandi.

– Balo ekan bu bola, – dedi bizga yondosh o'tirgan Azimsher domla. Shaharga choy tashiyverib, oxiri niyatiga yetdi. Iyagida bir tuki yo'q tirrancha oqsoqol-rais bo'lib oldi-ya...

– Hali sal yoshroq emasmidi oqsoqollikka? – deya o'smoqchiladi qoramag'iz bir odam.

– Gap yoshdami? – deydi miyig'ida kulib domla. – Ol qulim desa, oqsoqol bo'lish nima degan gap, uka. Kimga qachon choy tashishni o'rgansang bo'ldi...



* * *

Ma'rakadan kelib, uyda dasturxon bo'yida o'tirgandik. tam ta'ziya haqida gapira turib, Rejaboyni eslab kuldi.

– Yer yutsin u oqsoqolni, – dedi enam.

Men hayron bo'lib turuvdim, otam izoh berdi:

– Rejaboy kattamsib ketgan. Enang undan ozroq xafa o'lgan.

Enam ovqat suzib keldi. Jahli chiqqani shundoq ko'rinib uribdi.

– Bu Rejaboy degani odammas ekan, – dedi. – Yaqinda hahar boruvdim. Uyga kech tushgan payt qaytishimga to'g'ri eldi. Qahraton. Qor etigimni ko'mdi. Izg'irinda turgandim, ishloqqa qaytadigan ulov kelavermadi. Bir payt eski «Jiguli» o'xtadi. Ichida uch kishi: ikki yigitcha va bolali ayol bor ekan. a'zilarini taniyman. Oldinda o'tirgan yigit tushib, menga joy o'shatib berdi. Ayolning qo'lidagi bola big'illab yig'lab yobdi, sovuqdan rangi ko'karib ketgan. Shopir ozroq kuttirib urdi. Shu payt yer yutgur o'sha Rejaboy kelib qoldi. Bir kulili, bir kulgili kiyinib olgan. Allambalo kostyum-shim, shimi alta, kostyumining yengi uchidan qo'li ko'rinmaydi. Boshia otam zamonidan qolib ketgan shlyapa. Bir qarich chiqarhiqmas kalta galstuk taqib olgan. G'irt masxarabozning o'zia. Ilgari kolxoz raislari shunday kiyinardi.

Men Rejaboyning aft-angoriga qarab, ichimda bir kuldim, ir kuldim. Bir mahal shopir endigina moshinga o'tirmoqchi di, Rejaboy oldini to'sdi. Shopir Rejaboy bilan qo'shqo'llab o'rishdi. Bir nimalarni gaplashdi. Haydovchi e'tiroz bildirnanday bo'lib unga o'qrayib qoldi. Rejaboy do'q urgan bo'ldi, ovog'ini battar solib, o'zicha g'o'drandi. Rejaboy enkayib, uzlab qolayozgan oynadan bizga qaradi. Meni aniq tanidi. mlab salom bersam, alik olmadi, pinagini ham buzmadi-ya. o'lmasa, tanimay o'libdimi meni. Hamsoya bo'lsak, yana...

Shuni o'ylab turgandim, shopir kelib qoldi.

– Opa, iltimos, tushsangiz, – dedi.

– Nimaga? – dedim hayron bo'lib.

– Uzr, opa, tushing. Sizni opketolmayman... – deydi.

– Iya, nega opketolmas ekansiz? Tinchlikmi, o'zi?

– Tinchlik, opa, tinchlik. U yog'ini so'ramang, iltimos.

U bergan yo'l pulimni qaytarib uzatdi. Jahlim chiqib ketdi.

– Uka, – dedim qahrim kelib. – O'zi zo'rg'a yuribman. Holim yo'q. Kech tushdi, ulovdan qolsam, shu sovuqda nima qilaman? Endi bu turishda boshqa moshin kelmaydi-ku.

– Meniyam tushuning, opa...

– O'zi nimaga aynan menga tushing, deyapsiz? – dedim jahlim chiqib. Zardam qaynab ketdi-da. O'lay agar, boshqa payt bo'lganda, moshining bilan qo'shmozor bo'l, deb tushib ketardim. Lekin kun qisib kelgan, sovuq etimdan o'tib ketayotgandi.

Shopir indamadi. Bir menga, bir Rejaboyga qaradi. Rejaboy qovog'ini ochmay, jim turibdi.

Shu payt orqada o'tirgan ayol haydovchiga yalindi:

– Aka, ko'rib turibsiz-ku, opaning rangi-ro'yini. Tobi yo'q, joni yarimta ekan-ku.

Ayol yonidagi yigitga bir nimalar dedi. Yigit mashinadan tushib, shopirning yoniga borib, qaytib keldi.

– Opa, qo'yavering, men qolaman. Joyimga o'tib oling, opam bilan birga ketasiz.

Hech narsaga tushunmadim. Shopirga zarda qilib, yigit aytgan orqa o'rindiqqa o'tdim. Ana shunda Rejaboy kelib, oldingi o'rindiqqa o'tirdi-yu, hammasi ravshan bo'ldi. Bu o'ta ketgan pismiq, past odam ekan. Bilmay yurgan ekanman. Xudodan piyoda qochgan ekan.

Yo'l-yo'lakay ancha vaqt hech kim gapirmadi. Mening zardam qaynab, «davleniyam» ko'tarilib ketdi. Oxiri chidab turolmadim.

– Ishlaringiz yaxshimi, Rejaboy uka? – dedim.

U tomoq qirdi.

– Yaxshi! – dedi. So'rashgisiyam kelmadi. Men esa borgan sari jahlim chiqib ketyapti.

– Bu tomonlarda nima qilib yuribsiz? Bashang kiyinib?

– Ay, kattalarning suhbatini olib ketyapmiz.



– Qaysi kattalar?

– Elning kattalari-da... Bizam o'sadigan bo'lyapmiz-da ...di.

U shundan so'ng yana ancha vaqt og'ziga tolqon solib oldi. ...ening esa ko'nglim joyiga tushmayotgandi.

– O'zi bolaligingizdan a'lochi edingiz-da, uka, – deya gap ...lan chimchilab oldim. – Maktabda o'qib yurgan paytlarin...zdayoq o'sadigan odam bo'lishingizni sezgandim...

Rejaboy orqasiga qarab, rahmat, rahmat, dedi. Keyin bil...m, o'sha kuni u oqsoqol-rais bo'laman deb chopib yurgan ...an. Odam degan maxluq bir kundayam shunchalik o'zga...dimi, a? Rais bo'ldim, oqsoqol bo'la turib moshinning orqa...ga o'tirmayman, degan-da u naymut.

– Ha... Qo'lidan bit o'lmagan odamga amal ber-da, keyin ...mosha qil, – dedi otam. – Sen-ku, sen ekansan, tunov kuni ...o'lli buvani nima qilganini eshitdingmi?

– Yo'q. Nima qipti?

* * *

Xullas, o'sha kuni ajib ish bo'ldi. Cho'lli buva – qishloqning ...apani chollaridan. Oqilning oldida oqil, tentakning oldida ...zini merovga solib oladi. Cholning jini bor deyishadi. Bi...vga haqini bermaydi. Manaman degan kattalarning oldida ...hakdan tushmay gaplashgan. Shu odam idoraga boribdi. ...Qulluq bo'lsin, qulluq bo'lsin!» – dedi eshikdan kira solib. ...hol hassasini qo'ltig'iga qistirgancha, qo'shqo'llab ko'rish...ni yaqinlashdi.

– Keling, buva! – dedi to'rdagi stolda yalpayib, kerilib ...tirgan Rejaboy.

– Bolam, nevaramga bitta hujjat kerak bo'p qopti, yozib ...rasanmi? – dedi Cho'lli buva. Rejaboy birinchi marta ...lamzotni ko'rayotganday, cholga tikildi. O'rnidan ham tur...adi.

– Buva, peshindan keyin kela qoling, opketasiz, – dedi Re...boy. – Men hozir tuman ketaman. Juda shoshib turibman.

– Iye, Rejaboy uka, bir minutda yozsang bo'ladi-ku? Qanchayam vaqt ketardi bunga?

Rejaboy qovog'ini uydi. Cho'lli buvaning mardligini eshitgan bo'lsa kerak. Gapini berib qo'yadigan chol emas-da u. Ra'yini qaytarganni tavbasiga tayantiradi. Shuni o'yladimi, noiloj ko'ndi.

– Mayli, buva, – dedi u. – Faqat bilib qo'ying: hurmatingiz uchun! Kechiksak, kechikibmiz-da tumanga...

– Ie, yashang, rais! – dedi Cho'lli buva. – Baraka toping!

Chol bir parcha qog'ozchani qo'liga olgach, qo'zg'aldi. Xayrlashib, eshik tomonga yurayotganda Rejaboy:

– Cho'lli buva! – dedi.

– Ha, rais?

Rejaboy bosh barmog'ini ko'rsatkich barmog'iga ishqalagancha:

– Ozroq cho'zmaysizmi? – dedi garangsirab.

– Nimani cho'zaman? – dedi chol ham talmovsirab.

– Ataganingiz yo'qmi? Sizniki tabarruk-da, buva! Spravka yozilgich qog'oz ham pulga keladi. O'z kissamdan olmayman-ku...

– Iya-iya, ha... Shunday demaysizmi, rais buva! – dedi chol va cho'ntagini kovlab, eski qo'lro'molchaga o'ralgan, uvadasi chiqqan ikki yuz so'mlikni chiqarib, raisning stoliga tantanavor tashladi: – Bizdan yordam!

Chol rais tushmagur yana u-bu narsa so'rab qolmasin, dedimi, hartugul, xayrni ham nasiya qilib, ildamlab chiqib ketdi.

«Eh, tabarruk bo'lmay o'l! – dedi Rejaboy. – Qurumsoq... To'rt yuz ming pensiya oladi-ya... Ha, mayli. Birinchisi-ku bu...»

Rejaboy pulni avaylab olib, mamnun holda ko'ylagining cho'ntagiga solib, ustidan sekingina urib-urib qo'yar ekan, o'ziga-o'zi g'o'dranibdi: «Tishing borida ye, egning borida kiy!»

Mevani po'sti saqlar, deydilar. Rejaboy raislikka o'tirganiga ko'p o'tmay, po'sti zaxa yedi. Bir kuni Mahmud jandachining bevasi Rejaboyning oldiga to'polon qilib kirdi.



– Rais buva, insofingiz bormi, o'zi?! – dedi yig'lamsirab. Bolamning haqidan urib qolmasangiz, kuningiz o'tmay oldimi?

Rejaboy ilkis qalqib tushdi:

– Ishingizni bitirdim, to'g'rimi, yanga? – dedi. – Bola puli yapsizmi?

Mahmud jandachining bevasi sho'rlik ko'z yoshini artib, volga tasdiq ma'nosida boshini qimirlatar ekan, hiqillab g'lab yubordi.

– Ana! – dedi Rejaboy. – Men odamlarga yaxshilik qilay eyman! Lekin odamlar shuytib xizmatga tuhmat qiladi! xir meniyam tushuninglar! Har ikki kunning birida komisya keladi. Ularga yedir-ichirni o'z kissamdan qilamanmi? yoqqa bor, bu yoqqa bor, bularning hammasi xarajat, agar ilsangiz...

Rejaboy ko'p gapirdi. Oxirida qizishib ketib, «dard»ini 'kib soldi. «Ikki yil shahar qatnadim. Bergan choylarimni hiqarib olishim kerakmi? A, ayting, kerakmi-yo'qmi? Bo'lma-a, bu yerda o'tirishimdan, bu boshog'riqlardan menga nima af?»

Eshik orqasida navbat kutib turganlarning ko'pi Reboyning xonasiga kirmasdan, dardini aytmasdan, «Elizning pushti kuyganmidi yo tuxumi palag'da bo'lganmi? hunga qolgan kunimiz qursin», – deya jimgina chiqib ketdi.

Bu gap qishloqni bir zumda aylanib chiqdi. To'rt dam yig'ilsa, mavzu – Rejaboy! Kechki ovqat mahaliyam, 'y-ma'rakadayam oqsoqol «muhokama»si. Emishki, Rejaoy rais bo'lgach, butiga tarvuz bog'lab olganmish, g'oz yuish qilarmish. Yangi bo'lmasayam, xizmat mashinasida yurnmish. Har kuni idoraning orqasiga – kungay joyga mashiada keladi. Bu paytda raisning yugurdagi – qirqdan oshgan, uzi zahil kotibi uni kutib turgan bo'ladi. Mashina to'xtashi ilan eshigini ochadi-yu, rais tushadi, kotib bilan qo'l uchida o'rishib, qo'ltiqqa papkani qistiradi va pishqirgancha idoaga kirib ketadi. Qishloq bekorchilari har kuni uni tomosha ilib, ermaklaydi. Birov kuladi, birov piching qiladi: «Otang-

ning keti eshakning belini yag'ir qilgan, sening bu yurishing nimasi?» – deydi.

Kulgi bekorga emas, albatta. Tunov kuni Rejaboy hushidan ketib qolgani ham bu kulgini avj oldirdi.

Har kuni ertalab mashina to'xtagach, eshikni ochadigan kotib ko'rinmadi. Rejaboy kutdi. «Bu garang odam bo'lmadi, bo'lmadi-da...» Xiyla tajanglab turdi. Haydovchining ham sabri tugadi. O'zi tushib eshikni ochdi. Rejaboy qo'ymadi. «Yoping! – dedi. – Hamma o'zining ishini qilishi kerak bu yerda!»

Haydovchi hayron qolib, nari ketdi. Ochiq osmon ostidagi xobxonasi – idoraning sersoya bog'idagi karavotiga borib yotdi.

Rejaboyning joni halqumiga keldi. «Betamiz», «garang» kotibdan darak yo'q!

Bu mahalda kun qizigandan qizib, quyosh olov purkar, mashina oynalari issiqni ikki baravar ziyoda etib, odamni jizg'anak qilayotgandi. Qaysar rais xuddi o'zini o'zi sinayotganday, dami qaytsayam mashinadan tushmay o'tiraverdi! Yo'ldan o'tgan-qaytgan hayron: «qiziq, Rejaboyning tomi ketganmi, shu issiqda «hammom»da terlab-pishib nima qilib o'tiribdi?»

Xullas, kotib kelmadi – Rejaboy tushmadi. Issiqda lohas bo'lib, hushidan ketdi. Kimdir ko'rib qolib, yugurib bordi. Bog'dan haydovchi halloslab keldi, yuziga suv purkashdi. O'ziga kelgan Rejaboyni qo'ltig'idan tutib, idoraga olib kirishdi. Kira solib o'z xonasida o'tirgan yuzi zahil kotibni ko'rdi.

– Nimaga joyingda emassan? – deya o'shqirib yubordi. Sensirashga o'rganmagan kotib, sapchib turdi:

– Joyimdaman!

– Nimaga eshikni ochmaysan?!

– Men sening malaying emasman, Reja! Bundan keyin, kerak bo'lsa, o'zing tushasan!

– ...

Rejaboyning ko'zi ola-kula bo'p ketdi-yu, o'ziga keldi. Lekin latifasi qishloqqa tarqaldi. Keyinchalik chollar to'y-



po'yga borsa, eshagidan tushayotib, bir-biriga: «Mulla Lapas! No'xtani ushlang, tushib olay!» – deya tegishtirib gapiradigan bo'ldi.

* * *

... – Ko'rmaganning ko'rgani shu-da, – dedi enam bo'shagan kosalarni yig'ishtirar ekan. – To'rt kunda bosar-tusarini bilmay, odamlarni oyoq uchida ko'rsatib qoldi o'zi.

– Boya To'ra buvaning ta'ziyasida yana bir qiziq tomosha bo'ldi, – dedi otam choydan ho'plab.

– Qanday?

– Buvaning janozasi boshlanayotgan mahal tumandan bir katta halloslab kelib qoldi. Bir qarasam, Rejaboy tizilayotgan safdan otilib chiqib, lo'killab yugurib ketdi boyagiga qarab. Kattaning mashinasiga yetay deganda oyog'i qoqilib, qorni bilan gursillab yiqildi. Saf tortib turganlar, azaniyam unutib, piqillab kuldik. Rejaboy sakrab turib, ust-boshini qoqib, mashina eshigini ochdi. Katta o'ng'aysizlanib tushib keldi. Hammaning ko'zi o'zida ekanini ko'rib, ildamlashdi. Rejaboy orqasidan dikonglab ergashdi. Katta safning eng keyiniga turdi. U yerda asosan yoshlar bor edi. Shunda Rejaboy uni tirsagidan ushlab, oldinga boshladi. Shunda Murodilla tegirmonchi jerkib tashladi:

– Hoy Rejaboy! Nima balo, tuvagingda suv ichganmisan? Ta'ziya bu. Izzatingni bilib, joyingda tur qani! – dedi.

– Eshak maslahatlashib hangramaydi-da! – dedi enam asabiylashib. – Tegirmonchi boplabdi! Battar bo'lsin! O'ziyam uningiz boy bo'lib boltasi yo'q, gadoy bo'lib – xaltasi.

– Ay, qo'yaver. Bu dunyo Rejaboyga o'xshaganlarni ko'p ko'rgan. Buyam shu ketishda Xiva xoni Sorig' Ayg'irxonday bo'ladi-yov. Eshitganmisan o'zi shu xon haqida?

– Yo'q, u nima karomat ko'rsatgan ekan?

Otam miyig'ida kuldi.

– Ertalab Xiva taxtiga o'tirib, kechqurun taxtdan ag'darilgan, – dedi.

– Nega?

– Uyam Rejaboyga o'xshab «oqsoqol»lik qilgandir-da elga...

*2016-yil*

## XOTINIM «FERMA» OCHGACH...

Menga atalgan g'ij-g'ij iqtidorni xotinimga bergan ekan. Kamina sahar mardondan, to qosh qorayguncha itdek ishlayman, ko'pincha yarim tunda tilim bo'yinbog'imday osilib uyga kirib kelaman.

Shuncha ishlagandan keyin mo'maygina maosh olsangiz kerak, deb o'ylayotgandirsiz. Nimasini aytay, oydan oy qarzga botib boryapman. Topganim yo'lkiramdan ortmay qoldi. Lekin manglayim yarqiragan ekanmi, xotinim uddaburon chiqib qoldi.

Oqshom tushkun kayfiyatda ovqatlanayotsam, xotinim:

– Bugun ferma ochdim... – desa bo'ladimi. Og'zimdagi og'zimda qoldi.

– Nima?! – dedim tepa sochim tikka bo'lgancha. Men bu yoqda o'lib-tirilib ishlab, zo'rg'a pul topyapman, bu kishim qaysi puliga ferma ochdi ekan? Jahlim chiqib, ko'zim chaqchayib ketganmi, xotinim kulibgina tushuntirdi-yu, xayolim joyiga keldi. Aytishicha, fermani ochish arzimagan chiqim ekan. Keng-mo'lgina yerda ishni boshlashi bilan dastlab oltmish jo'ja sotib olibdi. Ularni barra o't bilan boqish uchun beda ekibdi. Xotinimning ishiga men ham qiziqa boshladim. Har kuni ferma haqida so'rab turdim. Uyam kunda ikki marta – nonushta va kechki ovqat mahali «raport» berishni kanda qilmaydi.

Ko'p o'tmay, xotinning jo'jalari sanoqqa kirib qoldi. So'ng ular yoniga kurka qo'shdi. Kurka degani lunqa-lunqa yemasa, bo'lmasmish. G'ayrat bilan boqila boshlangan kurkalar qo'chqorday-qo'chqorday bo'lib qoldi.

– Qani edi, qo'limiz do'rji pul ko'rsa, dadasi, – deb qo'yadi ba'zan xotinim hazillashib.



«Pul» degan so'zni eshitsam, darrov cho'ntagimni ushlab ko'raman. Avtobusga yo'lkiram va tushligim uchun tishimning kavagida saqlab qo'ygan g'ijim pullarim joyida turgan-turmaganini bilib olaman. Alam qiladi. Tishlarimni g'ichirlatib, xotinimning parrandasini xayolan bozorga solib ko'raman, daromadini chamalayman-da. Xayollarimdagi pullarni o'ylab, og'zimdan suvim oqib ketadi.

Oradan bir-ikki kun o'tib, oqshom sho'lti sho'rvaga buxankani to'g'rab yeb o'tirsam, divanda cho'zilib yonboshlab yotgan xotinim hadeb jilmayaverdi. Ie, to'xta, Boltaqul, dedim, bir balosi bor bu xotinning.

– Bugun yigirma bosh qo'y oldim, dadasi, – deydi. Shartta turib, uni dast ko'tarib, chirpirak qilib aylantirdim.

– Yasha, xotinjon! – dedim.

Shunday qilib, «raport»lariga qaraganda, u fermaga boshi bilan sho'ng'ib ketdi. Tovuqlarni sotib, puliga uch baravar ko'p jo'ja oldi. Kurkalarni ikki marta ko'paytirdi. Tuyoqlar soni arifmetik usulda orta boshladi. Bundan ruhlangan xotinim bedapoyani kengaytirdi, yoniga makkajo'xori ekdi, tariq sepdi. Endi kuni bilan o't o'rarmish, beda tashirmish, yem berarmish, oxurlariga somon solarmish. Bu ochko'z jonivorlar yeb to'ymasmish-da. Shunda xotinim bu jonivorlarga qaraganda siz yaxshisiz, dadasi, deb qoldi. O'ylasam, rost aytyapti. Axir, kamina xotinim bazo'r vaqt ajratib, damlagan bir piyola choyi va ikki to'g'ram qotgan nonga ham to'yaman, shu yemak kuchi bilan kun bo'yi ishlayman, mol-hol tushmagurlar tinimsiz yemish so'rayveradi-da...

Keyingi paytlar yarim kecha uyga kelsam ham xotinim ishdan bo'shamagan bo'ladi. Ovqat qilinmagan, idish-tovoq yuvilmagan holda uyulib yotadi. Bola-chaqaning ham rangidan tus ketdi. Xotin esa, fermasidan bosh burmaydi. Chidadim. Hademay ro'zg'orimizga baraka kirib qolar, axir. Qo'limiz jaraq-jaraq pul ko'rar. Shularni o'ylayman-u, xotinboyning ferma ishlariga xalal bergim kelmaydi. Mayli, ishlasin, men sho'rlikka ozroq yordami tegsin, deyman.

– Bugun kuni bilan lavlagi ekdim, rosa charchadim-ey, – dedi xotinim bir kuni. E'tibor bersam, uning madori qurigan. Qo'lidagi somsa to'la yelimxaltani dasturxonga tap etkizib qo'ydi. Ertalab damlangan sovuq choydan kaminaga bir piyola uzatdi. – Bugun ham ovqat qilolmadim, vaqtim bo'lmadi.

– Hech qisi yo'q, – dedim men ham och bo'riday somsaga chang solib. – Fermada ishlar qalay ketyapti?

– O'lsin bu ferma! – deydi xotinim. Aftidan, ishlari sal yurishmayroq turibdi, shekilli, mashqi pastroq edi. – Suv tashiyverish jonga tegyapti.

– Harakatda – barakat, xotin. Chida! Pul topish osonmi? Ro'zg'or tebratish shunaqa bo'ladi.

– O't ketsin o'sha ro'zg'or deganiga! Toza charchatib yuboryapti.

Qarasam, xotinimning avzoyi rostdan ham buzuq. Uzoq yillik tajribamdan kelib chiqib aytay: u shunaqa kayfiyatga tushdimi, demak, hammasi tamom – yo chikka, yo pukka qilib tashlaydi. Shu sabab kayfiyatini ko'tarib, ruhlantirgim keldi.

– Qiyinchiliklar o'tib ketadi, sabr qil, xotin, hali ishlaring yurishib, pul o'zidan-o'zi oqib kela boshlaydi. Boyvuchcha bo'lib yurasan. Lekin bir narsani aytib qo'yay: faqat fermani o'ylayvermay, vaqt topib, bundoq bolalarning yurish-turishiga, osh-ovqatiga ham qarab qo'y har zamonda.

Xotinimning zardasi qaynadi.

– Nimaga buncha noshudlik qilasiz? – deya bobillab berdi. – Men bekor o'tirganim yo'q-ku. Ro'zg'orni kim obod qilyapti, esa? Tavba, xuddi men yasan-tusan qilvolib, yalpayib yotadiganday gapirasiz-a. Fermani shu darajaga chiqarguncha ona sutim og'zimga keldi-ku. Raz, boshladimmi, endi oxiriga yetay, axir.

Xotinim rost aytadi. Keyingi paytda fermasida tovuqlar son-sanoqsiz ko'payib, kurkalari eshakday bo'lib, qo'ylari dumbasini ko'tarolmay qoldi. Tana va novvoslarini aytmaysizmi?! Bo'rdoqilari semizlikdan o'rnidan turolmasdi. Tobora ishtahasi ochilib borayotgan xotinim esa, natija ketidan quvgani-quvgan.



– Fermada qo'y va echkilar junidan ip yigirib, jun paymoq, sharf, jemper to'qish dastgohini o'rnatdim. Tayyor mahsulot chiqarib, foydasini fermani yanayam kengaytirishga tikaman, – deydi.

Lekin hamma yaxshi narsaning ham bir yomon tomoni bo'larkan. Xotinim fermaga tobora sho'ng'ib ketishi ro'zg'orimizga ko'p chidab bo'lmas darajada jabr qila boshladi. Ishdan kech kelsam ham o'zim ovqatga unnaydigan, idishlarni o'zim yuvadigan bo'ldim. Nima qipti. Bir kinoda: «Xotin do'stdir odamga» deydi-ku. Xalqimizning «Do'sting uchun zahar yut» degan maqolini eshitgandirsiz. Men ana shu «do'st» uchun qilyapman-da. Haliyam zahar ichayotganim yo'q. Albatta, men idish yuvishga shunchaki rozi bo'lganim yo'q. Xotinim bir kuni kechqurun yelkasini uqalab qo'yayotganimda zo'r yangilik aytdi-da:

– Dadasi, – dedi shivirlab. – Fermada ish yurishib ketdi. Tinimsiz ishlaganimning ajrini oldim.

– Xo'sh? Tuya-puya boqyapsanmi?

– Yo'g'-ey! Fermaning bir chetidan kon topdim! Tuprog'ini elab ko'rsam, tilla zarralari chiqdi! Eh! Shu oltinlarni yombi qilib, ortiqchasini biror joyga ko'mib qo'ysak, yetti pushtimizga yetsa-ya, – dedi xotinim ko'zlarini qisib.

Shaytonlab qolay dedim! Bir chaqmoq tilla qancha pul turishini bilasizmi? Darrov internetga kirib, jahon bozoridagi narxini bildim: eh-he, biz yashayotgan tumanni sotib olsa bo'larkan-ku!

Suyunganimdan xotinimga topshiriq berdim:

– Uydagi hamma yumushlarni men o'z zimmamga olaman! Sen bemalol, uydan xavotir olmay ishlayver! Ertaga borib, ishxonamga bo'shash haqida ariza berib kelaman! Bir oy ishlab topgan pulimga o'n kilo go'sht bermaydi, nima qilaman ishlab... – deb yuborganimni bilmay qolibman.

Kuni bilan tilla koni haqida o'ylayverib, xayolan yettinchi osmonga chiqib ketay dedim. Miyamda millionta reja tuzdim: avval mashina olsammi yo uy? Mashina olsam, hamma falonchi bosar-tusarini bilmay qolibdi, deydi. Yo'q, bunisi kam-

bag'alning «isitma»sini oshkor qilib qo'yadi. Deylik, boshqa tumandan, olisroqdan uy olib qo'ysam, birov bilib, birov bilmay qoladi. Bir chaqmoq tilla bilan barcha qarzlarimdan qutulib olaman. Qolganiga... Xullas, qolganini sizga ham aytolmayman. Qattiq sir saqlashim kerak. Xotinim shunday tayinlagan...

Shirin orzular og'ushida kun ketidan kun, hafta ortidan haftayu oylar o'tdi. Xotinimning fermasida, yo'q narsaning o'zi yo'q. U, hatto, tunlari ham fermasi bilan andarmon bo'lib qoldi. Shu sabab kam ko'rishadigan, kam gaplashadigan bo'ldik. Kechalari yolg'iz o'zim... yostiqni quchoqlab uxlayman.

Kunlardan bir kuni xotinim bilan o'z uyimizda, shundoq oshxonaga kiraverishdagi yo'lakda ko'rishib qoldik deng. Avvalgi xotinimdan yarmi ham qolmapti. Ozib-to'zib, xuddi oshxonamizda tunlari oyog'i chalishib, mo'ylovini zo'rg'a sudrab yuradigan suvaraklarimizga o'xshab qolibdi. Aft-angori ham bir navi. So'lib, adoi tamom bo'libdi. Rahmim kelib ketdi.

– Voy bechora! – dedim. – Tamom bo'psan-ku?

– Dadasi, o'ylashga xalaqit bermang! – deya asabiylasha boshladi u va borib divanga yonboshladi. – Fermada ish chatoq. Ochofatlarning son-sanog'i yo'q! Men oziq tashib charchayman, bu teshib chiqqurlar yeb to'ymaydi. Jonimga tegib ketdi rosa, asabdan qo'llarim qaltiraydigan bo'lib qoldi – u ho'ngrab yig'lab yubordi. – O'zingiz qalaysiz, dadasi? Sizni ko'rmaganimga ham bir hafta bo'ldi. Bormisiz?..

Ko'zimdan yosh chiqib ketay dedi. Boyaqishga rahmim keldi.

– Xotin, qo'y shu fermangni, – dedim oxiri. – Joningda qasding bormi? Ro'zg'or ham bir gap bo'lar. Ochdan o'layotganimiz yo'q-ku.

Xotinim yig'lamsirab o'ylanib turdi-turdi-da, «o't tushsin shu «ferma»ga» dedi va... «sotka»sidagi «Ferma» degan o'yindan chiqdi. So'ng jahl ustida bu o'yinni telefoni xotirasidan ham butkul «delete» qilib yubordi. Xayriyat, balodan qutuldik. Shu o'yin deb xotinginamdan ayrilib qolay dedim-a... O'zim-chi, o'zim? Naq xayolparastga aylandim-a...



Xullas, xotinim fermadan «bo'shagach», ro'zg'orimiz avvalgi holiga qayta boshladi. Endi akang qarag'ay har kuni kechda charchab uyga kelsam, ovqat pishgan, dasturxonga choy-non qo'yilgan bo'ladi. Bolalarim ham onasini juda sog'inib qolgan ekan, har kuni uning atrofida parvona.

Men esa tuni bilan yostiq quchoqlab yotishdek bemaza va tussiz hayot bilan vidolashdim...

* * *

Bolalar uchun to'qilgan ertaklar, odatda, ana shunday umidbaxsh yaxshilik bilan tugaydi. Lekin men hikoya qilgan bu voqea – ertak emas. Shu boisdan – hikoyaga ayni kezda nuqta qo'yishim kerak edi, biroq sizni aldagim kelmadi, rost gapimni endi eshiting – hayotning naqadar beshafqatligi haqida so'zlay qolay.

Xullas, iqtidoru iste'dodni xotinimga bergani rost ekaniga yarim gramm ham shubham qolmadi: «ferma»ni tashlagan xotinim endi, o'rgangan ko'ngil o'rtansa qo'ymas deganlaridek, mushuk boqyapti! Tushunyapsizmi, mushuk!

Har kuni mushuk qurmag'urni menikidan katta likopchada ovqatlantiradi. Oziqasini menikidan ozoda sanchqida beradi. Biznikidan shinam vannada ustidan suyuq sovun surib, yuvintiradi, junlarini tarab, menikidan yumshoq sochiqqa o'rab, yotqizadi. Ba'zan unga qo'shiqlar aytib beradi. Bu yoqda bolalarimiz och-nahor, mushuk yeyotgan ovqatlarga tamshanib, suqlanib, tomog'i tushib termulib o'tiradi. Yo falak, o'z bolalariga qayrilib ham qaramaydi-ey. Farzandlarimiz ham g'ing deyolmaydi, baraka topgurlar. Mening yonimga kelishadi. Ularga ovqat beraman, joy-joyiga yotqizib uxlataman. Ularga onasi haqida, uning ishbilarmonligi to'g'risida ajoyib ertaklar so'zlab beraman.

Tunlari esa, avvalgiday yolg'iz uxlayapman...

Har kun uyqu oldidan erta tongdanoq turib, xotinim va mushuk tanda qurib olgan o'sha mal'un «sotka»ni bolg'a bilan urib sindirmasam, Boltaqul otimni boshqa qo'yaman, deb qasdlanaman. Ammo, lekin, biroq...

Netay, mushuk «sotka»ning ichida, «sotka» xotinning qo'lida, xotin esa, narigi xonada – mushugini ovqatlantirish uchun tuni bilan mashaqqat chekib, uxlamay chiqqan, horib-tolgach, azonga yaqin ko'zi ilingan bo'ladi. Rahmim kelib, boyaqishni uyg'otolmayman.

Keyingi paytlar jahli chiqsa, nuqul: «Shoshmay turing, «ferma»mni qayta ochib olaman», deb qo'rqitaveradi...

Men esa xotinimdan emas, uning«ferma»sidan juda qo'rqaman...

*2018-yil, fevral*

## FUTBOLDAGI QOTILLIK

Futbol jinnisi Moyli Buva shahar aylanib keldi-yu, mahalla chollarini yig'di.

– Qachongacha buytib o'tiramiz? – dedi u o'ychan qiyofada.

Boboylar bir-biriga qarab oldi.

– O'tirishimizga nima qipti, Moyliboy? – deb so'radi kayvonilardan biri Orol buva. – Ko'p cho'zmay, dardingni ayt qani?

– Qishlog'imizda erkakman degani futbol o'ynaydi. Yoshlarni-ku, aytmay. Hamma qiziqadi. Tursunqulning bolasi shahardagi bosh klubda o'ynay boshlagandan beri hammaning bolasi o'qishni tashladi. Sumkasini otvorib, stadionga qochib ketyapti. Shu... Biz ham qishlog'imizda futbol-putbol klubi tuzsak, qaytadi?

– Topgan gaping shumi? – dedi Orol buva ensasi qotib. – Boshingga urasanmi futbolni? Bir oyog'imiz yerda, bir oyog'imiz go'rda bo'lsa... Eshikni zo'rg'a topib chiqamiz-u... To'p tepishga yo'l bo'lsin!

– Kim o'ynaydi u klubingda? – dedi O'roq buva gapga qo'shilib.

Moyli Buvaning quvligi tutdi:



– Biz o'ynamaymiz-ey. O'ynatamiz! Yoshlarimiz zo'r, Xudoga shukr. Bitta trener topsak bo'ldi-da.

– Qanday qilib? – deya jo'rovozda so'radi chollar.

– O'zim topaman trenerni, – dedi Moyli Buva vazminlik bilan. – U hammasini joy-joyiga qo'yadi.

– Qayerdan topasan? Keyin uni qanday qilib boqasan? Tekinga mushuk oftobga chiqmas?

– Shaharning futbol klubi treneri ishdan bo'shatilibdi. Kal bor edi-ku. O'sha. Hozir ishsiz emish. Olib kelsak bo'lar?!. Pensiyamizdan besh-o'n so'mdan yig'ib beramiz, deymiz.

– Bo'ladigan gapdan gapir, Moyli jo'ra! – dedi Orol buva. – Boshi bir umr katta oxo'rda bo'lgan odam sen bilan mening pensiyamga qaraydimi?

– Ha, bu gaping to'g'ri... – dedi Moyli Buva. Sallasini yechib, boshini qashladi. Oppoq sochlari qayrilib, jingalak bo'lib qolayozgan ekan, tekislayman degandi, og'riq berdi. – Uh, sabil! – dedi sochini silab. – Yotib qopti-da... Xo'sh, pensiyaga kelmasa, aytamiz, qo'shimchasiga yozda g'allaga o'roq tushsa, besh-o'n qop arpa-bug'doy beramiz, kuzakda yana shuncha olma-anor olasan, deymiz. Ko'nar, o'ldimi? Sotsa, falon so'm bo'p ketadi. O'zi sochi menikiday to'kilib, parti ketib, sharti qolgan trener bo'lsa... Ish yo'g'ida tarang qilmas?

– Hay bilmadig-ov, – dedi Orol buva. – Gaplashib ko'r-chi?

– Agar rozi bo'lsa, ishimiz besh bo'ladi, ishonaveringlar! – dedi Moyli Buva quvnab. – Eng zo'r yigitlarni tanlaymiz. Avval qo'shni qishloqlarni tum-taraqay qilamiz. Keyin tumanni yengamiz. So'ng shahar bilan o'ynaymiz. Sovrin yutsak, mukofot pulini hammamiz arra qilamiz. Nomimiz bir qishloqdan chiqmay, shunday o'lib ketaveramizmi? Agar aytganimni qilsak, tarixda qolishimiz mumkin, eshityapsizlarmi, tarixda!

– Xomxayol! – dedi To'ra buva hassasi bilan kovushining uchiga sekingina urib qo'yar ekan. – Birinchidan, u odaming kelmaydi. Ikkinchidan, bu orada bo'ladigan musobaqalarda sovringa uch-to'rt ming so'mlik arzon-garov vazadan boshqa shimildiriq ham qo'yishmaydi. Pul mukofotini tushingda ko'raver!

Lekin Moyli Buva bir so'zli odam. Gajirligi tutdi, kal murabbiyning boshidan o'pdimi, siladimi, ishqilib, o'shani olib keldi. Murabbiy tush mahali stadionga bordi. Qo'y-qo'zilar qumaloq tashlab ketgan tap-taqron stadionni ko'rdi-yu, havo yetishmadimi, hushidan ketib qolayozdi.

– Bu yerda saksovul ham o'smaydi-ku, otaxon! – dedi aftini bujmaytirib. – Futbol o'ynab bo'ladimi bu turishda?

– Hali kechki salqin bo'lsin, uka, keyin ko'ramiz! – dedi Moyli Buva g'o'dayib.

Moyli Buva aytgan vaqti stadion odamga to'lib ketdi. Butun qishloq erkagi yig'ilgan. Murabbiy o'zi ishlagan shahar klubining ham bunchalik muxlisi yo'qligini, azamatlarning shahdini, o'yinini ko'rib, dovdirab qoldi.

– Bo'ldi, Moyli buva! – dedi og'zi qulog'iga yetib, mamnun bo'lgancha. – Men rozi! Faqat o'n qop emas, o'n besh qop g'alla berasiz! Bu yigitlar bilan shaharniyam zabt etamiz ana shunda!

Qo'l tashlashildi. Klub tuzildi. Unga «Oq quyonchiqlar» deb nom berildi!

– Agar jarima maydonchamizga raqibning bitta hujumchisi yaqinlashsa, quyonchig'i tutgan odamday tarmashasan hammang! – dedi kal murabbiy ilk mashg'ulotdayoq klub a'zolariga qarab. – Qanday bo'lmasin, xavfni bartaraf etasan. Bizning futbol falsafamiz shundan iborat bo'lishi kerak: uch qadam oldinga, ikki qadam orqaga! Bu degani: uch marta ketma-ket g'alaba qozonsakkina, mayli, bir martagina mag'lub bo'lishimiz mumkin. Biroq bu uchinchi gal albatta yutqazamiz, degani emas! O'yin o'z oti bilan o'yin, unda kimdir yutadi, boshqasi yutqizadi. Lekin biz «Oq quyonchiqlar» hech qachon yutqazmasligimiz shart. Bir qadam orqaga deganim, har zamonda bir mag'lub bo'lish keyingi g'alabalar sari jahdlashishda asqatadi. Palakat bosib, ikki marta yutqazib qo'ysanglar, mendan o'pkalamanglar!

Klub a'zolari bilan bu shartga kelishildi. To'qqiz oyu to'qqiz kun, to'qqiz soatu to'qqiz daqiqa mashg'ulot o'tkazildi.

O'sha kunlari tumandan jarchi keldi: keyingi haftada Bo'riya qishlog'ida tuman birinchiligi bo'larkan! Kal murabbiy boshchiligidagi «Oq quyonchiqlar» qatnashish uchun «chopar»dan ariza berib yuborishdi.



... Qur'a tashlandi. Unga ko'ra, «quyonchiqlar» musobaqaning eng nochor klublari bilan bir guruhga tushdi.

Musobaqa boshlanmasidan klubning faxriy, norasmiy xo'jayini Moyli Buva kal murabbiyni yoniga imlab chaqirdi.

– Uka, har bir g'alabang uchun kelishilgan oyligingdan tashqari besh qopdan g'alla beraman! – dedi. – Finalga chiqib, g'olib bo'lsang, uying bug'doyga to'ladi deyaver!

– Aytganingizday qilamiz, Moyli Buva, ko'nglingiz to'q bo'lsin! – dedi murabbiy. – Futbolchilarimizning hammasini ertalabdan Chiyalining bozoriga olib borib, yaxna go'shtga to'ydirdim. Ustidan tandir go'sht olib berib, yedirdim. Kuchning hammasi shularda. Bu ilk musobaqamda futbol falsafam ish beradi, xudo xohlasa.

Shunday qilib, musobaqa boshlandi. «Oq quyonchiqlar» ilk o'yinni «Oltin boshoq» degan jamoaga qarshi o'tkazdi. Va asabiy o'tgan o'yinda 0-1 hisobida mag'lub bo'ldi. O'yin tugashi bilan murabbiyni Moyli Buva bir chetga chaqirdi.

– Bu nima qilganing, uka?! – dedi tupugini sochib. – Shunday pachoq jamoagayam yutqazasanmi?

– Afsus, – dedi kal murabbiy. – Ko'rdingiz-ku, negadir o'yinimiz qovushmadi. Hozir tahlil qilib beraman sizga. Xo'sh, mana, bloknotimga yozib qo'ygandim sababini. Mag'lubiyatimizga asosiy sabab, manavi stadionning holati yaxshi emas ekan...

– Nima? Nega yaxshi bo'lmaskan? O'yinda bitta «Oq quyonchiqlar» o'ynagani yo'q-ku? Stadion yomon bo'lsa, «Oltin boshoq» qanday o'ynadi? Axir ular bilan bitta maydonga tushdinglar-ku?

– ....

Xullas, «Oq quyonchiqlar» qolgan o'yinlarda ham faqat yutqazdi.

Moyli Buva bunga chiday olmadi. Musobaqa tugamasidan uyiga ketib qoldi. Ertasi kuni «quyonchiq»lar murabbiyini chaqirdi.

– Sen bizni sharmandai sharmisor qilding, uka! – dedi u kal murabbiyga. – Sen yo'g'ingda, qaytanga, klub tuzilmagan, trener yollamagan paytimizda qishlog'imiz yigitlari o'zlari bir jamoa bo'lib, bundan yaxshi natija ko'rsatib kelayotgandi. O'tgan yili tumanda chorak finalga chiqqandik. Bilasanmi shuni? Senga ishongandik, chempion bo'lamiz, deb kutgandik...

Xullas, gap bunday: kechadan beri betim uyatdan yonib ketyapti. Kechquruni bilan qon bosimim oshib chiqdi. Sen bilan tortishishga yo urishishga tobim yo'q. Mana bu qog'oz. Kechagi mag'lubiyatlaringning hammasining sababini shunga yozib, tushuntirish xati qilib berasan menga. Keyin muammolarni tahlil qilib, birga yechim topamiz. Boshqa o'yinlarda bu xatoliklarga yo'l qo'ymasligimiz kerak.

– Xo'p, Moyli buva, – dedi murabbiy. – Faqat mendan xafa bo'lmay turing, hali hammasi oldimizda turibdi. Yuzimiz yorug' bo'ladi, kafolat beraman bunga. Imkoniyatlarimiz ko'p...

Moyli Buva sutdan qolgan buzoqday mudrab, g'ing demasdan, nari ketdi. Ko'z oldiga Orol buva keldi. U: «Ha, Moyliboy jo'ra! Men senga nima degandim? Topganing tirriq chiqdimi?» – deganday iljayib turardi. So'ng boshqa chollar bir-bir xayolidan o'tdi. Ular ham ko'rsatgich barmog'ini bigiz qilib: «Hah, Moyli, Moyli-ya! Shu kalga kunimiz qoluvdimi? Qaytanga shusiz ham or talashib yurgandik-ku! Bunchalik sharmanda qilishing shartmidi?» – deyotganday bo'laverdi.

...Kal murabbiy qog'ozga tikilib turdi-turdi, nima deb yozishni bilmadi. Ruchkaning uchini tishladi, g'ajidi. Tayinarli fikr kelavermadi. So'ng chakkasini qashladi va qitirlatib yoza ketdi.

Birpasdan so'ng uni olib borib, Moyli Buvaga tutqazdi-yu, u ham indamay orqaga qaytdi. Moyli Buva qog'ozni cho'ntagiga solib qo'ydi. Kechki ovqatni tanovul qilgan Moyli Buva yonboshlab yotgancha, choydan ho'pladi va qog'ozchani ochdi. Xo'mrayib, o'qiy boshladi:

«Muhtaram Moyli Buva! Kechagi musobaqada siz asos solgan «Oq quyonchiqlar» klubining ketma-ket mag'lubiyat-



ga uchrashi turgan-bitgani tasodif. Buni men – o'ttiz yillik murabbiylik tajribasi bor odam aytyapman. Qasam ichaman, hammasi tasodif! Bu bizga bog'liq bo'lmagan sabablar tufayli yuz berdi.

Shularni sanab o'tsam:

Birinchi. Biz o'ynagan stadionning holati yaxshi emas ekan... Buni ilk o'yinimiz tugagach, o'zingizga ham aytdim.

Ikkinchi. O'sha kuni ob-havo juda noqulay bo'ldi, bunaqa havoda tepgan to'pingiz loyga botib qoladi, yo'nalishi o'zgarib, qiyshiq ketadi. Ko'rdingiz-ku».

«Ie, – dedi Moyli Buva ichida. – Ob-havoning nima aloqasi bor? Raqibing ham xuddi shu ob-havoda o'ynadi-ku? Ularga jin ham urmadi-ku? Nega ular g'alaba qozonadi-yu, sen yutqazasan, kal?»

«Uchinchi. Bizning jamoamizda atigi 11 futbolchi o'ynadi...»

«Nima? – dedi Moyli Buva ichida yana. – Sen nechta futbolchi tushirding maydonga? G'irt muttaham ekansan-ku?»

«To'rtinchi. Yigitlarimiz to'qqiz oy mobaynida ketma-ket o'tkazilgan mashg'ulotlarda toliqqani sezilib qoldi.

Beshinchi. Raqib jamoalarimizning hammasida ikki-uch nafar futbolni yaxshi o'ynaydigan futbolchilar bor edi...

Oltinchi. Raqiblarimiz bizning futbol falsafamizning uchinchi qoidasini yashirincha kuzatib, o'zlashtirib olgan ekan. Biz mashg'ulot o'tab yotganlarimizda ularning xufiyalari kelib, kuzatgan ekan. Shunisi juda chatoq bo'ldi...»

«Ie, falsafangga o't tushsin sen to'nkaning!.. – dedi Moyli Buva asabi qo'zib. U sanchiq turgan yuragini siladi. Nafasi tiqilib kelayotganini sezdi. Dastro'molchasi bilan reza-reza ter chiqayotgan manglayini artdi. – Sening dumbulcha falsafangni boshqalar boshiga uradimi?»

Moyli Buva o'qishda davom etdi:

«Yettinchi. Bunday o'ylab qarasam, musobaqa o'tkazilgan stadion raqiblarimizning hammasining uyiga yaqin ekan. Bitta biz sal uzoqroq qishloqdan boribmiz. Katta futbolda shunday gap bor: «O'z uyingda devorlar ham madad beradi...»

«Uf, padari la›nat! – dedi Moyli Buva o'zini bosolmay. – Axir aksincha, eng yaqindan borgan biz edik-ku! Shahardan kelib olib, o'zingga nisbatan uzoq deb aytma-da, ablah!»

Sabablarni o'qiy-o'qiy Moyli Buvani qaltiroq tuta boshladi:

«Sakkiz. Yigitlarda ayb yo'q... Hamma ayb musobaqa tashkilotchilarida. O'sha kuni klubimizga qo'noq berishdi-yu, kiyim almashtirishga joy ko'rsatishmadi. Hamma o'yinchilarimiz makkapoyaga kirib, futbol formasini kiyib chiqishdi. Bu esa, o'yin sifatiga salbiy ta›sir ko'rsatdi. Chunki ko'p futbolchilarimiz kiyimini almashtirayotganida makkajo'xori so'tasi badanini qitiqlabdi, ayrimlariga allergiya toshiribdi. Bu, men sizga aytsam, raqib jamoalar atay o'ylab topgan, oldindan uyushtirilgan strategik g'oya bo'lishi ham mumkin. Xullas, o'yinda o'sha kayfiyat yigitlarimizga xalaqit berdi...»

«Yaxshiyam, birorta so'ta kirib ketmabdi...» – dedi Moyli Buva ko'zlari ola-kula bo'la boshlar ekan. Va so'nggi kuchini to'plab, o'qishda davom etdi:

«To'qqizinchi. Men polvon darvozabonimiz Qobonov qo'riqlagan darvoza 0,2 santimetrga qiyshayib turganini sezib qoldim. O'yin oldidan musobaqa tashkilotchilariga shu kamchilikni tuzatishni so'rab, murojaat qildim. Talabimni qondirishmadi. Bu esa raqiblarimizga qo'l keldi...»

«Eh, galvars! Axir bu kamchilik bo'lsa, ikkinchi taymda o'zingga qulay sharoitni tug'dirdi-ku, nega bundan foydalanmading?», – dedi Moyli Buva yuragini changallab, ihranar ekan. Ko'zi yozuvni xiradan-xira ko'ra boshladi:

«...Bu kamchilik o'yin avvalidayoq futbolchilarimizning kayfiyatini tushirib bo'lgandi. Axir qiyshiq darvozaga to'p kirishi oson-da...».

* * *

... Erta tongdan Moyli Buvani o'g'li uyg'otmoqchi bo'lib xonasiga kirdi. Chol qimir etmasdan yotardi. Qo'lida bir parcha qog'oz. O'g'il otasini ohista turtdi. Uyg'onmadi. Chol yuragini changallab, bandalikni bajo keltirgan edi. Qo'rqib ketgan o'g'il, otaning qo'lidagi qog'ozchani yulib oldi-da, ko'z yugurtirib o'qidi.



Qog'ozchaning eng oxirida shunday deyilgan edi:

«Moyli Buva! Sizga tushkunlikka tushmaslikni maslahat beraman: hali imkoniyatimiz, aniqrog'i, imkoniyatingiz bor. «Oq quyonchiqlar»ga murabbiylikka yaramaymanmi, deb qo'rqyapman. Shu bois, o'rnimga bir shogirdimni gaplashdim. U kelib, mening futbol falsafam bo'yicha «quyonchiq»larni tarbiyalashda davom etadi. U klubingizni zafarli odimlatishga ishonaman.

O'zimga kelsak, «Oltin boshoq»dan taklif tushdi. Ular yigirma qop bug'doy, o'ttiz uch qop kartoshka-piyoz, besh toy paxta va'da qilishyapti...»

*2017 yil*

## PAND BERGAN MOMO

Ertalab rasmlarimni tomosha qilib turib, beixtiyor kulib yubordim. Unda yonimda iljayib turgan bir yigit – Shokirjonni ko'rib qoldim-da. U hamkasbim bo'ladi. Qadrdon do'stlarimdan.

Shokirjon bilan ilgari bir tahririyatda ishlaganmiz. Hamma uni «Eshonbobo», deydi. O'zi rostdan ham eshonlardan, diniy ta'lim bo'yicha ham oliy ma'lumotga ega.

Eshonbobo do'stimiz juda serdiqqat, qo'nimsiz, lekin juda xushchaqchaq odam. Afandidan bir tuki kam emas. Lekin salgina guppiligi bor. Dangasalikdan ham qismagan: tutib qolsa, million so'm pul berib ham bir enlik xabar yozdira olmasdik. Lekin agar u topgan gaplarni qiziqchi Hojiboy Tojiboev eshitsa, dunyoda tengi yo'q repertuarga ega bo'lardi rahmatli...

Eshonbobo o'ta ketgan «sodda» ham edi: shanba, yakshanba kunlari hamma qatori uyida dam olardi. Dushanba kuni esa, kechga yaqin rahbarimizning oldiga ishdan ruxsat so'rab kirardi. Xudoning bergan dushanbasi ahvol shu edi:

– Ustoz, – derdi tashvishli qiyofaga kirib. – Menga ruxsat bering! Samarqandga, uyimga borib kelmoqchi edim...

Ruxsat beraverib, bezor bo'lib ketgan bo'lsa-da, rahbarimiz Eshonboboning ra'yiga qarardi. Lekin har safar andak ranjib, so'rardi:

– Eshonbobo, shanba, yakshanba dam olib, uyda bekor yotasiz. Juma kunlari tushdan so'ng yo'lga chiqsangiz, shu dam olish kunlari bemalol borib kela olasiz-ku Samarqanddagi uyingizga? Ruxsat so'rashga ham hojat qolmaydi, dam olish kunlaridan ham unumli foydalanasiz. Nega kelib-kelib, dushanbada ruxsat so'raysiz doim? Ish ko'payib yotganda bir kishining yo'qligiyam gazetaning kechikishiga sabab bo'ladi, bilasiz-ku?!

Eshonbobo «sodda»lik qiladi:

– Bu oxirgisi, ustoz...

Xullas, Eshonbobo dushanbada ruxsat oladi, seshanbada Samarqandga ketadi. Chorshanba, payshanba kunlari qishlog'ida bo'ladi. Juma kuni qaytadi va charchagani sababli, ishga emas, to'g'ri poytaxtdagi ijara uyiga keladi. Qarabsizki, bir hafta ishga chiqmasdan, dam oladi hisob.

... Rahbar «bu oxirgisi», degan gapni eshitib, kulgisi qistaydi:

– Uyingizga nima uchun boryapsiz, o'zi, Eshonbobo?

– Ustoz! – deydi do'stimiz. – Ertaga chorshanba kuni eng kenja opamni uzatyapmiz. To'yga boryapman.

– U-u-u! – deydi rahbar javob berishga arziydigan sabab borligini anglab, o'zini noqulay his qila boshlaydi. – Yaxshi-ku. To'y bo'lsa mayli. Boring! Hammani to'ylarga yetkazsin!

– Aytganingiz kelsin!

– Unda, demak, chorshanbada to'yni o'tkazib, payshanba kuni ishga chiqasizmi?

– Yo'q-da, ustoz...

– Ie, nega endi? Bor-yo'g'i qiz to'yi bo'lsa, shundoq o'tkazib, ertaroq qaytavermaysizmi?

– Iloji yo'q-da, ustoz!

– Nega?



Shunda Eshonbobo yana go'llik qiyofasiga kiradi. Qayg'uga botgan nigohlarini yerga qadagancha:

– Chorshanba kuni opamni uzatamiz. To'y. Payshanba kuni uyda bo'laman. Juma kuni esa momom vafot etib qolishi mumkin... – deydi.

Bu gapni eshitib, rahbarimiz kulishniyam, yig'lashniyam bilmay qoladi. Ichida kulgisi qistaydi, lekin kulolmaydi: momosi keksa, og'ir yotibdi, deb eshitgan.

Rahbarimiz noiloj rozi bo'ladi:

– Mayli, to'yni yaxshi o'tkazib keling! Momongizga xudo shifo bersin, so'rab qo'ying...

Shu bilan Eshonbobomiz doimgiday shataloq otib, qishlog'iga ketadi. O'zi va'da berganiday, keyingi haftada ishga chiqadi. Uni ko'rgan rahbar xonasiga chaqirtiradi. Ming xavotir bilan avval to'y haqida gap ochadi:

– To'y yaxshi o'tdimi?

– Ha, zo'r bo'ldi, – deydi Eshonbobomiz yuziga sertashvish ma'no berib. Bundan rahbarning quti uchadi.

Yana ikkilanib so'raydi:

– Momongiz?..

– Eh...– deydi Eshonbobo yanada chuqur qayg'uga botib, yerga tikilgancha. Buni ko'rib, rahbar battar sarosimaga tushadi.

– Momongiz?...– deydi yana.

– Ay, momomiz «podvodit» qildi-da... – deydi Eshonbobo va sharaqlab kuladi. – O'lmadi! To'yni o'tkazib, selkillab, oyday bo'lib yuribdi.

Rahbarimiz nima deyishni bilmay, birpas jim qotadi. So'ng oromkursiga o'zini tashlab, yelkalari silkinib-silkinib kuladi.

Shu-shu Eshonbobo ruxsat so'rasa, nafaqat rahbarimiz, balki bo'lim mudirlari ham tagini surishtirmay, javob beradigan bo'ldi. Eshonboboning bahonalarining chek-chegarasi yo'q edi-da.

Vaqt o'tib, u ishdan ketdi. Lekin ishxonamizda undan ko'p latifalar meros qoldi. Bir kuni ishlar boshqaruvchimiz antiqa gap aytib qoldi:

– Men bir yil mobaynida atay hisoblab yurdim. Eshonbobomiz bir yil – ellik ikki haftaning yigirma besh haftasida ruxsat so'ragan ekan. Mehnat ta'tilida bo'lgan oy hisob emas haliyam. Eshonbobomiz ruxsat so'rash bo'yicha chempion sifatida gazetamiz tarixida qoldi.

Ha, bu tarixiy shaxs bilan ishlashning mas'uliyati juda katta edi. Biz ham bo'sh kelmadik, albatta. Biror muxbir javob so'rasa, har ehtimolga qarshi undan: «Eshonbobocha ruxsat emasmi bu?» deb so'rab qo'yamiz. Bu latifani bilgani qah-qah otib kuladi: «Yo'g'-ey, – deydi so'ng. – Atigi bir kunga, xolos. Eshonboboga teng kelib bo'lmaydi-ku».

Darhaqiqat, Eshonbobomizga hech kim teng kelolmasdi. Hozir rasm tomosha qilib o'tirib ham buni yana bir bor angladim. U mana shu rasmda ham buni isbotlagan: tilini chiqarib, qoshiga tekkizib suratga tushgan...

# UCHQUN TUYG'ULAR

## OTA

Ota to'lib-toshib keldi. Uyda to'polon bo'lib ketdi: to'rt bosi yugurib kelib, quchog'iga otildi. Otaning ko'zi narigi xona shigida mo'ltirabgina turgan qizchaga tushdi. U uzoqroq bir arindoshining yetimchasi edi.

– Dada! – dedi kenja o'g'ilchasi.

Ota unga shokolad berdi.

– Dada, mengayam! – degan kichik qizchasi o'z ulushini ldi.

– Dadajon! – dedi uchinchi farzandi. U ham benasib qolnadi.

– Dada! – dedi to'ng'ich o'g'li.

Uyiga mehmon qizaloq kelganidan bexabar holda to'rtta hokolad olgan ota oxirgisini qo'lida tutib, bir nafas turib qolli va bir o'g'liga, bir yetim qizchaga tikildi.

Shu mahal yetim qizaloq katta qizni imlab chaqirdi. Quog'iga shivirladi. Katta qizi kelib, otasiga shunday dedi:

– Dugonam «Dadangni men ham dada desam maylimi?» eb so'rayapti...

## SEVGI IQRORI

«Men bisotimdagi yagona, o'z shaxsiy xotinimni sevib qolanga o'xshayman. Qornim ochganida doim shunday tuyulali...»

## DUNYODAGI ENG GO'ZAL AYOL

«Derazadan boqayotgan eng go'zal ayol» mavzusida hedevr rasm chizishni niyat qilgan musavvir necha oylab

bo'lib, ho'kizga yemish va suv berishni unutgan, jonivor och-likdan tuproq yalab, oshqozoni qotib o'lgan edi.

## BOZORDA

U mahallar qishloqda bozor degani hozirgiday har kunlik emas, faqat yakshanba kunlari bo'lardi.

Robiya yetti yoshli qizini bozorga jo'natdi. Qo'liga zarur mahsulotlar ro'yxatini yozib berdi: bir kilodan kartoshka, piyoz, sabzi, parvarda, yarim kilo go'sht... Shunga yetadigan pul tutqazdi.

Tushga yaqin qizi mayishib, bir dunyo narsani ko'tarib keldi. Robiya bozorlikni olib ko'rar ekan, xursand bo'ldi: qizi ko-riga yaraydigan bo'lib qoldi! Rahmatli eri hayot bo'lganida-ku, har yakshanba o'zi bozorlik qilardi, qizi bozor oralamasdi. Sababi, dehqon bozoriga ayol zoti qadam qo'ymasdi. Bugun bozorda yurgan yetti yoshli qizcha hammaning e'tiborini tortgani bejiz emas.

... Robiya ko'ngli to'lib, qiziga rahmat dedi. Qizi esa, cho'ntagidan pullarni chiqarib berdi.

– Bu qanaqasi?! – dedi Robiya hayron qolib. – Buncha nar-sani qaysi pulga olib kelding?

Qizining ko'zi yiltilladi:

– Hech kim pulimni olmadi. Kartoshkachi amakiyam, pi-yozchi amakiyam: «Rahmatli otang yaxshi odam edi, yosh ketdi», deb bir kilodan emas, ikki kilodan berdi. Pulimni esa olishmadi...

Robiyaning mijjasiga yosh qalqib chiqdi.

## SAVDOGARNING MEHMONI

Bir yildan beri savdogarlik qilayotgan Azimboy shaharlik do'sti kelganini eshitdi-yu, uni uyiga mehmonga chaqirdi. Necha yillik qadrdoni, bolalik do'sti edi. Xotiniga dasturxon-ni noz-ne'matga to'ldirishni tayinlab, o'zi oshnasini qo'yar-da-qo'ymay yetaklab keldi.



Do'sti ochilib o'tirdi. Azimboyning shinavandaligiga qoyil ldi. Savdoga o'tgani, qo'li pul ko'rib, qaddini tiklaganiga xur-nd bo'ldi. O'zgarib ketibdi-da Azimboy! Kelinning pazan-ligiyu xushmuomalasidan ham dili yayradi. Izzat-ikromi-n boshi ko'kka yetdi.

Bir mahal Azimboy oshxonaga chiqdi. Xotiniga tovoqqa ki hissa qovurdoq go'sht solib kirishni buyurgan edi, ayo-ing qovog'i uyilib ketdi.

– Namuncha o'zingizdan ketib qoldingiz? – dedi xotini. Birinchi marta ko'ryapsizmi shu oshnangizni? Oqibatini 'rib turibmiz, besh yil deganda bir yo'qlab kelibdi...

Azimboy sekin shivirladi:

– Jim bo'l-yey! Esidan chiqmaydigan qilib bir mehmon laylik, keyin shaharga borganlarimizda mehmonxona qidi-b yurmaymiz... Mehmonxonada bir kun tunash necha pulga shishini bilasan-ku... Endi to'g'ri oshnamning uyiga bora-ramiz-da, xotin...

## «KO'ZI OCHILGAN» ODAM

Televizorni yoqsam, bir ustoz jurnalist kuyunib gapirib tgan ekan.

– Kattaning fikrlarini eshitib, endi ko'zimiz ochildi! Bun-n bu yog'iga qattiq ishlashimiz kerak... – deydi u.

Ko'p e'tibor berganman: Katta rahbar necha marta muhim avzuda ma'ruza qilsa, har safar shu ustoz televizorga chiqib ib, gapni nuqul «Ko'zimiz endi ochildi» deya boshlaydi.

Tavba, odamning ko'zi necha marta ochilishi mumkin? ar ma'ruzadan so'ng «qattiq ishlashimiz kerak» deydigan ardum qachon ishlar ekan-a o'zi...

Shunday o'ylab o'tirsam, javobni televizorda ustozning zi aytib qoldi:

– Bugundan boshlab sutkasiga yigirma to'rt soat mehnat lishimiz lozim...

Ha, bu zot doim aytganini qiladi. Biroq albatta, amaliy hni navbatdagi ma'ruzadan keyin boshlaydi... Ungacha esa

televizorda, keyin gazetada, so'ng radioda, internetda, qat nashgan tadbiru mashvarat borki, barida tinmay «ko'zi ochil gani»ni aytib yuradi. U zerikkunicha xudo poshsho – rahbar yana ma'ruza qilib qolar-da...

## OTA-O'G'ILLAR

Insho yozib o'tirgan edik, ot dupur-dupuri eshitildi. So'n sinfxonamiz eshigi sharaqlab ochildi-yu, bir odam vajoha bilan kirib keldi. Darg'azab. Boshida eski telpak, egnida cha vandozlar kiyadigan uvadasi chiqqan fufayka, oyog'ida qo'nj uzun askarcha etik.

Bu – sinfdoshimiz Botirning otasi edi. Botirni qamchi bi lan savalab oldiga solib kelgan ota rangi-quti uchib ketga o'qituvchimizga qarab, duduqlangancha:

– Agar bilsangiz, men umuman o'qimaganman, – ded kuyunib. – Shu uchun zo'rg'a o'ngacha sanay olaman. O'zin odam bo'lolmadim. Hech bo'lmasa, bolam o'qisin, devdim Bu nonko'r esa, maktabdan qochgani-qochgan. Oxiri o'zim mana, oyog'ingiz tagiga opkeldim. Kela-kelguncha qam chiladim. O'qimasa, o'z qo'lim bilan jonini sug'urib olaman Sizdan iltimos, shu bolamni odam qilib bering?..

U soqovlanib, tutilib, bazo'r gapirar, yig'lamoqdan ber bo'lib, muallimimizga najot kutgandek qarardi.

O'qituvchimiz betinim dars qoldiradigan, qoloq Botir ga sinovchan tikildi, sinfdoshimiz esa qamchidan momata loq bo'lib ketgan oyoq-qo`lini dam-badam ishqalab, yig'la qo'yaverdi. Rahmimiz kelib ketdi.

Oxiri muallimimiz Botirning otasiga va'da berib kuzatdi Otasi otni mindi-da, muallimdan ko'ngli to'q holda ketdi.

Biroq Botir o'sha kaltak yeganidan keyin bir haftacha du rust o'qidi-yu, so'ng maktabni butkul tashladi.

Tunov kuni – o'sha voqeadan chorak asr o'tib – qishloqq borganimda eshitib qoldim: Botir ham xuddi otasi kabi o'g'li ni maktabga rosa kaltaklab olib borib, muallimdan uni odam qilib berishni so'rab, yalinib kelibdi...



## ENG OG'IR QARG'ISH

– Men qarg'ish olganman, – dedi qovoqxonada aftodahol, arxush o'tirgan qo'ng'iz mo'ylovli kishi.

– Kim qarg'agan? – deb so'radi yonidagi sherigi bamaykotir.

– Otam...

– Nima deb qarg'agan?

– «Iloyo, kuning oylikka qolsin», degan...

Sherik bilag'onlik qildi:

– Ha, yomon bo'pti. Bu, masalan, yahudiylarda eng og'ir arg'ish ekan...

## ONA VA O'G'IL

Ishxonasidan uzoq vaqt ta'til ololmay, qishlog'iga – uyiga orolmagan o'g'il qo'li yupqaroq bo'lib turgan esa-da, onasi-a momiq ro'mol va jun paypoq sotib oldi. Otasi yorug' dunoni tark etgach, yolg'izlanib, qaddi bukilib qolgan volidasini namnun qilgisi keldi.

Aslida bittagina ro'molcha bersa ham onasi dunyoga ig'may ketar, o'g'ilni uzoq duo qilardi.

Bu safar ham shunday bo'ldi. Darvozadan kirib kelgan g'ilni bag'riga bosib, peshonasidan o'pgan onaning kiimidan qadrdon is – tandir-o'choq tutuni hidi keldi. O'g'il uyungan holda onasi boshiga ro'mol o'ragan edi, volidaning o'zidan yosh sizib chiqdi. Yorilib ketgan, serajin qo'lini ochib, g'lini alqadi.

O'g'il ketar chog'i o'z bolaligi o'tgan xonadagi ko'rpacha giga ozroq pul qo'yib qo'ydi... Onam qiynalib qolmasin, pula muhtoj bo'lmasin, qo'liga bersam olmaydi, ketganimdan o'ng ko'rpa-yostiqni yig'ishtirayotganida ko'rar, dedi.

Yo'lda kela-kelguncha otasini, onasini, o'z bolaligi kechan chog'larni xayol surib keldi.

Tunda horib ijara uyga kirib keldi. Yo'lsumkasini bo'shayotgan edi, kiyimlari orasidan bir hovuch yirik-mayda, esi-yangi pullar sirg'alib tushdi.

...Onasi, bolam tushmagurning qo'liga bersam, baribir olmaydi, hayhotdek shaharda, ijara uyda och-nahor yurmasin, deb anchadan beri pensiyasidan tejab yig'ib yurgan pulini solib qo'ygan edi...

## YIGIRMA BIRINCHI ASR BOLASI

– Uf, bu uyda tinchlik boymi-yo'mi? Kino ko'yganiyam qo'yishmaydi. Qachon qayasang, ish aytishadi. Nima, mendan boshqa odam yo'mi bu uyda?

– Zilola, jim bo'l, – dedi ona. – Multfilm tamom bo'ldi, endi so'rg'ichingni ol-da, belanchagingga yotib uxla. Kech bo'ldi. Hali kelasi yil bog'chaga borsang, nima qilasan, hayronman...

## O'ZBEKNING QARZI

– Buni senga tashlab ketishdi, – dedi yon qo'shnimiz qo'lidagi bir dasta pulni tutqazib.

– Kim? – deb so'radim hayron bo'lib.

– Bir yigitcha. Rahmatli Fozil jandachining uli, ukangizning oshnasi ekan. Qarzi bor emish.

O'ylanib qoldim, ukamning do'stiga qarz bermagandim-ku.

– Qanday qarz ekan? – deb so'radim qo'shnimdan.

– Bilmadim, – dedi u yelka qisib. – G'o'ldirab gapirdi, uncha tushunmadim gapiga. Anglashimcha, otasi tirikligida vasiyat qilgan ekan, omonat deganday bo'ldi.

Ko'p eslashga harakat qildim, biroq uning otasiga ham qarz berganim xotiramga kelmadi. Shunda qo'shnim bir gap aytib qoldi:

– Sen qarz berganmisan, yo'qmi – bilmayman. Lekin rahmatli otang Fozil jandachini ko'p suyagich edi. Birda jandachining kampiri o'lganda kafanlikkayam pul topolmagan bechora. O'shanda sening otang yonida bel bog'lab turgandi... Jandachi bandalikni bajo keltirayotganida shu esiga tushib ketgandir-da...



## MO'YSAFID VA BOLALAR

Uch bola oshiq o'ynab o'tirardi. Ularning oldidan munkillagan bir chol o'tib qoldi. Bolalar baravar salom berishdi. Chol indamay, xo'mrayib o'tib ketdi.

Shunda bolakaylardan biri:

– Qulog'i kar bo'lsa kerak, – dedi.

– Yo'q, Umar buva eshitadi, – dedi ikkinchisi. – Lekin bolalarni yoqtirmaydi...

– Nega yomon ko'radi? – deb so'radi uchinchi bola.

– O'zining bolasi yo'q-da, shunga...

Chol bir dam qoqqan qoziqday turib qoldi va so'ng hassasini do'qillatib, ortiga qaytdi. Bolalarga yaqin kelib, qo'lini quyoshga soyabon qilgancha, ko'zini qisibroq uzoq tikildi-da, shunday dedi:

– Nega o'zingdan kattaga salom bermaysizlar, a? Kimning bolasisizlar o'zi?..

## VAZIYAT

Olislarga pul topish uchun ishlagani ketgan yigit uch oy deganda fursat topib, sevgilisiga maktub bitdi. Hoshiyasiga gullar rasmini chizib, avaylab konvertga soldi. yelimlab, ustiga manzilni yozdi-da, pochtaga tashlab keldi.

Yelkasidan nafas oldi. Yuragi entikib ketdi. Yana bir necha kundan so'ng sevgilisidan sog'inchli darak keladi-da.

Biroq... o'n kun o'tsa-da, javob kelamadi. Bir oydan keyin ham jimjitlik.

«Qishlog'imiz tupkaning tagida-da o'ziyam. Xat imillab borib, imillab keladi...», deya o'ylab, o'ziga taskin berdi yigit.

Oradan ancha kun o'tib, pochtalon toqati toq bo'lgan oshiqqa bir maktub tutqazdi.

Shoshib ochdi. O'qidi-yu, eti muzlab ketdi. Maktubda shunday deyilgan edi: «Meni baxtiqaro qildingiz. Uch kunlik kelingayam xat yozadimi odam... Endi nima qilaman? Er ko'rgan, otasinikiga qaytib kelgan juvonga kim uylanadi endi?...»

## BIRGINA AYBI...

Yaqinginada uzatilgan qiz yig'lab qaytib keldi. Ota g'azabga mindi:

– Nima bo'ldi? – dedi qahri kelib.

– Anavi urdi, ota! – dedi qiz hiqillab.

– Nimaga uradi?

– O'zi birgina aybim bor: ovqatni yaxshi qilolmayman... Shuni yuzimga soluvdi, urishib qoldik.

Ota ayoliga aytdi: qizini uyiga qaytarib jo'natib yubordi.

Bir hafta o'tmasdan, qiz yana ko'zida yosh bilan tugun ko'tarib keldi:

– O'zi birgina aybim bor: non yopolmayman. Nonlarim qizarmasdan oqib tushyapti...

Ona yana uyiga qo'yib keldi.

Bir oydan so'ng qiz tushmagur yuzi momataloq bo'lib, piqillab keldi:

– O'zi birgina aybim bor edi: kir yuvsam, sovun yuqi qolib ketadi... Shuni yuzimga solgandi, tortishib qoldim.

Otaning toqati toq bo'ldi.

– Qizim! – dedi ota asabiylashib. – Agar bilsang, mening ham bir aybim bor: o'zimga yaxshi xotin, senga yaxshi ona tanlay olmagan ekanman...

Ota bu safar xotinini qiziga qo'shib kuyovnikiga yubordi.

– Borib, qizingga ro'zg'or ishlarini o'rgatmaguningcha, kuyovim qizing ishidan ko'ngli to'lmagunicha qaytib kela ko'rma, – dedi.

## CHORASI TOPILADI

Bo'lim boshlig'i tong sahardan xodimini xonasiga chorladi.

– Nimalar qilib yuribsiz, o'zi? – deya stol mushtladi bo'lim boshlig'i.

– Nima qilibman? – deya yelka qisdi xodim.

– Nega o'zboshimchalik qilasiz? Chirog'i kuygan xonalar lampochkasini almashtirishga kim ruxsat berdi sizga?



– Axir o'zingiz ishingizni bilib-bilib qiling, degansiz-ku? Xonasining chirog'i kuygan xodimlar iltimos qilishgandi, almashtirib berdim-da...

– Bu yerda o'zboshimchalik ketmaydi! Qani, zudlik bilan tushuntirish xati yozing! Bu oxirgisi, keyingi safar ishdan bo'shaysiz!

Ertasi kuni xodim yana chaqirildi.

– Nega topshiriqni bajarmadingiz? – deya do'q urdi bo'lim boshlig'i.

– Qanday topshiriq? Axir hech qanday topshiriq berganingiz yo'q-ku?

– Nima, sizga topshiriq bersa ishlaysizmi? Qachongacha tepadan buyruq kutasiz? Ishingizni bilib-bilib qilmaysizmi? Necha marta aytganman-ku sizga!

Aybsiz aybdor dod dedi. Yana tushuntirish xati yozdi.

... Kechga yaqin bo'lim boshlig'i direktorning xonasiga ikki bukilib kirdi:

– Ustoz, aytuvdim-ku, chorasi oson deb. Ish pishib qoldi. Elektrigimiz joniga to'yib bo'ldi. Ertaga yana bir siquvga olsam, o'z ixtiyori bilan arizasini yozishi aniq. Anavi aytganingiz do'stingizning kuyovini chaqiraveraymi ishga?

## MUNDARIJA

### RUHIYAT MANZARALARI

TOR KO'CHA ..... 3
KO'HNA BELBOG' ..... 11
BARZANGI ..... 16
EZGIN ERTAK ..... 23
MUNG ..... 31
TIRIK TOVON ..... 39
YURAKNING BIR CHETI ..... 46
HAVOCHIN ..... 54
YONG'OQ QURTI ..... 65
OVCHINING SO'NGGI OVI ..... 73

### KULISH – IXTIYORIY

TOVUQ QUVGAN POLVON ..... 91
TELPAK ..... 94
ROSTGO'YLAR ..... 98
«OQSOQOL» ..... 103
XOTINIM «FERMA» OCHGACH ..... 112
FUTBOLDAGI QOTILLIK ..... 118
PAND BERGAN MOMO ..... 125

### UCHQUN TUYG'ULAR

OTA ..... 129
SEVGI IQRORI ..... 129
DUNYODAGI ENG GO'ZAL AYOL ..... 129
TUSLANISH ..... 130
TO'NG'ICH O'G'IL ..... 131
HO'KIZLAR ..... 131
BOZORDA ..... 132



SAVDOGARNING MEHMONI ..... 132
«KO'ZI OCHILGAN» ODAM ..... 133
OTA-O'G'ILLAR ..... 134
ENG OG'IR QARG'ISH ..... 135
ONA VA O'G'IL ..... 135
YIGIRMA BIRINCHI ASR BOLASI ..... 136
O'ZBEKNING QARZI ..... 136
MO'YSAFID VA BOLALAR ..... 137
VAZIYAT ..... 137
UCH YOLG'IZ ..... 138
GOVMISH VA QO'ZICHOQ ..... 138
STATISTIKA ..... 139
UMR POYONIDA ..... 139
BIRGINA AYBI ..... 140
CHORASI TOPILADI ..... 140

-1801-
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI

7000 c

*Adabiy-badiiy nashr*

**Jasur KengboYev**

# O'ZBEKNING QARZI

*Hikoyalar*

«OCHUN» nashriyoti
Toshkent–2021

| | |
|---|---|
| Muharrir | N. Islomov |
| Badiiy muharrir | U. Sapayev |
| Musahhih | R. Ashurova |
| Sahifalovchi | Sh. Sirojiddinov |

Nashriyot litsenziyasi AI № 266, 15.07.2015 y.

15.02.2021 yilda bosishga ruxsat etildi.
Qog'oz bichimi 84×108 $^{1}/_{32}$. «Cambria» garniturasi.
Shartli bosma tabog'i 7,5. Adadi 3000 nusxa.
Buyurtma raqami 14 . Bahosi shartnoma asosida.

«OCHUN» nashriyoti nashrga tayyorlandi.
Toshkent sh., Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 81 uy.
«Dizayn-Print» MCHJ O'ICHK bosmaxonasida chop etildi.
100054, Toshkent sh., Cho'pon ota ko'chasi, 28-a uy.